

4
3015
Удб. поврени
МАСТР

MAGISTRIK DISSEPTATSIYASI

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 8F

ALIBEKOVA SARVINOZ FAXRIDDIN QIZI

OTKIR HOSHIMOV QISSALARIDA DAVR VOQEALARINI
TASVIRLASHDA QAHRAMON MASALASI

5A111201-O'zbek till va adabiyoti

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

filologiya fanlari nomzodi,

dotsent **N.SOATOVA**

Jizzax-2015



**“O‘TKIR HOSHIMOV QISSALARIDA DAVR VOQEALARINI
TASVIRLASHDA QAHRAMON MASALASI” MAVZUSIDAGI
MAGISTRLIK ILMIY DARAJASINI OLISH UCHUN YOZILGAN
DISSERTATSIYA ANNOTATSIYASI**

Tayanch so‘zlar: O‘tkir Hoshimov qissalari, qissaning janr xususiyatlari, davr voqeligi, qissa kompozitsiyasi, yozuvchining badiiy mahorati.

Tadqiqot obekti: O‘tkir Hoshimov qissalari tadqiqotning obekti sanaladi.

Ishning maqsadi: O‘tkir Hoshimov qissalarida davr voqealarini tasvirlashda qahramon masalasini tadqiq etish ushbu ilmiy ishning bosh maqsadi sanaladi.

Tadqiqot usullari: qiyosiy-tipologik.

Olingan natijalar va ularning yangiligi. *Ulk ber Otkir Hoshimov*

qissa janr voqeligini tasvirlashda qahramon masalasining monografik tarzda yangiligi tadqiqotning ilmiy yangiligi hisoblanadi. Ishning ilmiy yangiligi qissalarda ko‘rinadi: O‘tkir Hoshimovning qissanavis ijodkor ekanligini qissalarida ona, shaxs ruhiyatidagi o‘zgarishlar, jamiyat ma’naviy davr voqeligi bilan bog‘liqligi tahlili; yozuvchi qissalarining xosliklari yuzasidan nazariy xulosalar chiqarilganligida.

Ishning ahamiyati: *Tadqiqot natijalaridan o‘tkir shaxsida qissa* janrining tarixiy taraqqiyot bosqichlari, O‘tkir Hoshimovning qissa janrini rivojlantirishdagi o‘rni, qissalarining badiiyati masalalari yuzasidan yozilajak darslik, o‘quv qo‘llanma va xrestomatiyalar tuzishda foydalanish mumkin.

Tatbiq etish darajasi va iqtisodiy samaradorligi. Tadqiqot natijalari bo‘yicha ilmiy anjumanlarda ma‘ruzalar qilingan, (8 ta) ilmiy maqola va tezislar nashr etilgan.

Qo‘llanish sohasi. O‘zbek adabiyoti tarixi va adabiyot nazariyasi.

"The hero's matter in describing age events in O'tkir Hoshimov's stories"
written annotation of dissertation in order to be eligible for master's degree.

Supporting words: O'tkir Hoshimov's, stories genre features of the story composition of the story, writer's artistic skills.

The object of research: O'tkir Hoshimov's stories are considered to be the object of research.

The aim of scientific paper: investigating hero's matter in describing age happenings in O'tkir Hoshimov's stories is the main aim of this scientific work.

The options of research: comparative typology.

Achieved results and the news of theirs: Investigating hero's matter by monographic way in demonstrating age happenings in his stories is believed to be scientific news of investigation scientific reports are seen in the relevant sentences below: *O'tkir Hoshimov is believed to be a story-teller, in the term of mother tongue in one's mentality the analysis of relativity of community's spiritual end with age events, the oretical conclusions of writer's stories.*

Practical importance: Research results, historical development phases of story genre in Uzbek literature, His place in developing story genre, His stories can be used as school subjects, school curriculum and reading-books.

The level of research and economical productivity: speeches have been made in scientific meetings, according to research results, scientific articles and this is have been published.

Key words: the history of Uzbek literature and the theory of literature.

O‘TKIR HOSHIMOV QISSALARIDA DAVR VOQEALARINI TASVIRLASHDA QAHRAMON MASALASI

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. O‘ZBEK ADABIYOTIDA QISSA JANRI VA O‘TKIR HOSHIMOV QISSANAVIS IJODKOR SIFATIDA	
1.1. O‘zbek adabiyotida qissa janrining tadrijiy bosqichlari	10
1.2. Qissalarning tasnifiy belgilari va poetikasi	19
1.3. O‘tkir Hoshimov ijodida qissalarning o‘rni	26
II BOB. DAVR VOQELIGINI TAVSIRLASHDA RUHIYAT MASALASI	
2.1. O‘tkir Hoshimov qissalaridagi ona obrazi kechinmalarida davr voqeligiga munosabatning ifodasi	35
2.2. Yozuvchi qissalarida shaxs ruhiy tanazzulining voqelikka bog‘liqligi tasvirlari	44
2.3. O‘tkir Hoshimov qissalarida jamiyatdagi ma’naviy tushkunlik mavzulari	51
III BOB. O‘TKIR HOSHIMOV QISSALARINING KOMPOZITSIYASI. YOZUVCHI QISSALARINING UMUMTA’LIM TIZIMIDA O‘RGANILISHI	
3.1. O‘tkir Hoshimov qissalari kompozitsiyasining xilma–xilligi	61
3.2. Davr voqeligini tasvirlashdagi qissalar kompozitsiyasining o‘ziga xos jihatlari	69
3.3. O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasini o‘rganish	76
XULOSA	85
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	89-95

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbek adabiyotida qissa janri ijodkorning estetik mayllari, falsafiy qarashlari, orzu-istaklarini bayon qilishda maqbul janrlardan biri sanaladi. Mazkur janr tosh bitiklar, folklor namunalari va mumtoz adabiyotimiz nasrining eng qadimgi namunalari bilan bog'liq tarzda shakllangan va taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. O'zbek qissachiligi namunalari dunyo xalqlari adabiyotshunosligida qissaga nisbatan belgilangan me'yorlarga mos, badiiy barkamol asarlar darajasiga ko'tarilishida XX asr adabiy jarayonlari muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, Abdulla Qodiriy, Sadriddin Ayniy, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor kabi ijodkorlar qissaning jahon badiiy tafakkuri durdonalari bilan bo'ylasha oladigan namunalari yaratdilar. Bu avlod vakillari mumtoz o'zbek adabiyotida mavjud qissa janrini bir necha barobar yuqoriga ko'tarib, zamonaviy qissachilikka asos soldilar hamda uni muayyan taraqqiyot bosqichiga olib chiqdilar. Ularning an'analarini davom ettirgan Asqad Muxtor, Saida Zunnunova, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Shukur Xolmirzayev, Xudoyberdi To'xtaboyev, Ne'mat Aminov singari yozuvchilar qissa janrining adabiyotimizda to'la shakllanib, badiiy-estetik jihatdan takomillashuviga hissa qo'shdilar. Ularning asarlarida milliy o'zlikni saqlab qolishni burch deb bilgan, aqalovchi ijtimoiy muhitda asriy qadriyatlarning toptalayotganidan ozurda, ayni paytda, yashashning ma'nosini va inson qalbi sirlarini anglashga intilayotgan, achchiq turmush goh ezib, goh chetga chiqarib qo'ygan, o'zini tinimsiz taltish etayotgan qahramonlar paydo bo'ldi. Bu qahramonlar ko'ngilga yaqinligi, o'zida hayotning ziddiyatli haqiqatlarini teran badiiy aks ettirganligi bilan o'quvchilar diqqatini jalb etdi. O'zbek qissanavisligida yuqorida qayd qilingan jihatlarning qaror topishida O'tkir Hoshimovning ham alohida o'rni bor.

O'tkir Hoshimov qissalarida salafllari ijodiy tajribalari bilan birgalikda boshqalarnikiga o'xshamagan o'ziga xos badiiy tafakkur tarzi va poetik tasvir uslubi namoyon bo'ladi. Yozuvchi qahramonlarni har tomonlama oddiy inson sifatida ko'rsatish ularning shaxsiyatiga, ruhiy olamiga, dard-u dunyosiga ham murojaat qilish kuzatiladi. U o'z qahramonlarini shunchaki jamiyatning bir kishisi

mazkur davr qissalarining badiiyat darajasi, qissanavis ijodkorlarning mahorati masalalari¹, yaratilajak qissalarda ijodkorlarning e'tibor qaratishi kerak tomonlar, xususan, O'tkir Hoshimov qissalari haqida M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, S.Mirvaliyev, S.Mamajonov, U.Normatov, S.Ahmad, I.G'afurov, N.Xudoyberganov, S.Umurzoqova, T.Ubaydullayev, R.Inog'omov, N.Shukurov, A.Rasulov, Q.Yo'ldoshov, O.Abdullayevlar o'z fikr va nazariy xulosalarini bildirishgan². Ikkinchidan esa mazkur adabiyotshunoslarimizning aksariyat

¹Расулов А. Характер молодежи в современных узбекских советских повестях: Дисс..кан.филол.наук.–Т.1966; Рашидов А.Проблема духовно–нравственного становления героя в узбекской повести о рабочем классе (1920–1960 гг.): Дисс. на соискание ученой степени канд. фил. наук.–Тошкент, 1981; Тагматов К. Нравственный мир героя и художественные искания в узбекской повести (1960–1970 гг.):Дисс. на соискание учен. степен. канд. фил. наук.–Ташкент, 1981; Захидова С. Жанровые и стилевые особенности советской узбекской повести (60–70): Дисс..кан.филол.наук. –Т. 1982; Тенглашев М. Особенности конфликта в узбекских повестях 80–х годов: Дисс..кан.филол.наук. –Т. 1989; Мирзаев И. Янгича тафаккур ва хозирги ўзбек насрининг тараккиёт йўллари.Фил.ф.док.дисс.автореф.–Тошкент, 1991; Топпулатов Г. Нравственные искания в современной узбекской повести (Мурад Мухаммад Дост. Тагай Мурод. Гаффар Хатамов): Дисс. канд. филол. наук.–Ташкент, 1993; Каримов Ҳ. Ҳозирги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепсияси. Фил.ф.док. дисс.–Тошкент, 1994; Кубаев К. Ўзбек киссаларида тарихий ҳақиқат ва бадий маҳорат (60–80 йиллар) Фил.ф.н. дисс. автореф. Тошкент, 2005; Каримова Ю. Пиримкул Кодиров киссаларида маънавий–ахлокий муаммоларнинг бадий талқини. Филол.ф.н.дисс.–Тошкент, 2005; Рустамова М. Истиқлол даври ўзбек киссалари: Фил.ф.н. дисс. автореф.–Тошкент, 2006.; Аброров А. Ўзбек повести.–Т.:Фан, 1973; Каримов Ҳ. Жанрми ёки услуб.–Т.: Фан, 1991; Улугов А. Киссачилигимиз кирралари. –Т.:Ўқитувчи, 1991; Рашидов А. Ўзбек киссаларида меҳнат тасвири. –Т.: Фан, 1990; Холмуродов А. Кисса поэтикаси.–Т.: Фан, 2006.; Холмуродов А. Ўзбек киссачилиги: тараккиёт муаммолари (XX аср сўнгги чорағи). Фил.ф.док. дисс. автореф.–Тошкент, 2008.

² Қўшжонов М. Қалб ва кифа.–Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти. 1978; Қўшжонов М. Доим изланишда. Ижод сабоқлари.–Т., 1973.–Б.155–163; Мирвалиев С. Наср. давр. қаҳрамон. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти. 1983; Шарафиддинов О. Ижод доволари оша// Истеъдод жиллолари.–Т.:Адабиёт ва санъат нашриёти. 1978. Б.183–228; Шарафиддинов О. Дунёда офтоб борки // Ҳақиқатга садоқат.–Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти. 1989. –Б.334–344; Шарафиддинов О. Ҳажвиегга садоқат. Қаҳқаҳа. –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти. 1987. – Б. 5–18; Шарафиддинов О. Эл ардоқлаган адиб // Ў.Ҳошимов. Баҳор кайтмайди: Сайланма. Кисса ва хикоялар. – Т.: Нашриёт–матбаа бирлашмаси. 1992. – Б.5–24; Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи. 1986; Мамажонов С. Сайланма. Адабий–танқидий мақолалар. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти. 1981; Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1999; Норматов У. Ҳозирги киссалар поэтикасига доир // Насримиз уфқлари. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти. 1974. – Б.45–64; Норматов У. Насримиз анъаналари. –Т.:Адабиёт ва санъат нашриёти. 1978; Норматов У. Гўзаллик билан учрашув. – Т., 1976; Норматов У. Киссадан хиссалар // Жаҳон адабиёти. – Тошкент, 1997. – № 3. – Б.157–160; Каримов Э. Ўзбек совет адабиётида повесть жанри //Адабий турлар ва жанрлар. 1–жилд. – Т.: Фан, 1991. – Б–109–167; Худойберганов Н. Кўнгил рози

tanqidiy tadqiqotlari va asarlari sobiq sho'ro davrida yaratilgani bois ularda hukmron mafkuraning salbiy ta'siri bo'lishi tabiiy. Shuni nazarda tutib, ularning ayrim talqin va xulosalariga tanqidiy yonshishiga harakat qilindi.

Garchi O'tkir Hoshimov qissalari yuqorida qayd qilingan kabi ilmiy tahlilshlarda turli darajada tahlil qilingan bo'lsa-da, hozirga qadar yozuvchi qissalarida davr voqealarini tasvirlashda qahramon masalasi yozuvchining o'ziga xos uslublari monografik tadqiqot mavzusi bo'lgan emas.

Tadqiqot maqsadi: O'tkir Hoshimov qissalarida davr voqealarini tasvirlashda qahramon masalasini tadqiq etish ushbu ilmiy ishning bosh maqsadi sanaladi.

Tadqiqot vazifalari. Maqsadga ko'ra, quyidagilar tadqiqotning vazifalari qilib belgilandi:

- O'tkir Hoshimov ijodida qissa janrining o'rnini belgilash;
- yozuvchi qissalarining mavzu ko'lamining shakllanib borishini tahlil qilish;
- yozuvchining ona obrazi kechinmalari orqali davr voqeligiga qay tarzda yondashganligi yuzasidan xulosalar chiqarish;
- yozuvchi qissalarida shaxs ruhiy tanazzulining voqelikka bog'liqligi tasvirlari masalasiga e'tiborning qaratilishini yoritish;
- qissanavis asarlarida jamiyatdagi ma'naviy tushkunlik mavzularining tasvirlanganligi yuzasidan umumlashmalar bildirish;
- O'tkir Hoshimov qissalari kompozitsiyasining xilma-xilligini tadqiq qilish;

// Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1984. – 12 окт.: Худойберганов Н. Меъёр ва тасвир (Ёшлар киссачилигининг баъзи муаммолари) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1983. – 28 янв.: Хотамов Н., Саримсоков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча низоли дугати. – Т.: Ўқитувчи, 1983. – Б. 248; Худойберганов Н. Сўз курашга чорлайди. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978; Худойберганов Н. Ишонч. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988; Назаров Б. Адаш Карвон изтироблари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1983. – 10 июнь; Назаров Б. Ҳаётийлик безавол мезон. – Т.: Ёш гвардия, 1985; Рашидов А. Ишчи – киссаларимиз қахрамони. – Т.: Ўзбекистон, 1980; Ғафуров И. Бадий воқеликнинг ўзига монанд тил // Ўттиз йил нзхори. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987; Соликов С. Ёшлар киссачилиги ҳақида ўйлар // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1983. – 12-сон. – Б.160–165; Улугов А. Қалб таҳлили: кейинги киссаларга бир назар // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1988. – 8 апр.

–Oʻtkir Hoshimov qissalarida davr voqeligini tasvirlashdagi kompozitsion oʻziga xosligini koʻrsatish;

–umumtaʼlim maktablarida Oʻtkir Hoshimov qissalarining oʻrganilishini taʼminlash.

Dissertatsiyaning ilmiy–tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi.

Tadqiqot Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti Oʻzbek adabiyoti va uni oʻqitish uslubiyati kafedrası rejasiga muvofiq amalga oshirilgan. Mavzu kafedraning –sonli yigʻilishi va oʻzbek filologiyasi fakultetining –sonli va Jizzax davlat pedagogika institutining sonli (yil, oy, kun)dagi ilmiy kengashida tasdiqlangan.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Oʻtkir Hoshimovning “Choʻl havosi”, “Sirli yulduz”, “Qalbingga quloq sol”, “Bahor qaytmaydi”, “Dunyoning ishlari”, “Ikki karra ikki–besh!” kabi qissalari tadqiqotning obyekti sanaladi. Tadqiqotning predmetini Oʻtkir Hoshimov qissalarida davr voqealarini tasvirlashda qahramon masalasiga qaysi rakursdan va ijodiy pozitsiyadan yondashganligini koʻrsatib berish tashkil etadi.

Tadqiqotning metodlari. Prezident I.A.Karimovning milliy adabiyotimizning oʻtmishi va hozirgi davrdagi holati, davr adabiy qahramonlarini yaratish, ijodkor masʼuliyati, oʻzbek shoir va yozuvchilarining jahon badiiy estetik tafakkurini taraqqiy ettirishdagi oʻrnini belgilash kabi masalalar yuzasidan bildirgan xulosa, koʻrsatma va tavsiyalari ishimizning metodologik asosi boʻlib xizmat qildi. Shuningdek, G.V.F.Gegel, L.Tolstoy, V.V.Vinogradov, M.Baxtin, L.V.Chernets, N.A.Gulyayev, R.Uellek, O.Uorren kabi jahonning yetuk adib va adabiyotshunoslari tomonidan badiiy asar nazariyasi, xususan, qissa janri tadqiqi yoʻnalishida amalga oshirilgan ishlar tadqiqot uchun ilmiy–nazariy asos vazifasini oʻtadi. Shuningdek, tadqiqotda oʻzbek adabiyotining nazariy masalalari hamda janr muammolari boʻyicha salmoqli ishlarni amalga oshirgan I.Sulton, M.Qoʻshjonov, N.Karimov, S.Mamajonov, N.Vladimirova, S.Mirvaliyev, B.Nazarov, U.Normatov, A.Rasulov, D.Quronov kabi adabiyotshunos olimlarning fikr–mulohazalariga

amandik. Tadqiqot jarayonida analitik va qiyosiy–tipologik tadqiq usulidan foydalanildi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

–Oʻtkir Hoshimov qissalarida mavzu koʻlamining tadrijiy oʻzgarib borganligining koʻrsatilganligi;

– yozuvchining ona obrazi kechinmalari orqali davr voqeligiga nisbatan bildirgan munosabatining ifodalari tahlili;

–shaxs ruhiy tanazzuli va jamiyatdagi maʼnaviy tushkunlikning voqelikka bogʻliqligining yozuvchi tasvirlaridagi tajassumi tadqiqi;

–Oʻtkir Hoshimov qissalari kompozitsiyasining har bir mavzu yuzasidan tilma–xillikka egaligi yuzasidan bildirilgan umumlashmalar;

–Oʻtkir Hoshimov qissalarida davr voqeligini tasvirlashdagi kompozitsion oʻziga xoslikning koʻrsatilganligi.

Ishning ilmiy yangiligi. Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, eng avvalo, ilk bor Oʻtkir Hoshimov qissalarida davr voqealarini tasvirlashda qahramon masalasining yaxlit tarzda tadqiq etishga qaratilganligi bilan belgilanadi. Bulardan tashqari tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagi jihatlarda namoyon boʻladi:

–Oʻtkir Hoshimovning qissanavis ijodkor sifatida shakllanish bosqichlari, qissalarining mavzu va badiiyat nuqtayi nazaridan oʻzgarib borganligining koʻrsatilganligida;

–ona obrazi kechinmalari yozuvchining davr voqeligiga munosabati ifodasi ekanligi yuzasidan bildirilgan xulosalarda;

–shaxs ruhiyatida yuz berayotgan qarama–qarshiliklarning davr voqeligiga bogʻliqligining tahlilga tortilganligida;

–jamiyatda maʼnaviy tanazzulning davr voqeligi bilan uzviyligi tasvirlari boʻyicha tadqiqotlarda;

–yozuvchi qissalarining kompozitsion oʻziga xosliklari yuzasidan chiqarilgan nazariy xulosalarida.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu dissertatsion ishda Oʻtkir Hoshimov ijodida qissa janri, yozuvchi qissalari mavzu koʻlami va

poetikasi, o'zbek adabiyotidagi qissa janrining mavzusi va poetik takomili masalalari, nasriy asarlarning kompozitsiyasi yuzasidan olib boriladigan tadqiqotlar, adabiyot tarixi va adabiyotshunoslik fanlari bo'yicha maxsus kurs va seminarlarda manba sifatida foydalanish mumkin.

Natijalarning joriy qilinishi. Tadqiqot natijalaridan Jizzax davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabalariga, hamda akademik lisey o'quvchilariga o'zbek adabiyoti tarixining XX asr davrini o'qitish bo'yicha ma'ruza hamda amaliy mashg'ulot darslarida foydalanilmoqda.

Ishning sinovdan o'tishi. Ish Jizzax davlat pedagogika instituti o'zbek adabiyoti o'qitish metodikasi kafedrasining 2015 yil aprel oyida bo'lib o'tgan yig'ilishida muhokama qilib himoyaga tavsiya qilingan. Mavzu yuzasidan "Ayol-ma'naviyat gulshani" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida (Jizzax shahri, 2013–2014–yil), va Yosh sharqshunoslarining akademik Ubaydulla Karimov nomidagi XI ilmiy-amaliy konferensiyasida (Toshkent shahri, 2 aprel, 2014 yil) ma'ruzalar qilingan.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni va natijalari e'lon qilingan jami 7 ta maqola hamda tezisda o'z ifodasini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, 9 faslni o'z ichiga olgan uchta asosiy bob, xulosa, 102 nomdagi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 95 betni tashkil etadi.

I BOB. O'zbek adabiyotida qissa janri va O'tkir Hoshimov qissanavis ijodkor sifatida

1.1. O'zbek adabiyotida qissa janrining tadriijiy bosqichlari

Qissa Sharq adabiyotida qadim zamonlardan buyon faol yashab kelayotgan janr bo'lib, u turli davrlarda turlicha talqin qilinib kelindi. "Qissa – badiiy adabiyotda epik janr turlaridan biri. G'arbiy Yevropa va Amerika adabiyotida povest ma'nosidagi qissa tushunchasi yo'q, nasrning romandan boshqa barcha janrlari "novella" termini orqali ifodalanadi. Rus va o'zbek adabiyotlarida qissaning hozirgi va qadimgi ma'nolari o'rtasida farq bor. Masalan, qadimgi rus adabiyotida har qanday nasriy asar povest deb atalgan. O'zbek adabiyoti tarixida rivoyat usulida nasr yoki nazmda yozilgan tarixiy–afsonaviy asarlar qissa deb quritilgan. Masalan, "Qissayi Sayfulmuluk", "Qisasi Rabg'uziy" va hokazo. Hozirgi ma'nodagi o'zbek qissasi rus adabiyotidagi "povest" terminiga to'g'ri keladi va, asosan, roman bilan hikoya oralig'idagi o'rtacha hajmli nasriy janrni ifodalaydi. Qissa, odatda, bir va bir necha shaxslar taqdiriga oid turli voqealarni o'ziga asos qilib olishi bilan epik turning hikoya, hajmi va mazmunining nisbatan cheklanganligi bilan romandan farq qiladi. Qissa hayot murakkabliklarini hikoyaga nisbatan kengroq, xarakter hamda voqelik ko'lamini romanga qaraganda kamroq qamrab oladi. Qissada u yoki bu shaxs hayotining ma'lum bir davri xronikal tarzda bayon qilinadi. Qissada lirizm hikoya va romandagidan kuchliroq bo'lishi mumkin. Roman kabi qissaning ham avtobiografik (Oybek, A.Qahhor, N.Safarov), tarixiy (Mirkarim Osim, Ya.Ilyosov va b.), fantastik (T.Malik, H.Shayxov, M.Mahkamov va b.) turlari bor",¹—deb ta'rif beriladi Milliy ensiklopediyada.

Izohli lug'atda "Qissa (arabcha –tarix, hikoya, rivoyat, voqea). Asar asosida yotgan qamrovning romanga nisbatan torligi, hikoyaga nisbatan tengligi, shunga muvofiq holda, sujet va kompozitsiyaning ham romanga nisbatan soddaligi, hikoyaga nisbatan murakkabligi bilan xarakterlanuvchi

adabiy asar”¹,-deb ta’rif berilar ekan, manbada ham qissaning uch turi borligi aytiladi.

Adabiyotshunosligimizda qissa janrining o’ziga xos xususiyatlari, uning povest janriga munosabati kabi nazariy masalalar xususida turlicha qarashlar mavjud. Ayrim adabiyotshunoslar qissani rus va Yevropa adabiyotidagi povest janridan farqlanuvchi mustaqil janr deb hisoblaydilar.

Akademik Izzat Sulton povest so’zini qissa deb qo’llashni maqsadga muvofiq deb topmagan, olimning fikricha: “Povest o’zbek yozuvchilari va adabiyotshunoslari terminologiyasida ba’zan “qissa” termini bilan ham ifodalanadi. Bizningcha, klassik eposga taqlidan iste’mol etiladigan bu terminni “povest” termini bilan parallel qo’llash unchalik asosli bo’lmasa kerak. Chunki povestning qissadan farqlari ham bor: avval aytilganidek, “qissa” ko’pincha ishqiy mazmunga ega, hozirgi zamon povestida esa ishqiy liniyaning bo’lishi shart emas”². Izzat Sulton povest va qissa o’rtasidagi muayyan tafovutni ta’kidlash bilan bir qatorda fikrlarini asoslashga uringan.

S.Mirvaliyev esa: “..qissa mazmuni ichki hajmi jihatidan endilikda povest tushunchasi mazmunini o’zida to’la ifodalay olmayotganga o’xshaydi. Oqibatda qissa hikoya bilan povest janri o’rtasidagi mustaqil janr bo’lib qolmoqda”³,-deb yozadi. A.Abrorov ham povest va qissani alohida janrlar deb hisoblagan edi: “Povest janri qobig’ida yangi prozaik janr-qissachilik paydo bo’ldi. Holbuki, qissa povest janri qobig’ida paydo bo’lmagan. G’arbda povest qancha qadimiy va qancha keng tarqalgan bo’lsa, Sharqda qissa shuncha qadimiy va keng tarqalgan. Ikkinchidan, qissa povestning qobig’ida emas, o’z qobig’ida yuzaga kelgan va shunday yashamoqda. Chunki qissa va povest bir janrning “ikki tildagi aynan nomi. Ular logik jihatdan o’zaro ekvivalent”⁴.

Qissa ham povest ham o’z taraqqiyoti mobaynida turlicha shakliy-mazmuniy o’zgarishlarga uchradi. Bu esa qonuniy hol bo’lib, qissaning

¹ Ўзбек тилининг изохли лугати. 5 жилд. 5-жилд.-Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2005.-Б.307

² Сulton И. Адабиёт назарияси.-Т.: Укитувчи, 1986.-Б.258

³ Мирвалиев С. Ўзбек романи.-Т.: 1969.-Б.277

⁴ Дугов А. Киссачилигимиз кирралари.-Т.: 1991.-Б.13

ishdagi holati bilan povestning bugungi holatini qiyoslab bo'lmaganidek, povestning o'tmishi bilan qissaning hozirgi holatini ham qiyoslab bo'lmaydi. Chunki bir janrni sun'iy holda ikki janr hisoblab, noto'g'ri metodologik qarash hech qachon o'zini oqlay olmaydi. Qissa va povestni ayri-ayri janr deb qarashda ana shunday holat ko'zga tashlanadi. Aslida, qissaning janr xususiyatlarini aniqlash povestning janr xususiyatlarini aniqlash yoki, aksincha, povestning janr xususiyatlarini ochish qissaning janr xususiyatlarini ochish demakdir.

Rus adabiyotshunosligida povestning janr xususiyatlari haqida talaygina fikr-mulohazalar bildirilgan. V. Belinskiy va V.Kojinovning bu boradagi qarashlari diqqatga sazovor. Uningcha, romandan kichik, novelladan katta prozaik janr povestdir. Lekin povestni hajmiga qarab roman va novella (hikoya)dan farqlash o'zini oqlamaydi. Povest, roman va hikoyaning jiddiy shakliy farqlari ber: povestda tasvirlash, ko'rsatish emas, balki u yoki bu shaxs bilan bog'liq voqea yoki hodisalarni hikoya qilish yetakchilik qiladi—povest xronikaga qarab tortadi. Unda romandagidek murakkab, tugal sujet chizig'i bo'lmaydi. Binobarin u, povestni o'rtacha shakldagi nasriy epik janr deb umumlashtirsa bo'ladi. Povestda bayonchining, muallifning ovozi yetakchilik qiladi. Bayonchi ushbu janrga mansub asarning yaxlitligini ta'minlaydi¹.

Akademik D.S.Lixachev "povest muallif va o'quvchi uchun fikr tashuvchi bo'lishi shart", deb yozganida qissalardagi bayonning o'ziga xosligini, jonliligini va shiddatligini nazarda tutgan edi². Rus povestlarini tadqiq etgan V.M.Golovko povestning "barcha manzaralari, V.G.Belinskiy fikricha, bir fikr bilan nafas oimog'i kerak", deb yozadi³.

O'zbek adabiyotshunosligida povest va qissaning bir janr atamasi ekanligi taqridagi A.Ulug'ovning fikrini tasdiqlovchi qarash XX asrning 80-yillaridayoq mavjud edi. Jumladan, adabiyotshunoslik terminlari izohiga bag'ishlangan kitoblarda bu haqda quyidagilar aytilgan edi "...yozma va xalq og'zaki ijodidagi

Кожинов В. Повесть // Краткая литературная энциклопедия. —М., 1968. —С.814-816

Лихачев Д.С. Неравнодушная проза. —М.:1984. —С.3

Головко В.М. Поэтика русский повести. —Саратов. 1992. —С.17

qissalar og'zaki aytilib, ularda improvizatsiya yetakchi rol o'ynaydi. Ular ilmiy adabiyotlarda xalq kitoblari termini bilan yuritiladi.

Hozirgi adabiyotimizdagi hikoyadan katta, romandan kichik va bir qahramon sarguzashtlari asosida yuzaga kelgan asarlar qissa deb yuritilmoqda. Bunday asarlar o'z xarakteri, janr imkoniyatlari, badiiy-tasviriy prinsipi va usullari natidan povest janri bilan bir xildir. Shuning uchun ham hozirgi prozadagi qissa terminini povest terminining sinonimi sifatida tushunmoq lozim¹.

Adabiyot tarixining muayyan davrlarida, bu xususda ba'zi tanqidchi va adabiyotshunoslar bahsli fikrlarni o'rtaga tashlaganlar².

Ma'lum bo'ladiki, qissa va povest terminlari bir janrning ikki xil nomlashidan iborat, ya'ni ular teng yoki aynan narsalarning ikki tilga oid so'zlar vositasida nomlanishidir. Shu sababli ularning har biriga alohida janr deb qarash va sun'iy farqlar topish ortiqcha narsa.

Qissa va povest yagona janrning ikki xil nomlanishidan iborat ekan, u holda qissa (povest)ga xos yetakchi janr xususiyatlari nimalardan iborat?

Qissa roman va hikoyadan farqli o'laroq, bir shaxsning kechmishi va sarguzashtlariga asoslanadi. Aniqroq qilib aytganda, qissada bir qahramon hayotining muayyan qismi, ya'ni drammatizmga boy, lirik talqinga moyil voqealar tanlab olinadi. Ch.Aytmatovning barcha qissalari, A.Qahhorning "Sinchalak", O.Yoqubovning "Muqaddas", O'.Hoshimovning "Bahor qaytmaydi", "Qalbingga quloq sol", "Cho'l havosi", "Sirli yulduz", "Ikki xarra ikki-besh!", T.Murodning "Yulduzlar mangu yonadi", "Ot kishnagan oqshom", "Oydinda yurgan odamlar", O'.Umarbekov, Sh.Bo'tayev, E.A'zamov, X.Sultonov kabi adiblarning qator qissalari ana shunday xarakterga xos.

Umuman olganda, qissani hajm nuqtayi nazaridan chegaralash, ya'ni romandan kichik, hikoyadan katta bo'lishi lozim deyish janrning ilmiy

¹ Хотамов Н., Саримсоков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-Ўзбекча изоҳли аниқланиши. -Т.: 1983. -Б.169-170.

² Аббасов А. Ўзбек повести. -Т.:Фан. 1973. Мирзалиев С. Ўзбек романи. -Т.: Фан.1969. Сulton И. Адабиёт назарияси.-Т.: Ўқитувчи. 1980

mezoni emas. Qissa adibning g'oyaviy niyati, badiiy mahorati bilan bog'liq holda har ikkala hajmda bo'lishi mumkin. Chunki o'zbek adabiyotida qissa—etnologiya, qissa tetrologiyalar ham yaratildi. Romanga qo'yilgan masalaning ramrovi, tafakkurning kengligi, sujetning murakkab va ko'p planli bo'lishi, har necha qahramonlar bilan bog'liq voqealarning tasviriga asoslanishi bilan qissadan farqlansa, qissa yagona qahramon sarguzashtini xronikal tashkillikdagi tasviri bilan roman va boshqa epik janrlardan farqlanadi.

Qissa voqealari asosan qahramon tilidan, bayonchi (adib yoki boshqa shaxs) tomonidan hikoya qilinadi. Qissaga xos yetakchi xususiyatlardan yana biri shundaki, mazkur janr talabiga ko'ra asar markaziga qo'yilgan masala yoki muammo faqat bir shaxs bilan bog'liq bo'ladi. Ana shu masala yoki muammo hal bo'lishi bilan asar sujeti ham intihosiga yetadi.

Bizgacha yetib kelgan Yo'llug'tegin, Bilgaxoqon, Kultegin kabi qadimiy qissalarimiz o'tmishiga oid O'rxun—Yenisey toshbitiklaridagi turkiy xalqlarning pahlavonlik, vatanparvarligi haqidagi ma'lumotlari hajman ma'lum bir davrni o'z ichiga olganligi sababli tarixiy ma'lumotdan ko'ra, o'rta asrlarda shakllanib ulgurgan qissa janriga yaqin turadi. Bu hol o'rta asrlar musulmon dunyosida ayrim nomdor pahlavonlar, din yo'lida qurbon bo'lgan anbiyo va avliyolar haqidagi epik asarlar bevosita qissa deb atalgan asarning barqarorlashishiga zamin bo'lgan deyishimizga asos bo'ladi.

Shu bilan birga o'rta asrlar qissachiligining ma'lum bir qolipga tashishida "Avesto" kabi qadimiy yozma manbalarimiz ham katta ahamiyat oshirgan. "Avesto"dagi yaxshilik bilan yomonlik, oq bilan qora o'rtasidagi jangiy kurashlar mavzulari keyingi davrlarda shakllangan qissalarning mazmuni tashkil qilgan. Faqat keyingi davr qissalarida bayon uslubi, obrazlar tashkili kabi unsurlarda o'zgarishlar yuz bergan. Bu, albatta, tabiiy hol. Chunki har bir davr o'quvchisining estetik didi, badiiy tafakkur tarzi bo'ladi. Ana shu jarayon bilan birgalikda qissa janrining tabiati, o'ziga xosligi shakllanib boradi.

O'rta asrlar qissachiligining shakllanishida omil bo'lgan jihatlardan biri, shubhasiz xalq og'zaki ijodi namunalari hamdir. Xususan, turkiy xalqlarning faxri sanalgan Afrosiyob haqidagi qissalar ham o'rta asrlar qissachiligi bilan birga zamonaviy qissachiligimizning poydevorini tashkil qildi. O'rta asrlar va hozirgi davrda shakllangan qissalarning alohida-ahida bob va fasllarga bo'lib bayon qilib borilishiga o'xshab ketadi. Ushbu qissachiligimizning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini belgilovchi omillardandir.

O'z navbatida o'zbek adabiyotida qissa janrining barqarorlashib borishida o'rta asrlardan XX asrga qadar amalga oshirilgan tarjima asarlarning ham o'z o'rni bor. Xususan, XVI– XIX asrlarda “Abumuslimnoma”, “Qahramon qotil”, “Chor darvesh”, “Shohnomai nasriy” kabi asarlar nasriy qissa shaklida o'zbek tiliga tarjima qilindi va bular o'zbek qissachiligining tamal toshlaridan bo'lib xizmat qildi.

Qadimda qissaxonlar repertuarida ommalashgan asarlarni V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifov “xalq kitoblari” deb ataganlar. Ular shahar va qishloqlarda maxsus qissaxonlar faoliyat yurgizganliklarini ta'kidlaydilar¹.

Tarixan “xalq kitoblari” ham “qissa” atamasi bilan yuritilgan asarlar, Jirmunskiy va H.Zarifovlarning fikricha, ayrim xususiyatlari bilan qissa janrining ba'zi qirralarini ifodalaydi. Ya'ni “...hozirgi kunda ilmiy adabiyotlarda qo'llanilayotgan va adabiyotshunoslik terminlaridan biri sifatida qabul qilingan “xalq kitobi”, “xalq romani” aslida o'zbek adabiyoti tarixidagi ma'lum va mashhur qissalardir”². Ammo qissa janri haqida fikr yuritilar ekan, «xalq kitoblari»ni zamonaviy qissa bilan aralashtirib yubormaslik lozim. Bizningcha, «xalq kitoblari» atamasi asar janriga emas, ko'proq ularning tarqalish doirasiga qaratilishi lozim.

¹ Jirmunский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – М.: ОГИЗ, 1947. – С. 279–282.

² “Узбек адабиёти тарихи (XVI asrdan XVIII asrning 70– йилларигача). Беш томлик. 3–том. – Фан, 1978. – Б.152.

“Xalq kitoblari” termini asosan Yevropada paydo boʻlib, keyin rus va barcha xalqlar adabiyotshunosligi, kitob chop etish bilan shugʻullanuvchi shaxslar orqali bizning adabiyotshunosligimizga kirib kelgan. Ushbu termin faqat bitta janrni emas, balki oʻrta asrlarda rivoya usulida yaratilgan barcha asarlarni anglatgan. Bunday epik asarlar nasrda yozilganligi sababli “qissa” deb yuritilgan.

XX asrga kelib Behbudiy, Fitrat, Choʻlpon, Qodiriy kabi ijodkorlar, bir tomondan, Sharq adabiyotining koʻp asrlik anʼanalarini davom ettirdilar; ikkinchi tomondan, rus va Yevropa soʻz sanʼatining ilgʻor tamoyillarini milliy adabiyotimizga dadil olib kirdilar. Oʻzbek realistik qissalarining ilk namunalari ham ana shu adiblar yaratdilar. M.Shermuhammedovning “Befarzand Ochildiboy”, Choʻlponning “Doʻxtir Muhammadyor”, S.Ayniyning “Odina” kabi asarlari oʻzbek realistik qissalarining ilk namunalari hisoblanadi.

Anʼanaviy qissachilikdan yangi realistik qissachilikka oʻtishning obyektiv ham subyektiv sabablari mavjud. Obyektiv omillar har bir milliy adabiyotning u yoki bu tarixiy davrdagi holati, tarixiy taraqqiyoti, jahon adabiyotidagi jarayonlar bilan bogʻliq. XX asr boshida oʻzbek adiblari realistik tasvir prinsiplari ildiz otgan. Ozarbayjon, tatar, usmonli turk adabiyotidan hamda ular orqali Yevropa adabiyoti yutuqlaridan xabardor va bahramand boʻldilar. Bu esa milliy adabiyotda realizmning kuchayishiga taʼsir koʻrsatdi, natijada yangi davr adabiyotida mumtoz qissachilik anʼanalari yetakchilik qila olmadi. Uning oʻrnini asta-sekin yuqorida nomlangan tilga olingan xalqlar adabiyoti nasrining taʼsiri egallay boshladi. M.Shermuhammedovning “Befarzand Ochildiboy”idan tortib A.Qodiriyning “Obid ketmon”igacha boʻlgan asarlarda turli miqyos va darajalarda namoyon boʻlgan badiiy realizm shu davr oʻzbek badiiy nasrining asosiy tamoyili darajasiga koʻtarildi. Realistik belgilarga ega boʻla boshlagan qissachilik oʻzbek nasnavisligida yangi bir sahifa boʻldi.

A.Abrorovning fikricha, “adabiyotimizning hozirgi davrida prozaning yangi turi – qissaning tashkil topishi va shakllanishida 20– va 30–yillarda yaratilgan yangi sujetli hikoyalarning roli va xizmati shubhasiz, katta boʻldi. Qissa ana shu yangi sujetli hikoyadan oʻsib chiqdi, tashkil topdi, shakllandi va mustaqil janr

...atida rivojlanmoqda”¹. Bu o’rinda adabiy janming hayotiy qamrovi, uning badiiy qonuniyatlari va ular o’rtasidagi uyg’unlik masalalari olim nazaridan chetda qolgan. Har bir milliy adabiyotdagi sof adabiy janrlar birinchi navbatda, shu adabiyot bag’rida tug’iladi. Boshqa xalqdan kirib kelgan janrlar genetik jihatdan o’zga adabiyot bag’rida chuqur ildiz otishi mushkul. Inchunun, o’zbek adabiyotida mavjud aksariyat janrlarning ham genezisi mumtoz adabiyotimizdadir.

XX asrga kelibgina paydo bo’lgan hikoya, qissa, roman va boshqa janrlarning ham milliy asoslari bor. Masalan, realistik romanlar asosida “xalq romanlari”, realistik qissalar asosida esa og’zaki va mumtoz qissalar yotadi. Ammo mavjud janrlarning boyishi, badiiy jihatdan takomil topishida o’zga xalqlar adabiyotining ta’sir kuchi beqiyosligini inkor qilib bo’lmaydi.

O’zbek xalq romanlarining realistik roman darajasiga ko’tarilishida, og’zaki va mumtoz qissalarning realistik qissalar darajasiga o’sib o’tishida rus va qardosh xalqlar adabiyotining ta’siri benihoya katta ekanligi shubhasiz.

A.Abrorovning ta’kidlashicha, “...hikoya va povest janri oralig’ida bo’lgan yangi ma’nodagi “qissa”² ham mavjud. Bizning fikrimizcha, “qissa” va “povest” atonida-alohida janr emas. Aksincha, bu terminlar sinonimdir, ular ikki xil asarni beladalamaydi. “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha–o’zbekcha izohli lug’ati”da ham qissa janridagi asarlarning “o’z xarakteri, janr imkoniyatlari, badiiy–tasviriy prinsip va usullari jihatidan povest janri bilan bir xil”³ ekanligi qayd etilgan. “Qissa” va “povest” aynan bir janrning ikki xil nomi bo’lib, XX asrning 30–50–yillarida va undan keyin o’zbek realistik nasrida “povest” janr belgisi ostida e’lon qilingan barcha asarlarni “qissa” deb qarash ilmiy jihatdan asoslidir.

Hozirgi zamon o’zbek realistik qissachiligi taraqqiyotiga A.Qodiriy, S.Ayniy, G.G’ulom, A.Qahhor, A.Muxtor, O.Yoqubov, P.Qodirov, O’.Hoshimov kabi shaxslar katta hissa qo’shgan. Xususan, XX asrning so’nggi choragida qissachilikda

¹ Abrorov A. Ўзбек повести. – Т.: Фан, 1973. – Б.89.

² Ша асар. – Б. 88.

³ Хатамов Н., Саримсоков Б. Адабиётшunoslik терминларининг русча–ўзбекча изохли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1983. – Б. 169.

zaga kelgan mazmuniy yangilanishlarga alohida e'tibor qaratildi. Bu davrda o'zbek nasrini ham sifat, ham son jihatdan boyitgan M.M.Do'st, T.Murod, A.Azamov, X.Do'stmuhammad, N.Eshonqul, Sh.Bo'tayev kabi yosh iste'dodlar o'z uslubiy yo'nalishlari va asarlarining g'oyaviy-badiiy o'ziga xosliklari bilan bir-birlaridan ajralib turganligi uchun qissa janrining ijtimoiy-badiiy faolligi bir qadar oshdi.

X.Do'stmuhammadning "So'roq", "Hay-y, Gulshod, Gulish!... yoxud qiyoslashloqcha qotillik", "Oromkursi", Sh.Bo'tayevning "Shamol o'yini", "Eski urava", "Sho'rodan qolgan odamlar" kabi qissalarida hozirgi va yaqin o'tmishdagi insonlarning ma'naviy-axloqiy qiyofalarini, ularning turmushi hamda intilishlarini, badiiy xarakter yaratishning qissaga xos chizgilarini, boshqa xalqlar adabiyotidan o'ziga xos ta'sirlanish, taqlid qilish kabi jihatlarni ham ko'rish mumkin.

Ushbu fasl yuzasidan quyidgicha xulosalarni bildirish mumkin:

1. Qissaga xos asosiy xususiyat shundaki, mazkur turdagi asar markaziga qo'yilgan masala yoki muammo faqat bir shaxs bilan bog'liq bo'ladi. Ana shu masala yoki muammo hal bo'lishi bilan asar sujeti ham intilishiga yetadi va shu jihati bilan unga yaqin turgan kichik nasriy asarlardan farqlanadi.

2. Zamonaviy o'zbek qissachiligining tadrijiy yo'li eng qadimgi toshbitiklar, "Avesto" kabi yozma yodgorliklar, turkiy xalqlar tarixiga oid afsonalar, xalq qissalariga borib taqaladi. Qayd qilingan kabi manbalar dastlab o'rta asrlar qissachiligiga zamin yaratgan bo'lsa, keyinchalik zamonaviy o'zbek qissalarida ham o'z ta'sirini saqlab qolgan.

3. Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Qodiriy, M.Shermuhammedov, S.Ayniy kabi ijodkorlar o'zbek qissachiligining uzoq yillik tajribalari va Yevropa qissanavisligi an'analari ta'yaniga tayangan holda asarlar yaratdilar.

4. Hozirgi zamon o'zbek qissalarining mavzu va badiiyat darajasining oshirilishida G'.G'ulom, A.Qahhor, A.Muxtor, O.Yoqubov, P.Qodirov, Hoshimov kabi ijodkorlarning xizmatlari beqiyos. Ularning qissalarida insonlarning ma'naviy-axloqiy qiyofalari, orzu-istaklari, o'y-fikrlari, intilishlari

jahon xalqlari qissanavisligi an'analaridan ham oziqlangan holda taqdim qilinganligini ko'rish mumkin.

1.2. Qissalarning tasnifiy belgilari va poetikasi

Har qanday adabiy janr yaxlit olganda boshqa bir adabiy janrdan o'ziga xos belgilar bilan farqlanishi kundek ravshan. Shu bilan birga har bir adabiy janr mavzu mundariyasi, qo'llangan tasvir va ifoda usullariga ko'ra ichki tasniflanishlarga egaligi ham ko'pchilikka yaxshi ma'lum. Bunday ichki tasniflar qissa janriga ham xosdir. O'zbek qissachiligining tarixiy taraqqiyot yo'liga nazar tashlasak bir nechta jihatlariga ko'ra tasniflash mumkin.

"O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"¹da qissalar tabiatiga ko'ra avtobiografik (Oybek, A.Qahhor, N.Safarov), tarixiy (Mirkarim Osim, Ya.Ilyosov va b.), fantastik (T.Malik, H.Shayxov, M.Mahkamov va b.) turlari bor²—deb tasniflangan. Albatta bu tasnifiy yakuniy deb bo'lmaydi. O'zbek qissachiligining tarixiy ildizlariga nazar tashlasak, ularda bu tasniflarda uchramaydigan belgilarning ham mavjudligi yuzaga chiqadi. Jumladan, Islom dini bilan bog'liq mavzuda adabiyotimizga diniy mavzudagi qissalar ham kirib kelganligini aytgan edik. Ular jumlasiga, Rabg'uziy qissalarini kiritish mumkin. Rabg'uziy qissalariga muvosiqa "Qur'oni Karim"dagi qissalar asos bo'lgan va ular badiiy sayqallangan. Keyinchalik Islom dinini yoyishda qatnashgan tarixiy shaxslar bilan bog'liq qissalar ham paydo bo'ldi. Bunday qissalar o'z davrida manoqibiy—agiografik xarakterda deb ham aytilgan³. Biz ularni manoqib ekanligi bilan birga tarixiy ekanligini inobatga olgan holda tarixiy—manoqibiy qissalar deya olamiz. Shu kabilar sirasiga Sobir Sayqaliyning "Qissai Ibrohim binni Muhammad", "Vays al-Qaran", "Jangnomai imomi Hanafiya", "Axtamnoma", "Zayn ul-arab", "Qissai imom Hasan va imom Husayn", "Qissai Sayqaliy", Andalibning "Qissai Yusuf va

¹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.—T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti. 2005.—B.22—23

² O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.—T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti, 2005.—B.22—23

“Zulayho”, Xolisning Bibi Fotima va Shahribonu va Imom Husayn qissasi”, “Muhammad Mustafoni o‘g‘ullari Ibrohim hikoyati”, shuningdek, “Muhammad Mustafoning tug‘ilishi”, “Muhammad ibn Ali qissasi”, “Imom Muhammad Hanafiya jangnomasi” kabilarni kiritish mumkin.

O‘z navbatida tarixiy–manoqibiy qissalarning ba‘zilari sinkretik–qorishiq uslubda bitilgan. Bunday qissalarda real tarixiy shaxslar hayoti reallik bilan birga asarlarga xos uslublarni ham o‘zida mujassam etgan. Xususan, Muhammad payg‘ambar, sahobalar, Hazrat Ali, Imom Hasan va Imom Husayn, Muhammad Hanafiyaga bag‘ishlangan qissalar tarixiylikdan ko‘ra, afsonaviylikka yaqinroq turadi. Chunonchi, ularda insonlar bilan birgalikda dev, pari kabi obrazlar ham ishtirok etadi.

Ayni kunlarda ham manoqib xarakterga ega qissalar yaratilmoqda. Garchi ularni to‘g‘ridan – to‘g‘ri manoqib deb bo‘lmasa ham, ma‘lum ma‘noda shu xarakterni davom ettirgan qissalar sifatida qayd qilish mumkin. Manoqiblarda qayd qilinganidek, din peshvolari, avliyolar kabilarning hayot yo‘liga oid muhim voqealar qalamga olingan. Bu turdagi zamonaviy qissalarda jamiyatda o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan shaxslarning ibratli hayot yo‘li bilan bog‘liq jihatlar asos qilib olingan. Ularni hozirgi kun tili bilan aytganda memuar yoki xotira sifatidagi qissalar deyish mumkin. Ushbu turdagi qissalar qahramonlarining nomlari ba‘zida boshqa qolishi ham mumkin. Ayrim hollarda real shaxs nomlari o‘zgartirilgan shaklda beriladi. Qissada hayoti asos qilib olingan shaxs prototip deb aytiladi. Said Ahmadning “Kiprikda qolgan tong” qissasida mashhur yozuvchi O‘limas Umarbekov hayotida yuz bergan voqealar tasvirlangan. Yozuvchi uni o‘z ideali sifatida maromiga yetkazib yarata olgan va bunga kitobxonlarni ham ishtirok ettirgan. Shuning bosh qahramonni ziddiyatlar orasida, hayot mashaqqatlari ichida o‘tib, o‘lim oldidan ham buki olmaydigan mustahkam iroda sohibi sifatida e‘tirof etiladi.

Shuningdek, asarga kiritilgan qisqartirma epizodlar orqali muallif mavzudan bir qancha chekingan bo‘lsa–da, asar davomida yana bosh mavzuga qaytilaveradi. Qissaning bir necha hikoyalarni o‘z ichiga olganligi qahramonni birgina muhitda

emas, hayotning turfa jabhalarida ko'rish imkoniyatini kitobxonga bera oldi. Asarda bosh qahramon O'lmas Umarbekov bo'lsa-da, u bilan birga harakat qiladigan obraz – asar muallifi yoki hikoyachi qahramondir. Shuningdek, asarda Zuhro, E.Vohidov, O'.Hoshimov, U.Normatov kabi boshqa qahramonlar ham bor. Ularning ismlari asarda hayotdagi kabi saqlanib qolgan¹.

Qissalarning zikr qilingan kabi turining yana biriga Tohir Malikning "Qaldirg'och" qissasini kiritish mumkin. Qissa tarixiy shaxs va o'zbek xalqining ma'rifatparvar vakili Abdulla Avloniy hayotiga bag'ishlangan. Abdulla Avloniy nomi asarda Asadulla Mira'lom deb o'zgartirib ko'rsatilgan.

O'zbek qissachiligi tarixida ko'proq G'arb yoki Amerika xalqlari adabiyotida uchraydigan izquvarlarga bag'ishlangan detektiv, razvedkachilar (M.Hakimovning "Ilon izidan" qissasi) hayotiga oid qissalar ham nashr yuzini tashkil etmoqda. Shuningdek, sarguzasht, sayohatnoma xarakteridagi qissalar ham shu turlarda tadqiqot ob'yekti bo'lishga arziydi. Mengziyo Safarovning "Ayrishox" nomi qissasida bugungi insonning tabiatga munosabatidagi ko'rinishlar qalamga olingan. Hozirgi kunda o'zbek qissachiligida modern yo'nalishida ijod qiluvchi rassanavislar ham paydo bo'lmoqda. Turli xil ramzlarga asoslangan bu yo'nalishda yozilgan asarlar sirasiga N.Eshonqul "Tun panjaralari", "Qora kitob" kabi qissalarini qo'shish mumkin. Mazkur qissalarni kuchli ramziy va majoziy tasvir usullariga amal qilgan holda yaratdi.

S.To'laganova 2011- yilda "Sharq yulduzi" va "Yoshlik" jurnallarida e'lon qilingan qissalarni tasniflab ikki guruhga ajratadi: Birinchisi, an'anaviy uslubdagi qissa va uslub jihatdan bir-biriga yaqin qissalar. Bularga: Nilufarning "Beoshyon ayol", A.A'zamning "Hali hayot bor", A.Ayizovning "Polvon yig'lagan", Z.Xudoyshukurning "Polvonning ori", J.Ergashevaning "Zulfizar", N.Namozovning "Notanish", X.Karimiyning "Hurliqo", B.Qobulning "Ena ayol", "Oqdala", "O'spirinlik" qissalarini kiritish mumkin. Ularni umumiy ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-maishiy mavzudagi asarlar desa ham bo'ladi.

Salayevning “Hazrati Attor” ma’rifiy, F.Salayevning “Uzro” fantastik qissasi ushbu siraga mansub.

Noan’anaviy uslubda yozilgan Sh.Turdimovning “Mezon” qissasi yuqoridagi qissalardan uslub va bayon usuliga ko’ra farqlanadi. Sh.Turdimovning “Mezon” deb nomlangan kinoqissasi folklor, mumtoz yozma adabiyot, zamonaviy adabiyot sintezining hosilasi o’laroq yuzaga kelgan. Majnun–kanonik obraz. U bizning ongimizda ma’lum sxema asosida avvaldan mavjud. Muallif ilmi, ijodiy qobiliyati vositasida anglangan mohiyatni anglatishga umidlangan. Asar yozilishdagi muallif ko’nglidan kechgan ikkilanishlar ba’zi o’rinlarda yiltillaydi. Muallifning o’lchovini majnunlarga anglaydi.” Xulosa hukm o’rnida. Sharq adabiyoti metaforik xarakterga ega, azaldan fikrni, niyatni majoz yo’lida ifodalashni ma’qul bilgan. “Mezon”da ham voqelik timsollarda, ramzlarda ifodalangan. Qissa kodlashtirilgan tizimni eslatadi¹.

Ushbu tasnifga ko’ra, qissalarni an’anaviy va noan’anaviy uslubda yozilgan qissalarga bo’lish mumkin. O’z navbatida, qissalarda ko’tarilgan mavzularni diniy–falsafiy, axloqiy–maishiyga ajratsa bo’ladi. Shuningdek, falsfning avvalida yozilgan o’tgan diniy mavzudagi qissalarni ham qo’sha olamiz. Diniy qissalarda ko’proq dinga oid bilimlar, din tarixiga oid voqealar qalamga olinadi. Mazkur qissalarga ko’ra ularni diniy–ma’rifiy (islom dini qonun–qoidalari bilan bog’liq qissalar) va diniy–tarixiy (din tarixiga oid) deb tasniflash mumkin. Bulardan tashqari siyosiy mavzularda yaratilgan qissalar ham qissalar mavzuiy tasnifini bildiradi.

A.Xolmurodov “O’zbek qissachiligi: taraqqiyot muammolari” nomli fan fanlogiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasida qissalarning mumtoz va realistik yo’nalishdagi qissalarga ajratadi. O’z navbatida: “XX asr boshida realistik belgilari ko’rina boshlagan estetik hodisa sifatida yuzaga kelgan qissachilik mumtoz qissalar bilan qiyoslanganda quyidagi o’ziga xosliklarga ega edi”, deb yozadi. Uningcha, realistik belgilarga ko’ra qissalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

¹Энобар Тулаганова. Иил киссаларига бир назар. <http://ijod.uz/?p=9026>

- realistik qissalar sujeti mumtoz qissalarning sayyor sujetlaridan farq qiladi. Uning har biri betakror va hayotiy voqealardan tashkil topgan;
- realistik qissa qahramonlari aksar asar mualliflari bilan zamondosh bo'lib, unday qissalarda badiiy to'qima, tipiklashtirish elementlari ustunlik qiladi. Bu esa eski tipdagi qissalarda naturalizm emas, realizmning o'rin egallashiga zamin yaratiladi. Mumtoz qissalarda an'anaviy qahramonlar asosan romantik idcal nuqtayi nazaridan tasvirlangan. Zamonaviy qissalarning qahramonlari esa tevarak-atrofidagi real hayotdan olingan oddiy odamlardir;
- mumtoz qissalarda fantaziya, mubolag'aviy tasvir yetakchilik qilsa, XX asrda yaratilgan qissalarda hayotga yaqinlik, ijtimoiy-psixologik tasvir usullariga murojaat etish paydo bo'la boshladi.
- mumtoz qissalarda makon va zamon ham an'anaviy epik makon va zamondan uzilgan emas, ularda aniq tarixiylik o'lchamlari yetishmaydi, anizotarixiylik (o'ta keng va umumiy tarixiylik) miqyoslari ustunligicha qoladi. Realistik unsurlar jamlangan qissalar xronotopi esa real makon va zamon o'lchamlari asosida ish ko'radi;
- mumtoz qissalarda an'anaviy mavzu (ishqiy sarguzashtlar, nohaqlikka qarshi kurash, saroy fitnalari, adolatning tantana qilishi kabi), zamonaviy qissalarda esa real voqelik va inson qismati, ma'rifat bilan jaholat, sevgi, vafoda bevafoqlik kabi hayotiy mavzular yetakchilik qilgani holda, asta-sekin ular o'zini ma'rifatga chorlash g'oyalari egallay boshlaydi;
- realistik qissalar tili adib uslubiga bog'liq bo'lsa, mumtoz qissalarda mazaga solingan barqaror formulaviylik yetakchilik qiladi. Bu qissanavis hamda qisaxonlar tomonidan an'anaviy sujetlarni tez va oson o'zlashtirishga imkoniyat yaratiladi. Realistik qissalarda tasvirlangan real voqelik an'anaviy barqaror formulalar qabuliga sig'maydi. Ularda qahramon, uning xatti-harakati, ruhiyati, har bir voqea hamda vaziyat xuddi hayotdagidek betakror tasvirni yoki hech bo'lmaganda, hayotga yaqinlikni talab qiladi¹.

Yuqoridagi “realistik qissalar sujeti mumtoz qissalarning sayyor sujetlaridan biri” sifatida qabul qilinadi. Ularning har biri betakror va hayotiy voqealardan tashkil topgan” degan fikrga shuni ham qo‘shimcha qilish mumkinki, sayyor sujetlar zaminida yaratilgan qissalar ham muallifning ma’lum bir sayyor sujetga yondashishi, maqsad muddaosi, poetik mahorati kabilar bilan betakrordir.

Bir turdagi asarlarning o‘zaro bir-biridan badiiy barkamolligi, o‘ziga xosligini belgilovchi xususiyatlaridin yana biri uning kompozitsiyasi, tuzilishi, voqealar ketma-ketligidir. Ma’lumki, kompozitsiya – tanlangan hayotiy materiallarni sistemalashtirishga yo’naltirilgan, badiiy asarning ta’sirchanligini, emosionalligini kuchaytiradigan, hayotdagi tasodifiy, o‘tkinchi hodisalarni emas, yozuvchi nuqtayi nazaridan eng muhim, eng xarakterli hodisalarni tanlab olishga asoslanib beradigan badiiy vositalardan biridir. Badiiy asarning kompozitsiyasi umumiy qonuniyatlar asosida yaratilsa-da, har qaysi janrning o‘ziga xosligidan kelib chiquvchi alohida talablar va prinsiplar ham bo‘ladi. Chunonchi, romanda ham, qissa va hikoyada ham kompozitsiya voqealarni, sujetni asarning asosiy g‘oyasidan iborat markaz atrofiga ixcham va muvofiq uyushtirish mezonini asosida qurilishi kerak. Bu – umumiy qonuniyat. Biroq, qissada tasvir imkoniyati uning hajmi tufayli romanga nisbatan cheklangan, hikoyaga nisbatan kengroq bo‘ladi. Bu o‘ziga xoslik qissa kompozitsiyasining ortiqcha tafsilotlardan xoli bo‘lishini, ayni hayotda, siqilib qolmasligini taqozo qiladi. “Asarning kompozitsiyasi, dastavval muallifning tasvir etilayotgan hayotiy materialga munosabati bilan tayin etiladi, shu kompozitsiya birinchi navbatda g‘oyaviy–estetik kategoriya(tushuncha)dir. Yozuvchi nuqtayi nazari kompozitsiyaning hal etuvchi elementidir... Hayotda ko‘rgan qanday kishilarni va nima sababdan tasvir markaziga qo‘yishni yozuvchining hayotga qarashi, uning g‘oyaviy–estetik nuqtayi nazari hal etadi”¹. Keyingi yillarda yaratilgan o‘zbek qissalarida o‘ziga xos muvaffaqiyatli ijodiy namunalari ko‘zga tashlanadi. M.M.Do‘stning “Galatepaga qaytish yoxud sodatmand G‘aybarov rivoyati” qissasi kompozitsion qurilishi va real voqelik

munosabati nuqtayi nazaridan ana shunday qissalar sirasiga kiradi. Murod Muhammad Do'st 80-yillarning boshlarida o'zbek qissachiligiga yangi obrazlar qo'shib kirdi. Ular ichida G'aybarov obrazi o'zining mukammalligi bilan ajralib turadi. Yozuvchini otalar va bolalar qarashining o'ziga xosligi, ular o'rtasidagi munosabat, zamondoshlarimizning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, davr evrilishlariga bugungi ziyolining munosabati, umuman, bugungi ziyolining ma'naviy qiyofasi muammosi qiziqtiradi va u o'z asari markaziga olim obrazini olib chiqdi. Muallif asar kompozitsiyasini retrospektiv shaklda qurar ekan, bu bilan bir qishloq va u erdagi butun jamiyatning muayyan manzarasini tiklashga erishdi. Bosh qahramon xalqati uning xotirasida shunga mos hodisalarni yuzaga keltiradi. Voqelikni chuqur tahlil qilish esa yozuvchiga voqea va qahramonlarni turli rakursdan ko'rsatish imkonini bergan.

Kompozitsiya ham shakl, ham mazmunga tegishli hodisa bo'lib, u bu ikki hodisaning uzviy birligi sifatida maydonga keladi. Kompozitsiya, barcha adabiy-ijodiy asarlarda bo'lgani kabi, qissa janrida ham alohida o'rin egallaydi. Izchil kompozitsiya qissaning muvaffaqiyatli chiqishi uchun zamin hozirlaydi. Kompozitsiya asarning markaziy o'qi vazifasini o'taydi. Sujet, ekspozitsiya, tugun, pechim ana shu markaziy o'q atrofida izchillik bilan joylashadi. Natijada asarning kompozitsion yaxlitligi vujudga keladi.

Mumtoz qissachiligimizga xos asar kompozitsiyasi – tuzilishi ham muhimdir. Ularda odatda “Bismillo”dan keyin an'anaviy tarzda hamd, na't va asarning yozilish sababi bayoni kabi qismlar keladi. Undan keyin qissaning o'zi boshlanib, xotima bilan yakun topadi. Xotimada asarning qachon yakunlangani bilan bog'liq tasfiolatlarga o'rin ajratiladi. Bunday qissalar ko'proq boblarga ajratilmagan holda bo'lsa, ba'zida boblarga ham ajratilgan holda yaxlit kompozitsiyani tashkil qiladi.

Xalq qissalari “Roviylar andoq rivoyat qilurlarki” kabi kirish so'zlari bilan boshlanadi. Shuningdek, mumtoz qissalar va xalq qissalarida har bir voqea yoki bob yakunidan keyin nazmiy shakldagi qissadan hissalar berilib boriladi.

Ushbu fasl yuzasidan quydagi xulosalarga kelindi:

1. O'zbek qissalarini tarixiy taraqqiyot belgilariga ko'ra mumtoz va realistik qissalar turkumiga bo'lish mumkin. Realistik qissalar sujeti mumtoz qissalarning sujetlaridan farq qiladi. Ularning har biri betakror va hayotiy voqealardan tashkil topgan. Mumtoz qissalarda reallikdan ko'ra to'qimalik, badiiy bo'yoqlarga boylik bilan ham realistik qissalardan farqlanadi. Bular bilan birga mumtoz qissalarda qayvor sujetlar asosidagi yaratilgan qissalar turkumi ham mavjud.

2. Realistik qissalar tabiatiga ko'ra avtobiografik, tarixiy, fantastik, memuar yoki shajera, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-maishiy, sarguzasht, sayohatnoma, detektiv, muvekkachilar hayotiga oid turlardan tashkil topadi. Shuningdek, mumtoz qissalar tabiatiga ko'ra, diniy-tarixiy va diniy-ma'rifiy, ishqiy qissalardan iborat.

3. Qissalar bayon uslubiga ko'ra, an'anaviy va noan'anaviy uslublarga bo'linadi. An'anaviy uslubdagi qissalarga bir-biriga yaqin qissalarni kiritsak, noan'anaviy uslubdagi qissalar qatoriga bir nechta uslublarning qorishig'idan tashkil topgan qissalarni kiritish mumkin.

4. Qissada tasvir imkoniyati uning hajmi tufayli romanga nisbatan cheklangan, hikoyaga nisbatan kengroq bo'ladi. Bu o'ziga xoslik qissa kompozitsiyasining aniqqacha tafsilotlardan xoli bo'lishini, ayni paytda, siqilib qolmasligini taqozo qiladi.

1.3. O'TKIR HOSHIMOV IJODIDA QISSALARINING O'RNI

Adabiyotimizning ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri O'zbekiston xalq shoiri, yozuvchisi, Respublika Davlat mukofotining sohibi "O'tkir Hoshimov 1941 yil 5 avgustda Toshkent viloyatining Zangiota tumini Do'mbirobovdan mavzeyida tug'ildi. Uning bobolari ziyoli, o'z davrining mashhur kishilari bo'lgan. Jumladan, XIX asrda yashab o'tgan ulkan ulamo arab, fors, rus tillarini bilgan, rus chorizmi haqqini paytida Toshkent mudofaasi tashkilotchilaridan biri bo'lgan, "vabo bo'zg'aloni"da mahalliy xalqni himoya qilib chiqqan, xalq omonligiga jonini fido qilgan ulug' zot — Abulqosim eshon O'tkirming bobokaloni sanaladi, aniqrog'i O'tkir — bu tabarruk zotning evarasidir. O'sha ulug' zot qurdirgan, uning nomi

atoluvchi madrasa bugun ham yangi Toshkent jamoliga ko'rk bag'ishlab qoladi".

"O'tkirning mehnat faoliyati juda erta boshlandi. Bilimga chanqoq bo'lajak yozuvchi o'rta maktabni medal bilan bitirgan, oliy o'quv yurti talabasi bo'lishni istagligiga tugib qo'ygan bo'lsa ham, oilaga moddiy yordam berish maqsadida o'qishga majbur bo'ldi", – deb yozadi taniqli adabiyotshunos U.Normatov. Yana olim O'.Hoshimovning "Temuryo'lchi" gazetasida xat tashuvchi, so'ng tarjimon. "Qizil O'zbekiston"da musahhih yordamchisi, "Toshkent haqiqati"da adabiyot bo'lim bo'lib ishladi. Ayni paytda Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) jurnalistika fakultetida avval sirdan, so'ng kunduzgi bo'limda tahsil oldi. 1966–1982– yillarda "Toshkent oqshomi"da bo'lim mudiri. 1982–1985– yillarda G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at akademiyotida bosh muharrir o'rinbosari, 1985–1995 yillarda "Sharq yulduzi"ning bosh muharriri, 1995–2005–yillarda esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining matbuot va axborot qo'mitasi rasisi bo'lib ishlaganligini qayd qiladi².

Olim so'zini davom ettirib, yozishicha, O'tkir Hoshimov ijodini jurnalistikadan boshlagan. 1962 yili "Po'lat chavandoz" nomli ocherklari bosilib chiqqan. Badiiy ijodga erta mayl ko'rsatib, 5–sinfda o'qib yurgan kezlari dayoq ocherklar, hikoyalar mashq qila boshlagan bo'lsa-da, "To'rt maktub" nomli hikoyasi 1963 yili matbuotda bosilib chiqqan. Shu hikoya asosda keyinchalik "Cho'l qal'asi" qissasi yuzagan kelgan. Shundan keyin birin–ketin "Odamlar nima derkin", "Shamol esaveradi" qissalari yaratilgan. Xususan, "Bahor qaytmaydi", "Qalbingga quloq sol" qissalari adabiy tanqidchilikda katta bahs–munozaralarga olib bo'ldi. Bu qissalari uchun yozuvchi 1976 yilda Yoshlar mukofotini olgan³.

"O'tkir Hoshimov ijodi ancha avval boshlangan bo'lsa ham, "Po'lat chavandoz" deb atalgan birinchi kitobchasi 1962 yili chiqqan. Shu yillar o'rtalarida uning yetmishga yaqin kitobi nashr qilindi. Shu kitoblar yoniga

²Manba: O'tkir Hoshimov. Daftari xosiyasidagi bitiklar. –T.: Sharq HAMK, 2001. –B. 123.

³U. Normatov aдиб. / U. Normatov. Nasrdaги shoir ёхуд рухият манзиллари. –T.: Mumtoz суз, 2001. –B. 57–58.

⁴Manba shu muallif. Usha manba. –B. 58.

O'tkirming to'rtta dramasi qo'shsak, o'nlab asarlarni tarjima qilganini aytsek, o'nlab publiksistik asarlar yaratganini eslasak, uning ijodiy faoliyati nechog'lik namoyandador va salmoqli ekanligiga amin bo'lamiz. Ha, ellik yil mobaynidagi o'zbek adabiyotini O'tkirming ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Adib ijodi yuksak taqdirlandi. "Bahor qaytmaydi", "Qalbingga quloq sol" qissalari uchun Respublika mukofotiga, "Dunyoning ishlari" kitobi uchun Oybek nomidagi adabiy mukofotga, "Ikki eshik orasi" romani uchun Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. O'tkir Hoshimov O'zbekiston xalq yozuvchisi degan yuksak unvon, "Mehnat shuhrati", "Buyuk xizmatlari uchun" ordenlari bilan taqdirlangan¹.

Dramaturg olim H.Abdusamatovning e'tiroficha: "O'tkir Hoshimov nasri haqida ko'p yozilgan, ilmiy ishlar qilingan bo'lsa-da, uning dramatik asarlari taqdisida ayrim taqrizlardan boshqa chuqurroq tahliliy ishlar, menimcha, shu paytgacha yozilmagan. Shularni nazarga olib, O'tkir Hoshimovning dramatik asarlari haqida so'z aytish lozim deb bildim. "Xazon bo'lgan bahor" ("Bahor qaytmaydi"), "Inson sadoqati", "To'ylar muborak", "Sizdan ugina", "Qatag'on" kitobi asarlari sahnalashtirilgan. Bu asarlarning janri har xil. Biroq ularning hammasida tirik inson tasviri bor.

O'tkir Hoshimov o'zining dramaturglikka da'vosi yo'qligini bir necha marta aytgan. "Men dramaturg emas, prozaikman", – deb ta'kidlaydi².

Yosh yozuvchining qalami charxlanishi, yozuvchi-qissanavis bo'lib shakllanishida uning "Toshkent oqshomi" gazetasidagi faoliyatining ahamiyati katta bo'lgan. Xuddi shu ma'noda U.Normatov: "O'tkir Hoshimov badiiy adabiyotga jurnalistika chorrahalari orqali kirib keldi. Uning 1977–yilda yozilgan ilk romani – "Nur borki, soya bor..." jurnalistik faoliyatining, tajribalarining o'ziga xos yakuni, badiiy sarhisobidir", – deydi³.

Yozuvchining yaqin hamkorlaridan biri K.Normatovning xotirlashicha, O'tkir Hoshimov "Toshkent oqshomi" gazetasida ishlab o'zining tezkor xodim, har

¹ Э. Севган адиб. / О.Шарафиддинов. Э. ардоктаган адиб. –Т.: Мумтоз сўз. 2011.–Б. 19–20.

² Э. Севган адиб. / Х.Абдусаматов. Адиб драматургияси. –Т.: Мумтоз сўз, 2011. –Б. 88.

³ Э. Севган адиб. / У.Норматов. Насрдаги шоир ёхуд рухият манзиллари. –Т.: Мумтоз сўз, 2011. –Б. 63.

voqelikka hozirjavoblik bilan munosabat bildira oladigan jurnalist sifatida o'rniga ega bo'lgan. Ayni shu muhitda unga shuhrat keltirgan "Bahor qaytmaydi", "Qalbingga quloq sol" nomli qissalari bunyodga kelgan¹.

"Chol havosi" qissasi O'zbekning birinchi katta nasriy asari edi, deb yosh adib bilan birga "Toshkent oqshomi" gazetasida ishlagan Alinazar Egamnazarov².

A. Egamnazarov ta'kidlaganidek, birinchi katta nasriy asari dunyo yuzini barcha qadar adib ocherk sohasida mahoratini oshirib bordi. Ocherk janri epik janrlar qatorida sanalib, sof badiiy proza namunasi bo'lmay, badiiy-publitsistik janr, qissa esa o'rta epik shakl sanaladi³. Ta'rifdan ma'lum bo'ladik, ocherk va qissa hajman bir-biriga yaqin, ammo mohiyatan biri boshqasidan farq qiladi. Yosh adibning qissanavislik sohasida kuchga to'lishida ocherk sohasidagi faoliyatining o'rni bo'lgan. Uning ijodiy faoliyatiga nazar tashlaganda, oldin badiiy-publitsistik janrlarda chiqishlar qilib borganligi, ana shu janrlar keyinchalik qissa janridagi asarlarining muvaffaqiyatini ta'minlaganligi ko'rinib chiqadi.

"Bahor qaytmaydi" qissasi nashr yuzini ko'rgandan keyin uni televizion ekrani keltirish fikri tug'ilgan va bu asosida telefilm suratga olingani barchaga ma'lum. Keyinchalik "Dunyoning ishlari" qissasining nashri ham unga katta shuhrat keltirgan. Ushbu qissa asosida ham televizion film yaratildi. Ikki qissa asosida telefilm yaratgan ijodkor Mirabbos Mirzaahmedovning fikricha, "Dunyoning ishlari" telefilmi nihoyasida asarning kitob do'konida namoyishi bilan film nihoyasiga yetishi kerak bo'lgan. Lekin Toshkent kitob do'konlaridan kitobning birorta donasi ham topilmagan. Natijada, adibning uyda saqlanib qolgan nusxalar namoyish qilingan⁴.

¹ Yozgan adib. / K. Normatov. Alanga bilan bo'slangan ijod. - T.: Mumtoz s'z, 2011. - B. 162.

² Yozgan adib. / A. Egamnazarov. "Chol havosidan sun'g. - T.: Mumtoz s'z, 2011. - B. 216.

³ Egamnazarov D. Adabietshunoslikka kirish. - T.: Abdulla Qodiriy nomidaги xalq merosi markazi. 2004. - B. 180.

⁴ Yozgan adib. / M. Mirzaahmedov. Televizion seriallar shunday yaratilgan edi. - T.: Mumtoz s'z, 2011. - B. 168-174.

“O‘zbeklar”, “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyalari, yirik polotnodan o‘tgan “Ikki eshik orasi” romani milliy xarakterini yaratishdagi lirik ifoda ham uyg‘unligining yetakchi uslubiy yo‘nalish tariqasida shakllangan.

Uning ortiq o‘zining ajoyib publitsistik maqolalari, hikoya, qissa va roman bilan adabiyotimiz taraqqiyotiga munosib ulush qo‘shgan adibdir.

Yozuvchining hayotni badiiy idrok etishi uning g‘oyani ifodalash usuli bilan belgilanadi. Bu o‘rinda Abdulla Qahhorning ushbu so‘zlari bilan: “Mahorat har bir so‘z ustida uzoq ter to‘kib ishlashda emas, aynan har bir so‘zni topa bilishdadir”¹.

Bir so‘z bilan aytganda, O‘tkir Hoshimov o‘z faoliyatini qalamkashlikning eng pillapoyalaridan boshlab, dunyoga taniqli yozuvchi darajasiga ko‘tarilgan. Uning ijodi yuqori pog‘onaga ko‘tarilishida qayd qilib o‘tilganidek, ocherklari, qissalarining alohida o‘rni bo‘lgan. Uning ilk qissalaridan boshlangan tajribalari talqinida yirik nasriy asarlari–romanlarining yuzaga kelishida laboratoriya xarakterini o‘tagan. Zero, unga birinchi mashhurlikni keltirgan “Cho‘l havosi” qissasigacha qissa yozish yo‘lida “To‘rt maktub” hikoyasi oralig‘ida o‘z orzu shakllari, ideallarini aynan qissa janri orqali namoyish qila olishini ko‘rsatib berdi.

1963 yili “To‘rt maktub” nomi bilan chop etilgan, shu yili “Sharq Yulduzi” jurnalida O‘tkir Hoshimovning “Cho‘l havosi” jajjigina qissasi bosildi–yu, muallif kitobxonlar orasida mashhur bo‘lib ketdi. Qissa tanqidchilik o‘rtasida ham mashhur bo‘lib ketdi. Abdulla Qahhor yosh muallifga shunday maktub yo‘lladi.

“O‘tkir!

“Cho‘l havosi” ni o‘qib suyunib ketdim. Birdan lov etgan alanga bilan boshlangan ijodning kelajagi porloq bo‘ladi, qissa juda sof, samimiy iliq, tabiiy, xat bilan o‘qiladi.

Qissaning xat shaklida bo‘lishi ko‘p joylarida ritmi buzadi, so‘zni cheklab qo‘yadi. Hikoya birinchi shaxs tilidan olib borilsa, ham shunday bo‘lar edi. Buni o‘ylang, hisobga oling.

Shu alanga hech qachon pasaymasin, ijodingiz hech qachon to‘xtamasin!

¹ A.Qahhor, Талант на маҳорат хакида. –Т.. 1967. 33–бет.

Hurmat bilan Abdulla Qahhor”.

Abdulla Qahhor bu qissasiga yozgan oq yo'lida u “Birdan lov etib alanga bilan boshlangan ijodning kelajagi porloq bo'ladi”, – deb bashorat qilgan edi.

Bu xat adibning ijodiy taqdirida muhim burilish yasadi. “Qissaga atoqli adib Abdulla Qahhor nihoyatda xayrixohlik bilan xat yozganidan keyingina o'zimga ishonch paydo bo'ldi. Mendan yozuvchi chiqishi mumkin ekan degan hayolga bordim”¹, –deb e'tirof etadi u.

Ushbu asar yoshlar hayotiga bag'ishlangan bo'lib, unda ilk muhabbat, totli va sol onlari, dastlabki iztiroblar haqida hikoya qilinadi.

Ilk muvaffaqiyatidan ruhlanib “Odamlar nima derkin”, “Shamol asaveradi” qissalarini yozadi, biroq o'zi aytganidek, biroz “shoshilib xatolar qilgan” bu asarlarni tanqidchilik uncha xush qabul qilmaydi. Yozuvchi bundan hushkunlikka tushmaydi, balki o'z ustida qattiq ishlaydi, buning samarasi o'laroq, ketma-ket zamondosh yoshlar hayotidan olib yozilgan, “Bahor qaytmaydi” (1970), “Qalbingga quloq sol” (1973) qissalari dunyoga keladi. Shu o'rinda O'tkir Hoshimov tabiatiga xos bir jihatni alohida ta'kidlab o'tish kerak: hushkunlik, umidsizlik unga yot, o'z vaqtida ijodi tevaragida bahs-munozaralar: goh maqto'v, gohida keskin tanqidiy gaplar aytilgan bo'lsa-da, yozishga bo'lgan mehr-ishtiyoqi hech qachon pasaymagan. Odatda, tanqidga uchragan keyin sal o'tmay dunyoga kelgan asari har gal namoatchilik e'tiborini tortgan, keng kitobxonlar ommasining olqishiga sazovor bo'lgan.

Adabiyotshunos A.Rasulov adib ijodiy laboratoriyasini kuzatar ekan, shunday deydi: “Dunyoning ishlari” betakror go'zal asar. Ayni vaqtda u “Ikki eshik orasi” romanining yozilishiga tayyorgarlik bosqichi bo'ldi. “Ikki eshik orasi”da “Dunyoning ishlari”dagi deyarli barcha qahramon, personajlar bor. Lekin romanda boshqa yo'nalishda harakat qiladilar yangi g'oyaviy “yukni” nasijdilar”. Darhaqiqat, O'tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasidagi

¹sha asar. 11-b.

har bir obraz va personajlar navbatdagi badiiy mukammal, yirik polotnodagi asarlar uchun xamirturush vazifasini o'tadi. "Dunyoning ishlari" qissasidagi Habiba buvi obrazining "O'zbeklar" hikoyasi qahramoni Otinoyi obrazi uchun badiiy shtrix, badiiy asos bo'lgan. Ona obrazini mukammal darajada yaratish asardan asarga, janrdan janrga tomon o'sib bordi. Adibning ideal o'zbek onasi Hoshxo xola – Habiba buvi – Otinoyi – Qora amma timsollarida yanada badiiy asarlar qoqlar quyuqlashib bordi.

Hayotdagi illatlarga qarshi ayovsiz o't ochish istagi O'tkir Hoshimovni Hajviyotga murojaat qilishga olib keldi. Oqibatda uning "Ikki karra ikki – besh" qissasi maydonga keldi. Yozuvchining ilgari asarlarida ahyon–ahyonda hajviyot asarab turar edi. "Ikki karra ikki – besh" qissasi esa, ulardan butunicha hajviy asarlarida yozilganligi bilan farq qiladi. Hajviyot tig'ini hayotdagi martabali kishilarga, katta rahbarlarga, xususan, raislarga qaratgani va ularning ma'naviy asanligini ro'yi–rost fosh qilishga intilgani bilan yozuvchi qissaning ko'p asarlarini ta'sirchan va qiziqarli bo'lib chiqishiga erishgan. Faqat dalillash asarining yetishmaganligi va ayniqsa, raisning o'g'li o'z otasiga qarshi keskin asarashga kirishishi yaxshi asoslanmaganligi sababli qissa 80–yillar o'zbek Hajviyotidagi sezilarli hodisa darajasiga ko'tarilmay qoldi.

Akademik B.Nazarov O'tkir Hoshimov ijodi xususida mulohazalar bildirar ekan, uning asarlarining har biri o'ziga xosligi, har birining alohida o'rmi borligini asar qayd qiladi. Xususan, "O'tkir Hoshimov ijodini to'lib–to'lg'anib, shiddat va asaromat bilan oqayotgan daryoga o'xshatgim keladi...

O'tkir Hoshimov asarlarini daryoga bejiz o'xshatganim yo'q. O'qisangiz, asarlarining dilidagi daryovash sifatlarni aniq ko'rasiz, anglaysiz va his etasiz. Adibning "Nur borki, soya bor", "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar" singari romanlaridagi ayrim ruhiy talotumlar tasviri, ba'zan butun bir xalq asar qiyofasini namoyon eta oluvchi ijtimoiy dard va muammolarning talqini; "Bahor qaytmaydi", "Qalbingga quloq sol", "Dunyoning ishlari" singari qissalari qalb asar manzaralari va tabiat jilolaridan taralib turuvchi ajib musiqiylik, tilsiz armonlar asar fiodasidagi qo'rg'oshin sokinlik, "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" deb ataluvchi

...nga jo bo'lgan badiiy falsafa yog'dulari; qator publitsistik maqolalari bo'y
...uvchi – borib turgan isyonkor ruh hamda “Qatag'on” kabi dramatik asardagi
...k qafasiga sig'may, portlay deb turgan fig'on va boshqalar – barchasi,
...ib, bular O'tkir Hoshimov asarlari, jonli daryoning o'zginasi emasmi.
...tegandek bo'laveradi”, deb yozadi¹.

Shuningdek, B.Nazarov 1971 yilda bosilib chiqqan “Qalbingga quloq sol”
...dagi davr qarshiliklari bo'lishi mumkinligini bilgan holda, ongli ravishda
... qilingan ayrim o'rinlarining adib shaxsiyati, uning dunyoqarashi,
...parvarligi, xalqining taqdiriga befarq inson emasligini belgilovchi omillardan
...igini qayd qiladi. Qissada qahramonlar tilidan Amerikani Kolumb emas,
...iy kashf qilganligi borasidagi fikrlar bildirilgan. Albatta, qissa nashr qilingan
... sovetlar tuzumi tomonidan bunday fikrlar millatchilik kayfiyati sifatida
...anar edi. Munaqqidning e'tiroficha: “Shu tariqa O'tkir Hoshimov jur'atli,
...qil fikrli qahramonlar yaratishni “Qalbingga quloq sol” singari o'tgan
...ing 60–yillari oxirida yaratilgan dastlabki qissalaridayoq boshlagan edi. Ana
... qalbga quloq solish – xalq qalbiga, zamondoshlar qalbiga quloq tutish,
...ning dardini ko'tarib chiqish, mana deyarli yarim asrdan buyon yozuvchi
...dagi, o'z xalqining farzandi sifatidagi O'tkir Hoshimov ijodi va faoliyatining
...motivi bo'lib kelmoqda”².

“Sermahsul ijodkorlarga qo'yarda–qo'ymay qaysi asaringiz o'zingizga
...proq yoqadi, qabilidagi savollar berishadi. Shunga o'xshash savol bilan O'tkir
...ga ham murojaat qilishgan, yanglishmasam, u kishi hamisha barcha asarlarini
...andlari misoli birdek ko'rishini aytgan. Biznig avlod vakillari esa katta
...iyot olamiga kirib kelishda O'tkir Hoshimov ijodining dastlabki pallalarida
...zilgan asarlar ko'proq “xizmat” qilganini, yo'q ko'rsatganini gapirishadi.
...ol havosi”, “Odamlar nima derkin?”, “Bahor qaytmaydi”, “Qalbingga quloq
...ustoz adibni qalam tutishga undagan sehrli kuch odamlarning qalbiga quloq
...ish, odamlarning o'zlarini o'z qalbiga quloq tutishga da'vat etish, undash

¹ Ёвсан адиб. / Б.Назаров. Халк меҳрини қозонган адиб. –Т.: Мумтоз суз. 2011. –Б.
–110.

² Ёвсан адиб. / Б.Назаров. Халк меҳрини қозонган адиб. –Т.: Мумтоз суз. 2011. –Б.
–112.

...desak yanglishmasak kerak. O'tgan asrning 60–yillari uchun bunday ... ruhiy erkinlik adabiyotimiz uchun favqulodda voqea edi! Takror ... – milliy badiiy tafakkurdagi burilish edi!” deb yozadi filologiya fanlari ... X.Do'stmuhammedov¹.

Ushbu fasl bo'yicha quyidagicha xulosalarni bildirish mumkin:

1. O'tkir Hoshimov o'zbek adabiyotida prozaik sifatida ma'lum. U prozaning ... janrlarida ijod qilib, ellikdan ortiq asar yaratgan. Yaxlit tarzda olganda ... qissalari uning ijod mahsulining bir bo'lagi bo'lsa, alohida olganda O'tkir ... ni dunyoga tanitganligi bilan qimmatli.

2. O'tkir Hoshimovni ilk katta hajmdagi prozaik asari “Cho'l havosi” qissasi ... kitobxonlar ommasiga tanishtirgan va o'z davri adabiyotshunos ... eng ko'p diqqatini tortgan asaridir.

3. O'tkir Hoshimovning “Cho'l havosi”, “Bahor qaytmaydi”, “Qalbingga ... kabi qissalari keyinchalik katta prozaik asarlari – romanlarining ... kelishida zamin vazifasini o'tagan. Adibning qissalari yirik hajmdagi ... asarlarini yaratilishida ijodiy laboratoriya bo'lib xizmat qilgan.

4. O'tkir Hoshimovning ilk qissalari o'tgan asrning 60–yillarida siyosiy ... qaramay adabiyotimizga yangicha ruh, yangicha badiiy tafakkur tarzini ... va adabiyotimizda burilish yasagan asarlar sifatida e'tiborli. Qissalari ... ning avvalida dunyo yuzini ko'rganligi bois, ularda dadil aytilgan ... asosida aynan o'sha vaqtda uni millati, xalqi va vatanini sevuvchi, ... ro'y berayotgan voqealarga munosabatini bildira oluvchi dadil ijodkor ... shaxsiyatini anglashda muhim ahamiyat kasb etgan.

¹ ... aдиб. / X.Дўстмухаммедов. Машҳурликининг бир сири. –Т.: Мумтоз сўз. 2011.

II BOB. DAVR VOQELIGINI TAVSIRLASHDA RUHIYAT MASALASI

2.1. O'tkir Hoshimov qissalaridagi ona obrazi kechinmalarida davr voqeligiga munosabatning ifodasi

Aslida har qanday badiiy asardagi obraz o'z-o'zidan olib kirilmaydi. Badiiy asar uchun lirik asar bo'lsin, xoh u epik asar bo'lsin, unda ishtirok etgan obraz muallifning badiiy mayllari, adabiy-estetik qarashlarining ifodachisi sifatida asariga keladi. O'tkir Hoshimov qissalaridagi obrazlar tizimini ham ana shu adabiy mezonlar asosida yaratilgan deyish mumkin.

Asl qissalarida turli soha, turli toifa, turli yosh va hokazo belgilarga ega obrazlar uchraydi. Ularning har biri voqelikka, bo'lib o'tayotgan voqealarga muallifning munosabatini asarning turli rakurslaridan turib ko'rsatib berilgan omillardir.

Muallif o'z asariga zikr qilingan kabi obrazlarni olib kelish bilan bayon qilgan voqelikka nisbatan jamiyatning barcha qatlamlari o'z qarashi va fikrlari borligini namoyon qilishga intilgan. Xususan, uning qissalaridagi ona obrazi ham ma'lum maqsad va muaddaoni o'quvchi shuuriga yetkazadi, ma'lum voqelikda yashayotgan onalarning o'sha voqelik ta'sirida kechirayotgan o'yinlarini, ruhiyatidagi o'zgarishlarni ko'z oldimizda gavdalantiradi.

O'tkir Hoshimov qissalarida asardagi voqealar tasviridan ko'zlangan obrazga ko'ra ma'lum bir funksiyani bajarib, keyinchalik ko'zga tashlanmaydigan epizodik ona obrazi bilan birga, ona obrazi bosh qahramon obrazida bo'lib, qolgan obrazlar ana shu obrazga yuklangan g'oya, muallif fikrini bo'lgan fikrlarning oydinlashtirishga xizmat qilgan holatlar ham bor. Shu munosabatda, qissalardagi ona obrazining voqelikka munosabatini bildirish, obrazda ro'y berayotgan talotumlar hamda qarama-qarshiliklarni ko'rsatish ham o'sha obrazning so'z ifodasi, ichki kechinmalari, yuz ifodasi, harakatlari ham kabi atributlarga e'tibor qaratilgan. Ayni cho'g'da ana shu atributlarning o'zaro va tafsilotlarining qay darajada bo'lishini ham nazardan qochirmaslikka

harakat qilgan. Jumladan, adibning “Bahor qaytmaydi” qissasidagi Muqaddamning onasi – Anzirat xola obrazini epizodik obrazlar sirasiga kiritish mumkin. Asar boshidan–oxir Alimardon va Muqaddamning qalb kechinmalarini ifodalashga qaratilgan. Anzirat xola – ona obrazi qissaning ikki–uch o‘rnida ko‘rinadi. Birinchi ko‘rinishida Muqaddam Alimardonnikida bo‘lib o‘tgan voqeadan keyin o‘zini qo‘yarga joy topa olmay kelayotganda onasiga duch keladi. Muqaddamning onasi o‘zining kasalmand holatda bo‘lishiga qaramay, qizining kayfiyatiga qanchalik ahamiyat berganligi, uning ziyrakligi, qalb iztiroblaridan bir lahzatik tasvirda bizni xabardor qiladi:

–Yig‘ladingmi?–Onasi laganni quchoqlagancha uning oldiga keldi.–Nima bo‘ldi?¹

Biz onaning ana shu bir og‘iz so‘zidan qizi qandaydir falokatni, yoqimsiz holatni boshidan kechirganligini, sezganligini bila olamiz. O‘sha o‘rinda adibning ehtiqlik tafsilotlarga berilishiga hojat qolmagan.

Asarning Muqaddam Alimardon o‘ziga xiyonat qilib kelgandan so‘ng ota uyiga qaytib kelgan o‘rinda onasi oldingi epizoddan ko‘ra biroz ko‘proq namoyon bo‘ladi. Bu ko‘rinishlarda ham deyarli onaning so‘zlari berilmagan. Shunday bo‘lsa ham ana shu tasvirlar zahirida muallif onaning qizi qaytib kelganligi bilan bog‘liq ichki kechinmalari bilan tafsilotlar zahirida uning bo‘lib o‘tayotgan ishlarga–voqelikka munosabatini ifodalay olgan. Faqatgina: “–Ungayam boqqan talo bordir, yigitgina o‘lgur” degan so‘zlarini keltiradi va “Anzirat xola bolaning qo‘l taglik ko‘rpachasini almashtirdi–yu, Muqaddamga zarda bilan qarab qo‘ydi” deydi². Shuningdek, adib onaning voqelikka munosabatini bildirish uchun obrazlar tasviri, uning yuz–ko‘zlari, chehrasidagi o‘zgarishlarni ko‘rsatishga ham e‘tibor qaratgan. Yuqorida keltirilgan parchadan quyida: “Muqaddam onasining toliqqan chehrasiga, kasalmand miqlari shishib ketgan ko‘zlariga, oppoq sochlariga qarab turib, rahmi keldi. Shuncha yillar azob chekib, o‘zini katta qilgani yetmasmidi?

¹ Ўткир Ҳошимов. Севги киссалари / Баҳор қайтмайди. –Т.: Ўзбекистон, 2013. –Б. 155.

² Кўрсатилган асар. –Б. 224.

Keksayganda, endi rohat ko'raman deganda, ko'rgani shu bo'ldimi!"¹ kabi misolotlar mavjud. Ketma-ket ham personaj nutqi, ham uning portreti tasvirlanib, berilishi ona obrazining iztirobli kechinmalarini yorqinroq tasavvur qilishga yordam bergan.

Ayni chog'da asarning bosh qahramoni Muqaddamning o'zi ham ona. Uni otasi uyidan chiqarib yuborganda otasining aytganini qilib Alimardonning oldiga borishi kerakmi yoki boshqa yo'lni tanlash kerakmi degan savol ko'ndalang bo'ladi. Ana shunday murakkab vaziyatda u ortga qaytmaslikka qaror qiladi. O'g'lining kelajagini o'ylab, uning halol oilada tarbiya topishini istashi bilan bog'liq kechinmalari asarning Muqaddam Alimardonni xiyonat ustida tutib olingandan keyingi o'rinlarda qizil chiziq kabi o'tib turadi. Muqaddam barcha gap-so'zlarga qaramay qishloqning oddiy yigiti bo'lgan Kabirga turmushga chiqadi. Bundan keyingi voqealarning rivoji—Alimardonning o'g'lini ko'rish istagida Kabirnikiga borishi ham, uning jarlikka qulab ketishi ham Muqaddam—onaning ruhiy kechinmalari, nolalarining ifodasi, aks sadosi sifatida o'quvchi shuuriga yetib boradi.

Qissada, shuningdek, Anvarning ham onasi borligi aytilgan. Lekin onasining oti ham, bir og'iz so'zi ham keltirilmagan. Shunday bo'lsa ham Anvarning onasi ham boshqa onalar kabi o'z farzandi uchun kuyunchak ekanligi, uning baxtini istashi quyidagi qisqa tavsirda aks etgan: "U E'tibordan—onasi ko'p eslaydigan qizdan Muqaddamda yo'q bir fazilatni topadi"². Ayni holatdagi tasvirlar ham bizda Anvarning onasi ruhiyatidagi kechinmalar, o'g'liga nisbatan munosabatini ifodalash uchun yetarli bo'lgan. Shu sababli ona va o'g'il o'rtasida bo'lib o'tgan suhbatlar tafsiloti uchun ko'p o'rin ajratilmagan.

Ona obrazi bilan bog'liq bunday tasvirlar "Cho'l havosi"ning ikki o'rnida uchraydi. Birinchisida Ziyodaning onasi tasvirlansa, ikkinchisida Botimning onasi xususidagi so'zi bitilgan. Ikkala holatda ham onalarning oti eslanmaydi. Shuningdek, ikki holatda ham onalarning o'zi voqelikning bevosita ishtirokchisiga

¹ Kursatilgan asar, kursatilgan bet.

² Kursatilgan asar. —B. 189.

qatlanmaydi. Shunday bo'lsa-da, ular xususida berilgan ma'lumot ularning ruhiyatida kechgan tuyg'ular yuzasidan tasavvur hosil qila oladi. Xususan, birinchisida Ziyoda onasining qizini tug'ilgan kunga jo'natish uchun zo'rg'a javob berganligi aytadi. Bu bilan muallif Ziyodaning onasi o'z farzandi uchun qanchalar kuyinchak ekanligi, undan xavotirlanishini ko'rsatib o'tgan¹. Ikkinchi o'rinda Botir otasidan uning onasi haqida, uning qanday shaxs bo'lganligi xususida bildirilgan. Botir otasi urushga ketganda onasi boshqa kishiga turmushga chiqib ketganligini aytadi. Ana shu so'zlar zahirida Botirning onasi na erini, na o'g'lini o'ylamaydigan xudbin ayol ekanligi bilinadi². Ikkala qisqa tasvir o'ziga xos funksiyani bajargan: Birinchisidan Ziyodaning qanday muhitda ulg'ayayotganligi bilsak, ikkinchisidan Botirning boshidan kechirgan og'ir bolalik damlarini tasavvur qila olamiz.

O'tkir Hoshimov qissalaridagi ona obrazi kechinmalarida davr voqeligini ifodalashda o'sha obrazga ism tanlashga ham ahamiyat berilgan. Yuqorida tahlilga o'tirilgan qissalardagi ona obrazining kechinmalarini ochib berishda bu kabi jihatlar ko'zga tashlanmaydi. Adibning "Qalbingga quloq sol" qissasida asarning ana shu tomonlariga ham ahamiyat berilgan. Shuningdek, o'sha ayol-onaning xarakteri, ruhiyatining shakllanishiga omil bo'lgan taraflar ham o'rni bilan izohlangan. Jumladan, qissadagi ona obraziga Vasila Nazarovna deb nom berilgan. Bundan oldingi qissalardagi onalarning ismi ba'zida oddiy qilib ko'rsatilsa, ba'zilar hatto ko'rsatilmagan ham. Vasila Nazarovna sho'rolar davrining faol komsomol yoshlaridan biri bo'lgan. Oddiy Vasiladan Vasila Nazarovna darajasiga ko'tarilgan. Sho'rolar davrining siyosiy tashkilotlarida ishlaganligi uchun o'zini shunday deb chaqirishlari yoqadi. Xarakteridagi ana shu jihatlar har tomonlama bilinib turishi uchun muallif qissaning boshidan oxirigacha uni Vasila Nazarovna deb atalgan. Uning xarakteri o'z davrining talablari ta'sirida shakllangan. O'z davrining "madaniyatli" ayollariga xos odatlarni ham o'zlashtirib, sigareta chekadi.

¹ Уткир Ҳошимов, Севги қиссалари / Чўл хавоси. –Т.: Ўзбекистон, 2013. –Б. 284.
² Қўрсатилган асар. –Б. 291.

U har bir narsaga siyosiy nuqtayi nazardan baho berishga o'rgangan. Har bir inson o'ziga xos dunyo ekanligi, bu dunyoning nozik qirralariga ahamiyat berish kerakligini hech qachon o'ylab o'tirmaydi. Vasila Nazarovananing dunyoqarashicha inson qat'iy temir qoidaga amal qilishi, undan chiqib ketmasligi kerak. Komsomoldan keyin maktabda ishlayotgan bo'lsa ham oldin shakllanib bo'lgan xarakteri uni tark etmagan. Uning aytgani aytgan, degani degan bo'lishi shart.

Vasila Nazarovna insonning his tuyg'ulari, sevgisi degan tushunchalarni hisand qilmaydi. Shuning uchun uni yaxshi ko'rib uylangan yigit–Charosning otasi xohish–istaklari, yalinishlarini ham inobatga olmay ajrashib ketgan. Qizining ko'nglida boshqa kishi bo'lishi mumkinligini o'ylab ham o'tirmaydi. Faqat o'zi aytgan yigitga – Dilshodga turmushga chiqishini xohlaydi. Dilshodda esa Charosning ko'nglida joy yo'q.

Adib ana shunday fe'l-atvorga ega onaning ruhiy kechinmalarini mana bunday ochib berishga harakat qilgan: “Yaxshi ko'rmasa o'zining ishi. Lekin Vasila Nazarovna odamlarga mayna bo'lishni xohlamaydi. Maktabda hamma direktordan emas, zavuchdan zir titraydi. O'qituvchilar direktordan emas, zavuchdan qo'rqamiz, deyishganini o'ziyam eshitgan. “Avval o'zingning qizingni eplab ol”, degan ta'nani eshitishga tobi yo'q. Charos hali yosh bola, hech nimani tushunmaydi. Erkak zotining hammasi bir go'r. Boshini aylantirib yurib–yurib, tashlab ketsa, dodini kimga aytadi.

Umuman, muhabbat deganing o'zi bir pullik gap”¹.

Muallif boshqa bir o'rinda Vasilaning insoniy tuyg'ulardan ajralib borayotgan xarakterining shakllanishiga omil bo'lgan voqelikning ta'sirini ham ko'rsatib o'tadi. Qissada bir talaba ovqatni sho'r qilgani uchun xotinini urganligi aytiladi. Kaltak yegan juvon erining ustidan institutga arz qilib keladi. Komsomol tashkilotining rahbari bo'lib turgan Vasila bu holatni o'rganib ham chiqmay, juvonning erini o'qishdan haydatadi: “Komsomol zo'r kuch edi o'shanda. Vasila

¹ Уткир Ҳошимов. Севги киссалари / Қалбингга қулоқ сол. –Т.: Ўзбекистон. 2013. –Б. 389.

majlis chaqirib, talabani shartta institutdan haydatib yubordi. Yigit uning oyog'iga qilgudek bo'lib uzr so'radi. Ammo Vasila kechirmadi"¹.

Vasila Nazarovnaning bunday "qat'iyat"i qissaning ikkinchi qismida ham tasvirlangan. Bu qismda u endi maktab o'qituvchisi – zavuch sifatida "qattiq qo'llik" ko'rsatadi. Tabiatidagi beayovlik, o'z fikridan boshqani hisobga olmaslik, inson tuyg'ularini bir pul deb bilish kabi sifatleri ana shu qismda yana ham ta'sirli ko'rsatilgan. U yosh maktab o'quvchisi Dildufzaning bolalarcha sof muhabbatini o'z qarashlari bilan baholaydi. Natijada, uning bunday qarashlaridan qattiq ta'sirlangan qiz o'z joniga qasd qiladi. Aslida, sof muhabbat og'ushida bo'lgan qizni tajribali ayol–ona sifatida to'g'ri yo'lga boshlashning boshqacha yo'li. Boshqacha usullarini ham qo'llash mumkin edi. Lekin Vasila Nazarovna ruhiyatiga singib ketgan "qarashlar"idan "og'ishmaydi". Bir inson hayotining fojiali yakun topishiga sababchi bo'ladi. Ushbu o'rinda u na bir ona, na bir ayol sifatida ko'z oldimizda gavdalanadi. Balki sho'rolar davrida tarbiya topgan manqurt xizmatchi qiyofasida namoyon bo'ladi. Bular orqali adib davrning insoniylik qiyofasidan sozlashgan, his–tuyg'ulardan begonalashgan onasining tipik vakili obrazini bo'y–rasti bilan ko'rsatib bera olgan.

"Sirli yulduz", "Ikki karra ikki – besh" qissalarida ham ona obrazlari uchraydi. Lekin ular asarning asosiy personajlari sifatida namoyon bo'lmaydi. Masalan, "Sirli yulduz"da Toshpo'lat va Soliyaning onasi haqida so'z yuritilgan. Ikkala onaning qishloq markazidagi kasalxonada uchrashishlari tasvirlanadi. Bu uchrashuv asnosidagi suhbatdan Toshpo'latning onasi barcha onalar kabi o'z farzandining sog'ligi deb qayg'uradigan shaxs ekanligi anglashiladi. Soliyaning onasi esa o'z kasbining ustasi bo'lgan tajribali vrach ekanligi bilinadi.

"Ikki karra ikki–besh"dagi Qo'shoqning onasi obraziga ham ana shunday poetik vazifa yuklangan. Qo'shoqning onasi uni Toshkentga o'qishga jo'natayotib, qishloq onalariga xos tarzda o'g'lining yuk xaltasini non, turshak, yong'oq kabi yeguliklar bilan to'ldiradi. O'g'lining o'qishga o'tib ketishini tilab duo qilib qoladi. Bu tasvirdan zamirida Qo'shoqning otasi rais o'g'lini shunchaki o'qishga o'tkazib

¹ Юкорида кўрсатилган китоб, кўрсатилган бет.

o'z qolmasligini qayta-qayta aytsa ham, onasi baribir onalarga xos soddalik, qat'iga nisbatan yaxshilikni nihoyatda ko'p istaganidan asl haqiqatni ko'ray olmayotganligi ko'rsatib o'tiladi. Bu orqali adib har qanday ko'ringan narsa haqiqat emasligiga ishora qiladi.

Tahlilga tortilgan qissalardan adibning qissadan qissaga ona obraziga jiddiy e'tibor berilayotganligi seziladi. Gap bu o'rinda mazkur obrazga qancha e'timol ajratilishida emas, hajmdan qat'i nazar asardan asarga ona obrazining mohiyatidagi salmog'i ortib, chuqurlashib, teranlashib borayotganida, bu obrazga adibning turli rakurslar orqali yondashayotganidadir.

O'tkir Hoshimov ijodida "Dunyoning ishlari" qissasi adibning ona obrazini yaratishdagi kulminatsion nuqtasi bo'ldi, deyish mumkin.

"O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari" qissasida o'z onasi haqidagi xotiralarini asarda alohida-alohida hayotiy lavhalar tarzida hikoya qilib berar ekan, ularning xronologik tartibini saqlamaydi. U asosan o'z ko'nglida paydo bo'lgan bolalarcha ruhiy kechinmalar, his-tuyg'ular va o'y-fikrlar bilan xotirasiga kelgan hayotiy lavhalarni uyg'un holda beraveradi. Asardagi voqealarning aksariyati jahramonning ana shunday o'y, tuyg'u va ichki kechinmalarini ifoda qilish bilan tushlanadi"¹.

"Dunyoning ishlari" falsafiy umumlashmalarga boy, oddiy inson hayotining turli muhim haqiqatlari haqida o'ylaydigan, yuksak hissiy pardalarda yozilgan lirik-psixologik qissadir. Ona obrazini chizar ekan, xalq hayotining negizi – ma'naviy – axloqiy e'tiqodlarni badiiy tahlil etishni bosh maqsad qilib qo'yadi. Muallif o'zbeklar hayotida keng tarqalgan, hozir ham tez-tez uchrab turadigan oddiy, maishiy voqealarni tasvirlab, ona obrazi orqali xalq – hayotini ochib berishni bosh maqsad qilib qo'yadi. Asardagi ayrim detallar yordamidagina onaning ayrim fazilatlarini bilib olamiz. Uning qo'llaridan sut hidi kelishi, jussasi kichikligi, bo'yi tandir tepasiga yetmasligini bilib olamiz. Uning hayoti qanday

Имомкаримова М. Ўткир Ҳошимов асарларида миллий қадриятлар талкини. Фил.ф.н. дисс. автореф.–Тошкент, 2004.–Б.14

shugʻullanganligini, nima ishlar bilan shugʻullanganligi ham hayotiy voqealar orqali ajratilganib beriladi.

Oʻtkir Hoshimov yaratgan ona nihoyatda kamsuqum, oqkoʻngil, beozor boʻlgan. Hech kimga gap qaytarmaydi, hech kim bilan, hatto haq boʻlsa ham, bahs-jahollik talashmaydi, yomonlarga ham faqat qachondir farroshlik qilgan, oliy maʼlumoti ham yoʻq, kitob oʻqish-oʻqimasligi ham nomaʼlum. Shunga qaramasdan sirdan faqat turmush ikir-chikirlari bilan yashaydigan bu oddiy qalning millatimizga xos anʼanaviy poklik, halollik, ezgulik toʻgʻrisidagi tushunchalariga asoslangan oʻz hayot falsafasi, qoidalari, mustahkam maʼnaviy tushunchalari borki, ular umuminsoniy qadriyatlarga borib tutashadi. Ona harom-harish narsalardan hazar qiladi, dardga chalinib bolasini emizolmagan qoʻshnining goʻdagiga koʻkragini tutadi, oilada boʻlib turadigan kelishmovchiliklar sabab eridan, farzandidan, kelinidan noliganlarni yupatadi. Ularni yaxshilikka undaydi: “Oyimning “sezgir koʻngli” qiziq. Hamisha yaxshilikni karomat qiladi”,—deydi hikoyachi (muallif). U bechora, himoyaga muhtojlarga nihoyatda shafqatli, echki sotgani borganda ayyor xaridor yetim bolani oʻrtaga solib, echkini shu bolaning kampir buvisiga olib bermoqchi boʻlganini aytganida, achinib, echkini arzonga sotib yuboradi; ziragi yoʻqolganida qoʻshnisidan nohaq gumon qilganini bilib qolgach, “bir begunohga tuhmat qilgandan koʻra oʻlganim yaxshimasmidi”, deya iztirob chekadi, aybini yuvish uchun oltin baldogʻini shu qoʻshnining keliniga sovgʻa qiladi; erining birinchi turmushidan boʻlgan oʻgay qizini izlab topadi, ota bilan farzandni uchrashtiradi, koʻngliga boshqacha xayol kelishini tasavvur ham qilolmaydi: “etni tirnoq bilan ajratib esimni yebmanmi”,—deydi u; nohalol yoʻl bilan kun koʻruvchilardan hazar qilsa-da, qingʻir ishi tufayli jazolanganlarning yaqinlari va farzandlari uchun eziladi

Oʻtkir Hoshimov yaratgan ona obrazining jozibasi shundaki, har qanday vaziyatda ham u oʻzligini saqlab qola biladi, hech qachon moʻtabar aqidalarga qarshi bormaydi. Undagi bu fazilatlar favqulodda dramatik

...atlar, keskin ziddiyatlar asnosida emas, g'oyat tabiiy, hayotiy hodisalar namoyon bo'ladi.

O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asari onalarga bitilgan qo'shiqdir. Chunki "Oq marmar, qora marmar" deb nomlangan so'ngi novella xarakterlidir. Muallif o'z zamondoshlariga murojaat etadi. Lekin biz onaning ana shu suqum, oddiy hayotini ma'naviyatdan xoli deb, uning o'zini zabun va ashtipar deb atay olmaymiz. Aksincha, nigohining o'tkirligi, fikrining anligi tufayli ko'z o'ngimizda Onaning hayoti betakror ulug'vorlik kasb etadi. zo'r qudratga ega bo'lgan ibratga aylanadi"¹.

Bir so'z bilan aytganda, qissadagi ona samimiyati, shaxsiyatidagi masaffolik, qalbidagi mehr-muhabbat, umrning ma'nosi yaxshilikka baxshidaligi, engulikning betakror timsolidir. Qissa katta-kichik novellalardan iborat, ularda olma-xil voqealar hikoya qilinadi, biroq asar markazida mushfiq, mehr-shafqatli ona obrazi turadi. Yozuvchining mahorati shundaki, u onani ilohiylashtirmaydi: oddiy farroshlik kasbi egasi onani kuchli dramatik hayot qo'ynida tasvirlaydi. Qissadagi Poshsha oyini Do'mbirobodda bilmagan, suhbatlashmagan tub joyli kishi topilmaydi. Poshsha oyi shohga ham, gadoga ham bir xil edi: kattayu kichik bilan aylanib-o'rgilib, girgiton bo'lib gaplashardi.

Ushbu fasl yuzasidan quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

1. O'tkir Hoshimov qissalaridagi ona obrazi, eng avvalo, adibning adabiy va estetik mayllarining ifodachisi sifatida namoyon bo'ladi. Bu obrazning ruhiy holati, ichki kechinmalari adibning davr voqeligi yuzasidan xulosalari sifatida yuzaga chiqadi.
2. Ona obrazi adibning har bir qissasida qissani yozishdan ko'zlagan maqsadiga ko'ra, epizodik yoki bosh qahramon darajasida namoyon bo'lib turadi. Ana shu nuqtayi nazardan O'tkir Hoshimov zamonaviy o'zbek qissanavisligida ona obrazining turli qirralarini ochib bera olgan.
3. "Bahor qaytmaydi", "Cho'l havosi", "Ikki karra ikki – besh" kabi qissalardagi ona obrazi o'zbek onalarining barcha davrlardagi qiyofasini ko'rsatsa, "Qalbingga

“Boq sol” qissasidagi Vasila Nazarovna shoʻrolar davrining hissiyotdan ajralashgan, shafqatsiz onalarining tipik vakili sifatida gavdalanadi.

“Dunyoning ishlari” qissasi adibning qissalari ichida ona obrazining ichki kechinmalari, orzu istaklari, armonlari, yuz koʻrinishi, boʻy–basti, mazkur xarakterlarning voqelikka munosabatini toʻlaqonli tarzda aks ettirgan asardir.

2.2. Yozuvchi qissalarida shaxs ruhiy tanazzulining voqelikka bogʻliqligi tasvirlari

Oʻtkir Hoshimov qissalarida shaxs va jamiyat, shaxs va uning jamiyat bilan bogʻliqligi, biror bir muhitning shaxs ruhiyatiga taʼsiri kabi masalalarning yoritilishiga ham eʼtibor qaratilgan. Buni biz adibning “Choʻl havosi” qissasidanoq koʻrishimiz mumkin. Qissa ikki oshiq koʻngillarning qalb kechinmalarini bayon qiladi. Jumladan, Botir Ziyodani yaxshi koʻrib qolib, uni instituti oldida kuniga ketib turadigan boʻlib qoladi. Hatto qaysi kuni necha para dars oʻtishigacha yoddan chiqadi. Albatta, Ziyodaga Hafiz ham oshiq edi. Lekin Ziyodaning koʻngli Botirga moyil. Shu sababli Hafiz Botirni oʻrtada turmasligi kerak deb hisoblaydi. Doʻstlari bilan birgalashib doʻpposlaydi. Bularga qaramasdan Botir oʻz gapida turadi, Ziyodaga boʻlgan muhabbatidan kechmaydi. Adib bu voqealar bayonini aytib kelib, nihoyat bir soʻz Botirning qarorini oʻzgartirishga majbur qilganligi, Ziyodaning yonidan uzoqroqqa ketishga sabab boʻlgan holatni koʻrsatadi. Bu holat Botirning ikkinchi xatida “...Muhabbat kishiga hayotda oʻz oʻrnini topib olishga yordam berarkan. Hafiz meni “aravakash” deb kamsitgandan keyin choʻlga ketmoqchi boʻlganimni sizga aytganman”¹, deb yozilgan soʻzlar orqali voqelikning inson ruhiyatiga taʼsir qilishi uchun qanday omillar sababchi boʻlishi mumkinligi oʻquvchilarning eʼtiborini qaratgan. Muallif bu bilan insonga beriladigan qiynoqlar, qiyinchiliklar ruhiyatga, uning nafsoniyatiga taʼsir qilmasligi mumkin, lekin insonni kamsitadigan bir ogʻiz unga yetkazilgan koʻp yillik zulmdan ham qattiqroq taʼsir qilishi mumkin degan xulosani bildiradi.

¹ Ўткир Ҳошимов. Севги қиссалари / Чул ҳавоси. –Т.: Ўзбекистон, 2013. –Б. 292.

Shu bilan birga inson ruhiyatiga ta'sir qiluvchi voqelikning unsurlari sifatida insonning umidsizlikka tushib qolishi, rad etilishi kabi holatlarning ham mavjudligi qissada yuqorida keltirilgan parchadan quyiroqda Hafizning holati misolida ko'rsatilgan. Hafiz sevgisi rad etilib, qattiq tushkunlikka beriladi. Ichkilik ichib xarob ahvolda ko'chalarda qolib keta boshlaydi. Bir kuni ana shunday holatlarning birini Botir ko'rib qoladi: "Pastqam ko'chadan chiqaverishda yo'l chetida cho'zilib yotgan kishiga ko'zim tushdi. Hayron bo'ldim. Mashinani to'xtatdim. Yugurib borib qo'limni bo'ynidan o'tkazib, boshini ko'tardim. Aftini yrug'ga solib ko'rishim bilan yana joyiga yotqizib qo'ydim. Bu – Hafiz edi. Kechagina meni haqoratlagan, menga tahdid qilgan Hafiz mast bo'lib, cho'zilib yotardi"¹.

Bu tushkunlik natijasida Hafizning boshidan kechirganlari keyinroq Hafizning o'zi nomidan hikoya qilinadi. Garchi Botir cho'lga ketib qolgan bo'lsa ham Ziyoda bilan munosabatini uzmaydi. Xat yozishib turadi. Lekin muhabbati rad etilgan Hafiz: " – O'shandan boshlab men sening yengganingni tan oldim. Gururim yo'l qo'ymasa ham yuragim sezib turardi. Men mard odamni yaxshi ko'raman. Ammo nomardlik qilib qo'ydim: institutga borgan xatingni o'g'irladim. Rosti – bu kundosh xotinning ishi..."², deb garchi inson tabiatan mard bo'lsa ham ruhiyatidagi tushkunlik uni qanday tubanlikka uloqtirishi mumkinligini aytadi.

Qissadagi inson qanday holatlarda qanday holatga tushishi, uning ruhiyatida kechayotgan qarama-qarshiliklar oxir oqibatda nima bilan yakun topishi mumkinligi haqidagi qarashlar uning mashhur bo'lishiga, tanqidchi va e'quvchilarning e'tiboriga tushishiga sabab bo'lgan. Shu bois O.Sharafiddinov: "Chindan ham "Cho'l havosi" maqtasa maqtagudek edi. Qissa yoshlar hayotiga bag'ishlangan bo'lib, unda ilk muhabbat, totli visol onlari, dastlabki iztiroblar haqida hikoya qilingan edi. Bu kichik qissa jurnalda e'lon qilinishi bilan ko'pchilik yoshlarning e'tiborini jalb qildi, uning to'g'risida qizg'in bahslar boshlandi. Shuning uchun Abdulla Qahhoring bu qissaga e'tibor berganligiga ajablanmasa ham bo'ladi. Lekin shundoq bo'lsa-da, baribir savol tug'iladi: yoshlarga

¹ Уткир Ҳошимов. Севги қиссалари / Чуқ ҳавоси. –Т.: Ўзбекистон. 2013. –Б. 293.

² Қўрсатилган асар. –Б. 301.

rag'ishlangan, ularning hayotidagi dastlabki mustaqil qadamlarni, izlanishlarni tasvirlagan hikoya va qissalar, o'sha kezlarda juda ko'p bo'lmasa hamki, har holda tor edi. Nega endi Abdulla Qahhor ularning ichidan O'tkimikini ajratib oldi?" degan savollarni beradi. Abdulla Qahhor qissaning uslubi yuzasidan ham o'z qarashlarini yosh yozuvchiga yozib yuborgan¹. Bizning nazarimizda, "Cho'l savosi"ning ulug' adib diqqatini torta olgan jihati, unda muallif inson ruhiyatining xozik qirralari o'z davri ijodkorlaridan farqli ravshda ochib berilganligi, inson ruhiyatidagi o'zgarishlarga sabab bo'ladigan omillarning boshqalardan farqli tarzda tasvirlanganligidadir.

O'tkir Hoshimovning har bir asari o'zbek adabiyotida alohida voqea sifatida e'tirof etilgan. Ayniqsa, O'tkir Hoshimovning "Bahor qaytmaydi" asari har jihatdan kitobxonlar mehrini qozongan. Biz quyida "Bahor qaytmaydi" qissasining obrazlar olamini undagi mukammallikka tayanib baholi qudrat tahlil qilishga harakat qilamiz.

60–70 yillar adabiyotida adashgan odamning fojiasini aks ettirgan o'nlab asarlar paydo bo'ldi, ammo ular orasida san'at darajasiga ko'tarilganlari oz. "Bahor qaytmaydi" qissasi bundan mustasno. "Bahor qaytmaydi" qissasida yozuvchi iste'dodli, biroq iste'dodi qadriga yetmagan, ulug' maqsadlardan mahrum xudbin yigitning tanazzul tarixini, ruhiy–ma'naviy inqirozini san'atkorona tasvirlab berdi. Ana shu san'atkorona hikoya tasvirning tuyg'ularga boyligi va samimiyati bilan ko'pchilik qalbiga yo'l topdi, ko'plarni hayajonga soldi.

Yozuvchining "Bahor qaytmaydi" qissasida ma'naviyat sinovidan o'ta olmagan shaxsning inqirozi, adashgan odamning fojiasi ko'rsatiladi. Adabiy tanqidchilik qissada Chingiz Aytmatov ta'siri borligini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, asarda Chingiz Aytmatov, qolaversa, Abdulla Qahhor ta'siri seziladi. 70–yillarda qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning dovrug'i dunyoga taralgan, millionlab kitobxonlar qalbini zabt etib ulgurgan, ko'plab yosh ijodkorlar kabi O'tkir Hoshimov ham undan ta'sirlanishi, unga ergashishi tabiiy edi. "Bahor

¹Шарафилдинов О. Эл ардоқлаган адиб / Эл севган адиб. Ўткир Ҳошимов замондошлари хотирасида. –Т: Мумтоз сўз. 2011. –Б. 21.

qaytmaydi”da Aytmotov asarlari bilan ba’zi mushtarak epizodlarni kuzatish mumkin, biroq, bizningcha, bunday o’rinlar xarakter va voqealar mantig’idan tabiiy ravishda kelib chiqadi va taqlid, sun’iylilik, zo’rakilik sezilmaydi, zero, tasvirlanish shunchaki sujet darajasida emas, ko’proq insonga yondashuv. uning qard-u iztiroblarini his qila bilishda namoyon bo’ladi. Qissa voqeasi original va hayotiy: ajoyib qo’shiqchilik, iste’dodiga ega bo’lgan Alimardon To’rayev tabiatiga xos bo’lgan shuhratparastlik, mayda istaklar, o’tkinchi mayllarning quliga aylanib, tubanlashib boradi. Boshida o’z iste’dodiga mahliyo bo’lib, atrofidagilarni pisand qilmaydi, so’ng do’stiga, oilasiga, oxir-oqibat esa san’atga xiyonat qiladi. Oqibatda yaqinlari, sevgilisi, farzandi, qolaversa, omma-muxlislari undan yuz o’giradilar. Qissa nihoyasida qahramon o’zining chohgaga qalab borayotganini tushunib yetadi, biroq undan qutulish yo’lini topolmay talok bo’ladi.

Alimardonning hayotda tayanadigan mustahkam ma’naviy tayanchlari, ezgu maqsadining o’zi yo’q edi, uni ham ma’nan, ham jisman fojiaga yetaklagan asosiy omil ana shunda.

Shu o’rinda O’tkir Hoshimov ijodiga xos bir jihatni ta’kidlash lozim: yozuvchining ijobiylik va salbiylik borasidagi nuqtayi nazarini qat’iy: halollik, poklik, adolat, sadoqat singari ezgu qadriyatlarni o’zida mujassamlashtirgan kuchli shaxslar uning sevimli qahramonlari, buning aksi bo’lmish qusuriyatlarga ega bo’lgan kishilar qahr-g’azabiga, kinoya-istehzosiga mahkum. Ba’zan salbiy qahramonlarda insoniy jihatlarni ko’rsa ham ularni tiratib kechirishni istamaydi, aksincha, ijobiy qahramonlarning oqibatlari talamga olganda, ularni tushunishga harakat qiladi. Shu bilan birga yozuvchi “adabiy aholisi” ichida hayotda adashgan, tabiatidagi ba’zi qusurlar, insoniy zaifliklar tufayli achchiq qismatga mahkum murakkab xarakterlar ham uchraydiki, yozuvchi ularga nisbatan yondashuvda xolis mavqeni egallaydi.

“Bahor qaytmaydi”dagi Alimardon obrazi tasvirida yozuvchi o’z asarlari qat’iy turgan, qahramonning salbiy jihatlari hech ayamay fosh qilingan. Biroq, yozuvchi iste’dodining qudrati shundaki, kitobxonda bu kimsaga

nisbatan nafrat emas, ko'proq achinish, hamdardlik tuyg'usi uyg'onadi. Adabiy taqqid buning sababini qahramon ruhiy-ma'naviy inqirozining san'atkorona mahallili, tasvirning tuyg'ularga boyligi va samimiyligida ko'radi.

Alimardon To'rayevning ma'naviy dunyosi asar dramatzimida haqqoniy ochilib beriladi. Jumladan, qissaning tugallanmasi ayrim kitobxonlarga ma'qul kelmasligi ham mumkin. Qissa oxirida Alimardonning halok bo'lishi shartmi? Bu yozuvchining ixtiyorida. Har ikki holatda ham uni diyonatiga putur yetmaydi.

Xullas, gap xotinida emas, balki asar qahramonlarining munosabatlarida, shu munosabatlar asosida yaratilgan hayot haqiqatidir. Tabiat unga ajoyib talant-e'mat inom etdi, ammo u buning qadriga yetmadi. U o'z iste'dodiga ham o'g'li Shavkatjonning taqdiriga ham e'tibor bermadi. Chunki u yoshligidanoq, o'zini o'ylaydigan xudbin bo'lib o'sgan edi, xuddi shu xudbinlik uni fojiaga olib keladi. Muqaddamga uylangach, uni xo'rlay boshlaydi, o'ziga o'zi mahliyo bo'lib, muxlis va tomoshabinlarini mensimay qo'yadi. E'tiqodsizlik, mas'uliyatsizlik o'tkinchi sayllarga berilish, umuminsoniy qadriyatlarni mensimaslik Alimardonni fojiaga olib keladi. Asar davomida biror o'rinda Alimardonning sun'iy holatlarini ko'rmaymiz, hayot mantig'iga zid keluvchi biror bir lavhaga duch kelib qanjimaymiz.

Har holda kitobxon Alimardonning inqirozidan xursand bo'lmaydi. Muqaddam va Shavkatjonlarning taqdiriga ham achindilar. Bu esa O'q.Hoshimovning o'ziga xos mahorati edi. Xuddi shu tuyg'u kitobxon qalbini yamshatadi, unga ma'naviy saboq bo'ladi.

Qissa matnida boshdan-oyoq muallifning o'ta nozik va nafis kuzatishlari, yozuvchi qalbi tebranishlari, rang-barang kechinmalari, zavq-shavqi, armon-o'tkinchlari, qisqasi, xilma-xil tuyg'ular nafasi ufurib yotibdi. Mana qissa xotimasidan kichik bir parcha, asar bosh qahramoni Alimardon halokatidan keyingi tabiat manzarasi tasviri:

"Negadir shu oqshom oftob juda qiynalib botdi. Ufq etagida osilib turdi--da, sekin--asta yer ostiga cho'kib ketdi.

Yana bir necha kundan keyin yayrab-yashnab bahor keldi... Saxiy ko'klam ko'plar qatori Alimardonning ham qabrini burkadi. Maysalar orasida ochilgan tittagina qizg'aldoq tong shudringiga qadash tutdi. Erta-indin to'kilib ketishi, orzidan na muattar bo'y, na meva qolishidan bexabar yal-yal yondi...".

Bu so'nggi satrlar adadsiz alam-o'kinchlar, ko'z yoshlar bilan qog'ozga yashgani shundoqqina sezilib turibdi. Qahramonning dafn kunida, o'sha motamsaro qushom payti quyoshning qiynalib botishi, ufq etagida uzoq osilib turishi, so'ng amidsiz alfozda sekin-sekin yer ostiga botib ketishda dillarni xun qiladigan, ko'zlarga yosh keltiradigan mungli ohang bor. Hamma yoqni nurga, rangga bezagan, qahramon qalbini maysalarga burkangan sahiy ko'klam, qahramon qabri ostida yal-yal yongan qizg'aldoq, uning omonat umri xususidagi nafasat to'la mungli tasvir, bir dam yashnab, erta xazon bo'lgan inson umri haqidagi hazin so'shiqning so'nggi nidolari, titroqlari kabi eshitiladi.

Hayotning shafqatsiz haqiqatini, dag'al bo'yoqlarda ifoda etilgan asarlar ostida tarbiyalangan kitobxonga O'tkir Hoshimov asarlaridagi o'ta nafis, hissiyotga boy ifodalar, soddadil, romantik, o'ta hissiyotchan, ta'sirchan qahramonlar bir oz jo'nroq, kitobiyroq tuyulishi mumkin. Biroq adibning uslub tarzini boshqa bir uslubiy yo'nalishga zid kelgani uchun kamsitish, rad etish, yerga tash o'rinsiz. Adabiyotda badiiy tafakkur, ifoda tarzi qanchalar rang-barang bo'lsa, shuncha yaxshi.

Ehtimol, O'tkir Hoshimov asarlari qahramonlarining o'zbek kitobxonlari ko'pchiligini asir qilgan omillardan biri shundadir. O'tkir Hoshimov asarlarida personaj talqinidagi nafasat tuyg'usi bilan yo'g'rilgan liro-romantik yo'nalish ostida jilo bilan namoyon bo'lgan ekan, bu hol milliy nasrimizning boyligidir.

O'tkir Hoshimovning "Bahor qaytmaydi" qissasi barcha poetik unsurlari bilan mukammal matnni tashkil etadi. U haqida fikr yuritib adabiyotshunos S. Mirzayev "O'tkir Hoshimov – ko'p qirrali iste'dod sohibi. Uning hozirgi zamon

o'zbek adabiyoti xazinasiga qo'shgan ulushi katta. Adib asarlari mazmun va shakl jihatidan go'zal, ularning badiiy – estetik ahamiyati beqiyos”, – degan edi¹.

Yozuvchi uzoq davrlik voqealarni, ko'plab insoniy taqdirarni bosh qahramonning bir necha soatlik kechinmalari ichiga jo etadi. Shunisi xarakterliki, muallif voqealarga bevosita aralashmaydi, muxtasargina so'z boshidan keyin u bevosita ko'rinmaydi, so'z, ixtiyor butunasiga qahramonlarning o'zlariga beriladi. Qahramonlar esa o'z boshlaridan o'tganlarini o'zlari so'zlashga kirishadilar. Shu paytgacha qadar bizda asar voqealarini qahramon tilidan hikoya qilish usuli bor edi.

Xususan, bu asarni ochishda ijodkor atrof – muhitni ham nazarga olgan holda bahor faslining kirib kelishi tabiatning uyg'onishi, muhabbat kurtaklariga bog'laydi. Xuddi shu yo'sindagi chizgilarni Cho'lponning “Kecha va kunduz” asarida uchratamiz. Asarda tabiat uyg'onishi bilan muhabbat ishq chizgisi bir yo'sinda ulansa-da, lekin asar sarlavhalarida farqli jihat bor. “Bahor qaytmaydi” va “Kecha va kunduz”, shuningdek “Bahor qaytmaydi” qissasini Ulug'bek Hamdamning “Sabo va Samandar” asariga qiyoslasak ikki do'st va bir qiz obrazlari bir-biriga o'xshaydi.

Yuqoridagi qissalarda shaxs ruhiy tanazzulining voqelikka bog'liqligi ahida personajlar misolida ochib berilgan. “Sirli yulduz” qissasida shaxs ruhiy tanazzuli masalasi jamoa ruhiy tanazzuli darajasida ko'rsatilgan. Garchi asarning bosh qahramonlari Toshpo'lat va Soliya bo'lsalar ham adib ular o'zini o'rab turgan jamiyatning vakili ekanliklarini, ularning xohish-istaklari jamiyatning qarshilarini ko'ndalashini ko'p o'rinda bildiradi. Xususan, qissada maktab o'quvchilarining paxta terimiga borganliklari aytilgan. Terimga Domla Hamroyevning borganligi ko'pchilikka ma'qul keladi. Chunki u nihoyatda madaniyatli va bilimli. O'quvchilarni tarix, astronomiya, adabiyot va boshqa fan sohalari bo'yicha suhbatlarga qiziqtiradi. Ba'zi bilimsiz o'qituvchilar esa buni ko'ra olmaydi. O'zlarining bilimsizligini yashirish uchun Hamroyevning tezroq shaharga qaytib ketishini istaydi. Hamroyevning terimdan keyingi suhbatlari barchaga yoqadi. Uning atrofida yig'ilib suhbatlashadilar. Turli savollar berib, savollariga jo'yali va

¹ S. Mirzaev XX asr o'zbek adabiyoti. – T.:Yangi asr avlodi. 2005.–B. 408.

aniq javoblar oladilar. Shu sababli o'quvchilar o'z o'qituvchisini haqiqiy ma'noda ustoz, yo'l boshchi sifatida hurmat qiladilar, qadrlaydilar. Aytganimizdek, Hamroyevning bunday fazilatlari saviyasi past boshqa o'qituvchilarga yoqmaydi. Uni maktabdan ketkazishga turli bahonalarni qidirib topadilar. Qissa ana shunday qutqular natijasida Hamroyevning sudga chaqirilishi, o'quvchilari davrasidan olib ketilishi bilan yakun topgan. Bu holat mana bunday ta'sirli tarzda tasvirlangan: "G'ira-shira qorong'ulikda paxtadan qaytayotgan bolalar ko'rindi. Ular to'chaning ikki chetiga chiqib traktorga yo'l berishdi. Keyin pritsep ustida turgan muallifni ko'rib qolishdi shekilli, hammalari traktor ketidan yurishni boshlashdi.

Qorong'ulik qo'ynida: "Malim! Malim!" degan nidolar tumanli havoni qaratdi"¹.

Ushbu fasl yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O'tkir Hoshimov ilk qissalaridanoq inson ruhiyati tasviri badiiy adabiyotning bosh mezonini ekanligiga ahamiyat bergan. Buni biz uning "Cho'l havosi" qissasi misolida ko'rishimiz mumkin.
2. Adib qissalarida inson ruhiyatining nozikligi, uning ruhiyatidagi o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan omillar "Cho'l havosi" qissasida ko'rsatishga harakat qilgan bo'lsa, bu qarashlar uning "Bahor qaytmaydi" va "Sirli yulduz" qissalarida davom ettirilgan.
3. "Cho'l havosi" va "Bahor qaytmaydi" qissalarida shaxs ruhiyatida o'zgarishlar to'y berishida, voqelik bir shaxs doirasida tasvirlangan.
4. Adibning "Sirli yulduz" qissasida shaxs ruhiyatidagi o'zgarishlar jamiyatda bo'layotgan ruhiy o'zgarishlarning belgisi sifatida talqin qilingan.

2.3. O'tkir Hoshimov qissalarida jamiyatdagi ma'naviy tushkunlik mavzulari

Oldingi fasllarning bir necha o'rnida O'tkir Hoshimov qissalari ko'p rakursli, serqatlam, bir necha mavzu va muammoni ko'tarib chiqishga qaratilgan

¹ O'tkir Hoshimov. Sevgi qissalari/Sirli Yulduz. –T.: Ўзбекистон, 2013. –Б. 345.

ekanligini aytib o'tgan edik. Xususan, uning qissalarida jamiyatning turli manzaralari to'g'risida so'z yuritilgan va bu manzaralar aslida qanday bo'lishi kerak degan savollarga ham javob berishga harakat qilingan. Qayd qilingan kabi manzaralar qatorida adib tomonidan jamiyatdagi ma'naviy tushkunlik mavzulari qalamga olingan. "Sirli yulduz" qissasida ana shu muvzuga ilk bor qo'l urilgan. Muallif qissaning boshlanishida: "Bu asarda o'tgan asrning saksoninchi yillarida o'y bergan voqealar tasvirlangan. Ular bugungi avlodga bir qadar erish tuyulishi mumkin. Ammo o'sha zamon uchun bular – oddiy, kundalik turmush tarzi edi. Qissadagi markaz zug'umi ostida kecha-kunduz mehnat qilayotgan o'zbek xalqonining kosasi oqarmas, farzandlarining ilm olishi ham o'lda–jo'lda edi.

Shunga qaramay yosh avlodning ilm olishi uchun jon fido qilishga tayyor astozlar, bilimga chanqoq yoshlar oz emasdi.

Eng muhimi–asarda o'smir yigitcha bilan qizaloqning bahor shamolidek pokiza, shudring tomchisidek shaffof, olis yulduz kabi ilk sevgisi tasvirlangan",– deb yozadi¹.

Darhaqiqat, qissada zikr qilingan mavzular bir–biriga qorishiq tarzda yoritib berilgan. Asar boshidanoq tabiatning tushkun kayfiyati tasvirlanadi. Kuzning yomg'irli havosi haqida so'z yuritiladi. Aslida qissadagi voqealar boshdan–oxir ana shunday nursiz tasvirlar fonida bo'lib o'tadi. Qissa bir necha kichik–kichik bo'lakchalarga bo'lingan. Bir kichik bo'lak tugab, ikkinchisi boshlangan o'rinlarda ham adib yomg'irning "sim–sim" yog'ayotganligi, havoning nursiz ekanligi bot–bot aytib turiladi. Bu ma'lum ma'noda adib bayon qilmoqchi bo'lgan voqealardagi ruhiy tushkunlikni tabiatga ham bog'lab ko'rsatishga harakat qilganligi dalillaydi.

Shuningdek, asar boshida insonlarning yo'lini yoritib turishi kerak bo'lgan lampochkaning dog' shaklida, nursiz ekanligi aytiladi. Ushbu ishora–ramz asarda tasvirlanayotgan davrdagi ma'naviyatning xiralashayotganligini bildiradi. Bunday ramzlardan keyin adib ma'naviy yuksalishi, ayni ilm olishi, kelajak haqida o'y–xayollar surishi kerak bo'lgan to'qqizinchi sinf o'quvchilari paxta dalasida zax

¹ Уткир Хошимов. Сирли юлдуз/ Севги киссалари. –Т.: Ўзбекистон, 2013. –Б. 307.

oyda yotganliklarini tasvirlaydi. O'z navbatida bilimli va madaniyatli astronomiya va geografiya fan o'qituvchisi Omonulla Rustamovning zax bosgan muhitda bo'lishi go'yo atrofni yoritishga intilayotgan shamga o'xshatilgan. Buni muallif bir necha o'rinlarda aytib o'tadi. Jumladan, Omonulla Rustamovning egnida sodolazka, charm kurtka ekanligi, boshyalang yurishi tasvirlanadi. Uning bunday yurishi Hamroyevga ko'pam yoqmaydi. Hamroyev Omonulla Rustamovni "bodi" deb ataydi. Rustamov o'z kasbining fidoyisi. Hamroyev esa vaqti kelib maktabdan boshlab, fermerlikni tanlaydi. U:—"Dehqonchilik qilaman. Ertadan kechgacha mehalarga dars o'rgatib jigar xunob. Oladigan pul haligiday... Dehqonchilik qilaman. Baribir umrni yarmisi dalada o'topti", deydi.¹

Rustamov paxta shiyponidagi qiyin sharoitlarga qaramasdan o'quvchilarga nari mavzularda suhbatlashadi. Ularni bilimli bo'lishini istaydi. O'quvchilar bergan savollarga erinmay javob qaytaradi. Toshpo'lat yoqtirmaydigan Mamat tabilarning bergan masxaromuz savollariga jiddiy turib javob beradi. Rayonga berib o'quvchilarning bilim darajasi tushib ketayotganligini aytib rahbarlar bilan ertishadi. Albatta, uni tushinuvchilar topilmaydi. Aksincha, Rustamovni shaharga qaytarib yuborishga harakat qiladilar.

O'tkir Hoshimov Omonulla Rustamovni aynan astronomiya va geografiya ni o'qituvchisi sifatida tanlashi, o'z navbatida, uning tilidan atrof olam, uning xilma-xilligi, xalqimizning tarixi, ular yetishtirayotgan paxtaning qanchalik qimmatligi haqida gapirtirishi ham o'z-o'zidan asarga olib kirlmagan. Bu bilan muallif o'quvchilarning biz yashab turgan olam—o'sha davr nuqtayi nazari bilan atganda bepoyon sovetlar yurtidan boshqa "olamlar" ham borligini o'quvchilarga ildirishga harakat qiladi. To'qqizinchi sinfning sodda va samimiy bolalari tilidan paxtadan necha xil mahsulot olinishiga javob beradi. Bu bilan xalqimizning mehnati qanchalar qimmatli ekanligini urg'ulaydi. Aslida, bu oddiy o'qituvchining paxta shiyponida yomg'irdan zerikib o'z o'quvchilari bilan qilayotgan vaqt etkazish uchun qilayotgan suhbatlari emas. Rustamovning maktab o'quvchilarning bilim darajasi pasayib boryapti, degan gaplari ham shunchaki obrazning xarakterini

¹ Ўткир Ҳошимов. Сирли юлдуз/Севги киссалари. —Т.: Ўзбекистон, 2013. —Б. 334.

ishish uchun o'ylab topilgan emas. Bu gaplar ma'nan zaiflashib, pastga tushib borayotgan, qornidan boshqa narsani o'ylamaydigan xalqqa aylanib qolayotgan tushilarga adibning murojaatidir.

Hamroyev maktabda o'qituvchi bo'lishga ham munosib emas. Ana shunda o'l-atvori bilan bilimli o'qituvchi ustidan odamlar orasida g'iybat gaplarni tarqatib yuradi. "–Shaharlik bodi o'zlarini ko'rsatoptilar. Yangi jo'rob yaxshi gapuradi–da! Buruklar utuklangan, bo'ynida bo'yinbog', soqollar paratka... Pedagog hamma joyda o'rnak bo'lishi kerak deb leksiya o'qiydilar. Men ham edim shuningdek, sen ham bo'lasan maningdek! O'quvchi olida go'salaning uch–to'rt tetil go'ngini tomorqaga tashisin, ko'ramiz, soqol olishga vaqti qolarmikin!..". Asardagi ana shu lavhalar aslida jamiyatdagi, o'zbek xalqi hayotidagi ma'naviy tushkunlikning belgilari sifatida ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.

Ruhiiy tushkunlik ziyolilar qatlamida mana shunday ko'rinishda bo'lsa, ma'naviyatga intilishi kerak bo'lgan yoshlar orasida ham shu kabi tushkunlik ko'zga tashlanadi. Masalan, Toshpo'lat kosmonavt bo'lishni orzu qiladi. Lekin og'ridagi revmatizm uni ezadi. Og'riq sovuq havo ta'sirida unga azob beradi. Shu sababli o'z orzusiga yeta olmasligini o'ylab qiynaladi.

Qiyin paxta sharoiti bo'lishiga qaramay Soliya kabi qalbi sof orzularga to'la yoshlar kitob o'qishga intiladilar. Dalada ham o'zlari bilan kitob olib yuradilar. Toshpo'lat ham ana shundaylarning biri. U ham kitobni, ziyoni qadrlaydi. Asarda kitob voqeasi bilan bog'liq bir epizod tasvirlangan. Unda Soliya kelayotib qoqilib qoladigan kitobi uchib kanalga tushib ketganligi aytiladi. Shunda ko'pchilik bolalar orqasidan ajralib chiqqan Toshpo'lat kanalning suvi sovuqligi va oyog'ining og'irishini bilishiga qaramay kitobni olishga harakat qiladi. Muzdek suvga tushib, Soliyaning kitobini tutib olib chiqadi. Albatta, bu hol kitobni qadrllovchi, ma'naviyatni baland tutuvchi yosh yigitning harakatlari edi. O'sha yerning o'zida tunning aksi bo'lgan manzara ham tasvirlanadi. Hamma narsadan pulni ustun ko'rayadigan selpo raisining o'g'li bo'lgan Mamat uchun bu narsalar sariq chaqalik ham qadri yo'q. U Toshpo'latning qilgan ishining farqiga ham bormaydi.

Toshpo'lat suvni ham, sovuqni ham sezmasdi, baxtiyor edi. Nariroqda iljayib bergan Mamatni ham ko'rmadi, lekin gapini eshitdi, aniq eshitdi:

–Yaznamiz giroy–ku!"¹.

Bunday ma'naviy tushkunlik manzaralari boshqa personajlarning xatti–harakatlarida ham kuzatiladi. Masalan, sovxoz direktori uchun paxta planidan muhim masala yo'q. U o'quvchilarning o'qishdan qolib ketayotganligiga eziqmaydi. Bunday bepisandlik maktab o'quvchilariga tabelchilik qilayotgan shaxsning xatti–harakatlarida ham yuzaga chiqadi. U spirtli ichimlik ichib olib, og'ir sharoitda paxta terib kelayotgan o'quvchilarga nisbatan qo'pol munosabatda bo'ladi, ularning mehnatini qadrlamaydi. O'zining noma'qul harakatlari bolalari qatori o'quvchilarga qanday ta'sir qilishi, ular orasida qanday obro'–e'tiborga ega bo'lishi mumkinligi to'g'risida o'ylab ham o'tirmaydi. Uning uchun ichadigan vinosining kayfi muhimroq.

Adibning "Ikki karra ikki – besh" qissasi xalqimizning ma'naviy tushkunlik davrini tasvirlab bergan o'ziga xos asar. Asar yaxlit olinganda bir millatning sovetlar tuzumi davridagi taqdiri Qo'shoqning hayoti misolida ko'rsatilgan. Qo'shoqning tilidan adib yoshligidan biroz yolg'on so'zlashini aytadi. Qissani boshdan–oxirigacha o'qib chiqqan o'quvchi sovetlar tuzumi ilk davridanoq yolg'on haqiqatlar, soxta so'zlar bilan oyoqqa tura boshlaganligini idrok etadi. Qo'shoqning hech bir so'zni to'g'ri aytmaligining sabablari ham muallifning ana shu adabiy maqsadlarini ochib berishga yo'naltirilgan. Bir o'rinda Qo'shoq "Tursunboy akamning mototsikli bittaligini bilaman. Ammo butun qishloqqa xabar tarqatib keldim: "Tursunboy akaning oltila pat–pati bor!", desa², birinchi kun maktabga borganda: "O'qituvchi opa yana boshimni siladi. Faqat bu gal qoq ikki pallaga bo'linganda tomorqadagi o'qariqdek chuqur iz qoldirgan boshimga barmog'ining uchini tekkizib qo'ya qoldi...

–Familiyang nima, bolakay?–dedi kulishga urinib

–Salimip!–dedim baqirib.

¹ Ўткир Ҳошимов. Сирли юлдуз/ Севги киссалари. –Т.: Ўзбекистон, 2013. –Б. 319.

² Ўткир Ҳошимов. Икки карра икки–беш/ Аждарнинг талвасаси. –Т.: Ўзбекистон, 2012. –Б. 7.

–Salimovmi?–u stoldagi kattakon daftarni ochib, tez–tez yozdi.

–Oting?

–Qo‘shovoy!

–Qo‘shoqvoy degin... Yaxshi. Yoshing nechada?

Xuddi shu payt eski dardim qo‘zg‘ab, lof–qor bilan aytish kasalim tutib oldi.

–O‘n besh”¹.

Shu tariqa Qo‘shoqning hayotidagi yolg‘onlar ulanib ketadi. Bu yolg‘onlar asosida qayd qilganimizdek, bir shaxs hayoti misolida jamiyatdagi ma‘naviy tushkunlikning belgilari sifatida tez–tez ko‘zga tashlanib turadi.

Ma‘naviy tushkunlikning belgilari kolxoz raisi, o‘zini xalqning otasi deb hisoblaydigan Qo‘shoqvoyning eng yaqin do‘sti Shodivoyning otasi hayotida ko‘plab uchraydi. Aslida buni ma‘naviy tushkunlik emas, balki ma‘naviy tubanlik deb baholasa bo‘ladi. U Tursunboyning xotini bilan yashirin munosabatlarini yopish uchun buning evaziga mototsikl sovg‘a qiladi. Ikki o‘rtadagi munosabatga Qo‘shoqvoy bolaligidan to uylanguncha bo‘lgan davrda bir necha bor guvoh bo‘ladi. Bunday guvohliklarni tahlil qilganimizda, o‘sha davr rahbarlarining ma‘naviy qiyofasi tuzumning boshidan–oxirigacha shunday bo‘lgan degan xulosaga kelamiz.

Keyinchalik bu “mototsikl sovg‘asi” Qo‘shoqvoyning hayotida ham takrorlanadi. Qo‘shoqvoy yaxshi ko‘rgan qiz bilan rais o‘rtasidagi munosabatlarning yopilishi uchun, rais Qo‘shoqvoyni qizga uylantirib qo‘yadi va ketidan “sovg‘a” beradi. Garchi oradagi sirdan qizning qarindoshlari xabardor bo‘lsa ham bunga e‘tibor qaratmaydilar.

Bu jamiyatdagi tushkunlik ma‘naviyat tarqatuvchilarning faoliyatida ham mavjud. Jumladan, maktab direktori Qo‘shoqvoyning bilimidan arz qilib kirganda: “–Siz, o‘rtoq Ikromova, shahardan kelgan odamsiz,–dedi direktor tajang ohangda. –Yoshsiz. Ammo bilib qo‘ying. Qishloq–shahar emas! Hamma olim

¹ Кўрсатилган асар. –Б. 9.

olib ketaversa, podani kim boqadi?"¹ Darhaqiqat, sovetlar tuzumida talqimizning balimli bo'lishi ayrim ana shunday maktab direktorlarini ham inchalik qiziqtiravermagan. Ular markazdan berilgan buyruqlarni bajarishga harakat qilganlar.

Qo'shoqvoyning eshagi bilan bog'liq lavhalarda ham o'sha davrning ma'naviy tushkun manzaralari ochilib boriladi. Uning eshagi har tomonlama qulay. Ushu sababli tog'asining "Moskvich"iga almashtirishni istamagan. "Moskvich" voqeasi tog'asi xotinini tug'ruqxonaga olib ketayotganligi hikoyasi bilan davom etiriladi. Unda aytilishicha, tog'asi yangasini tug'ruqxonaga olib borayotganda bir joyda hasharga to'xtashgan ekan. 20 kilogramm paxta terilmaguncha ruxsat bermaydi. Oqibatda, tog'asining xotini yo'lda tug'ib qo'yadi. "Moskvich"da tug'ilgan bolani erkalatib "Moskvich polvon" deyishgan. Bu hikoya ham garchi talqili tuyulsa ham inson taqdirining qay darajada qimmatga egaligini shundan bilib olamiz. Hasharga majbur qilayotgan kishilar, tug'ruq holatidagi ayolni so'nggi daqiqagacha ushlab turishini muallif "Sirli yulduz" qissasining boshida aytganidek ayni vaqtda tasavvurimizga sig'dira olmaymiz. Lekin asl haqiqat shunday bo'lgan.

Qo'shoqvoyning do'sti Shodivoy obraziga ham muallif tomonidan ma'lum poetik funksiyani yuklagan. Shodivoy aslida ma'naviy tubanlashgan raisning o'g'li. Lekin uning ko'ngi toza. Uning yuridik fakultetga o'qishga kirish voqeasi ham otasining qing'ir ishlardan topgan puli evaziga amalga oshadi. Shunday bo'lsa ham Shodivoy keyinchalik o'zining so'zi bilan aytganda, qattiq o'qishga qaror qiladi:

"—Shodi—i, dedim yalinib.—Otang seni besh yil ne umidlar bilan o'qitdi, jo'ra...

—Ovsar!—Shodivoy alamli kuldi.—Bilaman, o'qitdi. Har sessiyada sovg'a—salom, dasta—dasta pul jo'natdi. Aysam, baribir ishonmaysan! Men o'sha pullarni qaytarib yubordim. O'qishga pul bilan kirganim yetadi. Endi bu yog'iga...—u bir

¹Курсатилган асар. —Б. 16.

taqatga tikilgancha uzoq jimib qoldi. Ma'yus kulimsiradi.—Men yuristlar eng halol odam derdim. Adliya so'zi – adolat so'zidan olingan derdim. Qadimgi dunonlarning Femida degan xotin xudosi bor. Adolat o'shandan qolgan, deb o'qitishardi. Rost, domlalarimiz orasida halol odamlar ko'p edi. Ammo har barchayotga pul yig'ib oladigan ablahlar ham bor edi, Qo'shoq! Ishonasanmi shunga!—u alam bilan bosh chayqadi. —Ammo boshi men o'qimoqchi emasdim. Sen qayerda bo'lsang, men ham shu yerda bo'lmoqchi edim. Keyin tamagir domlarni ko'rib oxirigacha o'qishga qasd qildim. Shuning uchun ta'tilda Qozog'iston, Rossiyada jon kuydrib ishladim. Bu yoqlarga kelmoqchi emasdim"¹. Shunday qilib Shodivoy bilimli huquqshunos bo'lib yetishadi. Haqiqat uchun kurashga chog'lanadi. Poraga berilmaydi. Adib bu bilan ma'nan chirib borayotgan o'sha-jamiyatdan Shodivoy singari sofdil, haqiqatgo'y farzandlarning o'sib chiqishiga umid qiladi. Bunday jamiyat, unda adolatni o'rgataman degan adolat posbonlari—yuristlarning ustidan o'z hukmni Shodivoyning so'zlari orqali chiqaradi.

Asarning nihoyasida o'sha ma'nan chirigan jamiyatning shafqatsizligi, haqiqat uchun kurashuvchilarning holi qanday bo'lishi mumkinligi Shodivoyning taqdirida yana bir bor ko'rsatiladi: U o'z otasini so'roq qilishga, uning ustidan hukm chiqarishga majbur etiladi. Shunday sharoitda, Shodivoyning otasi va otasining atrofidaigilar pora evaziga o'z o'g'lini sotib olishga tayyorligi aytiladi.

Qo'shoqvoyning taqdiri ham ayanchli. U o'z boshidan kechirgan barcha bunday tubanliklarga chiday olmasdan kelgan tekshiruvchilarga haqiqatni aytib tashlaydi. Bungacha uning oldiga kolxozdagi qing'irliklarni, qo'shib yozishlarni qilish uchun kelgan Ergashevni kaltaklagan edi. Lekin keyingi voqealar rivoji uni asl haqiqatni oshkor qilishga turtki beradi.

Qissa oxiriga kelib o'sha tubanlashgan jamiyatning barcha sir—asrirlari ochib tashlanadi. “Onamning aytishicha, qaynonam raisning xotini bilan rosa gulishibdi. “Ering qizimga aliment bersin”. deb to'palon qipti. Raisning xotini “bobosi tengi erkakning to'shagida yotgan g'ar qizing kuchala yegan joyga borib

tasin” debdi. Shundan keyin hammasi bir–birining tagini kavlashga tushib ketibdi. “Ferma tog’a” Shaydul kassirni ayblabdi, Shaydul kassir boshbuxni... Xullas hammayoq to’s–to’palon bo’lib ketibdi. Ergashev bular paxta o’rniga pul to’pshirishadi, degani rost ekan” deydi Qo’shoqvoy¹.

Qo’shoqvoyning taqdiri nihoyatda ayanchli: haqiqatni aytganligi uchun u Annixonaga qamab qo’yiladi. Do’stining yordamidagina u yerdan chiqadi. Annixonadan chiqqanda otasidan ajralgan edi. Otasidan ajralgani sababli Qo’shoqvoyning ruhiyatida qattiq o’zgarish bo’ladi. Bular ham ma’naviyatdan uzoqlashgan, tub–tubidan chirib bo’lgan jamiyatning insonlarga munosabatining qorqin ifodasi edi.

Ushbu fasl yuzasidan quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

1. O’tkir Hoshimovning “Sirli yulduz” qissasi sovetlar tuzumi davridagi ma’naviy tushkunlik mavzularini yoritishga qaratilgan ilk qissasidir. Qissa nihoyatda serqatlam. Unda muallif aytganidek, Toshpo’lat va Soliyalarning hayoti, orzu istaklari ko’rsatishga harakat qilingan. Ayni chog’da ana shu ikki yosh yashab turgan jamiyat vakillarining asl ma’naviy qiyofasi ochib boriladi.

2. “Sirli yulduz” qissasida yozuvchi jamiyatdagi ma’naviy tushkunlikni tabiatdagi o’zgarishlar bilan bog’liq holda ramzlar bilan ifodalagan. Kuzning bulutli havosi, yomg’irning tinmay yog’ishi, quyoshning ko’rinmay turishi, yo’lni yoritishi kerak bo’lgan lampochkaning dog’ singari ko’rinishini ana shunday ramzlar sirasiga kiritish mumkin.

3. Adibning “Ikki karra ikki–besh” qissasi ma’lum ma’noda sovetlar tuzumi davrida xalqimiz ma’naviy hayotida ro’y bergan kayfiyatni ifodalashga qaratilgan. Asarning bosh qahramoni Qo’shoqvoyning hayot yo’li sovetlar tuzumining bosib o’tgan yo’liga qiyoslanadi. Uning yoshligidan boshlangan yolg’on gapga o’rganib qolganligi, turli tubanliklarni ko’rib borishi kabi lavhalar asarning so’ngiga qadar davom etadi. Bu hol bir jamiyatning ma’naviy qiyofasi tarixi, aslida.

4. "Ikki karra ikki – besh"da ma'naviy tushkunlik–tubanlik jamiyatning barcha qatlamlarigacha borib yetganligi, rais va klub mudirasi, rais va kotiba, paxta planini bajarish, paxta terimi inson hayotidan ham muhim degan bir qator ko'rinishlarda ochib berilgan.

III BOB. O'TKIR HOSHIMOV QISSALARINING KOMPOZITSIYASI. YOZUVCHI QISSASINI UMUMTA'LIM TIZIMIDA O'RGANILISHI

3.1. O'tkir Hoshimov qissalari kompozitsiyasining xilma-xilligi

“Badiiy asardagi shakl komponentlarini badiiy mazmunni shakllantirish va kodlash uchun eng qulay tarzda uyushtirish kompozitsiyaning zimmasidagi vazifa sanaladi. Kompozitsiya (lat., tartibga solish, tuzib chiqish) asardagi barcha unsurlarni shunday uyushtiradiki, natijada unda birona ham ortiqcha unurning o'zi bo'lmaydi, zero, har bir unsur asar butunligida o'zining funksiyasiga ega bo'ladi, muayyan g'oyaviy–badiiy yuk tashiydi. Avvalo, kompozitsiyaning katta qismini sujet tashkil qilishini ta'kidlash joiz. Shu bilan birga, badiiy asar faqat aloqalar tizimidangina iborat emas, unda rivoya, tafsilotlar, peyzaj, portret, interyer, lirik chekinish, qistirma epizod kabi sujetdan tashqari qator unsurlar ham mavjud”,– deydi D.Quronov.

Yana uning yozishicha: “Yozuvchi asar qurilishini belgilaganda ularning har birini o'z o'rnida, o'z me'yorida ishlatishi, qismlarni butun bilan mustahkam aloqada bo'ladigan, bu aloqalar anglanadigan tarzda joylashtirishi muhim. Avval aytganimizdek, yozuvchi ijodiy niyatdayoq o'qish jarayonini ham nazarda tutadi. Ayni shu narsa, o'qish jarayonining ijod jarayoniga ta'siri, badiiy asar kompozitsiyasini belgilaganda ayniqsa yaqqol ko'rinadi. Kompozitsion jihatdan yaxshi tashkillangan asardan o'quvchi to'rtinchi nuqtaga qadar yangi–yangi mazmun qirralarini kashf etib boradi, o'qish davomida turfa hissiy holatlarni qalbdan kechiradi, aqliy yoxud ruhiy to'liqish, zerikish hislari unga tamomila yot bo'ladi. Bulardan ko'rinadiki, badiiy asar kompozitsiyasi asarning barcha komponentlarini uyushtirib, uning shakli va mazmuni butunligini ta'minlaydigan, asarning o'qilishi, uqilishi va kitobxonga g'oyaviy–estetik ta'sirini boshqaradigan, xullas, asarni chinakam san'at hodisasiga aylantiradigan eng muhim unsur ekan. Muayyan asar badiiyati haqida so'z ketganda uning sujet–kompozitsion xususiyatlariga, ijodkorning badiiy mahorati haqida so'z borganda uning bu boradagi mahoratiga ayrica e'tibor berilishi bejiz emas. Zero, badiiy

asarda hayot muayyan badiiy shaklga solingan holda aks ettiriladi, unda yangi reallik – badiiy voqelik yaratiladi. Ya'ni, san'atkor bir butunlikdan ikkinchi bir butunlikni — voqelikning badiiy modelini yaratishi, hayot materialini (dispozitsiya) badiiy asarga (kompozitsiya) aylantirishi zarur bo'ladi. Shu bois ham dispozitsiyani kompozitsiyaga aylantira olish iqtidori ijodkor shaxsning tug'ma koniyatlari sirasida sanalib, iste'dod kuchi uning qay darajada ekanligi bilan belgilanadi"¹.

Bu aytilganlar umuman olganda badiiy asar kompozitsiyasi xususidadir. Aytilganlardan tashqari, kompozitsiya har asarning tabiatidan kelib chiqib ham farqlanishi mumkin. Jumladan, qissa janrining kompozitsiyasi nasriy asarlarning boshqa turlaridan farqli jihatlarga ega. Qissa janrining kompozitsiyasi nazarida A.Xolmurodov mana bunday yozdi: "Qissada, har qanday badiiy ijod namunasida bo'lgani kabi, kompozitsiya alohida o'rinni egallaydi. Yozuvchi voqea va xarakterlarni tasvirlashda kompozitsion butunlikni saralashi lozim. Aks holda, asarning badiiy saviyasiga putur yetadi.

Ma'lumki, kompozitsiya badiiy asarning ta'sir kuchini oshiradigan, emotsionalligini kuchaytiradigan, hayotdagi tasodifiy, o'tkinchi hodisalarni emas, eng muhimi, eng xarakterli hodisalarni tanlab olishga yordam beradigan amillardan biridir.

Badiiy asarning kompozitsiyasi, umuman mushtarak qonuniyatlar asosida yaratilsa-da, har qaysi janrning o'ziga xosligidan kelib chiquvchi alohida talablar va mezonlar ham bo'ladi. Chunonchi, romanda ham, qissa va hikoyada ham kompozitsiya voqealarni, sujetni asarning asosiy g'oyasidan iborat markaz atrofiga ixcham va muvofiq uyushtirish prinsipi asosida qurilishi kerak. Bu – umumiy qonuniyat. Shu bois qissa janrining o'ziga xosligi uning kompozitsiyasining ham puxta tuzilishini, ortiqcha tafsilotlardan xoli bo'lishini taqozo qiladi"².

¹ Курунов Д. Адабиётшуносликка кириш. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги Халк мероси нашриёти, 2004. –Б. 112-114.

² Холмуродов А. Қисса поэтикаси. –Т: Фан. 2006. –Б. 46.

Olim yana davom ettirib yozishicha, qissada ham ekspozitsiya, tugun, voqea voqo'i, kulminatsiya, yechim kabi qismlar mavjud¹.

Shunday qilib ma'lum bo'ladiki, badiiy asar, jumladan qissada kompozitsiya asardagi voqealar ketma-ketligi, obrazlar tizimi, ularning qo'llagan so'zlari kabi bir asar unsurlarni tartibga solish, asardagi mazkur unsurlar muallifining g'oyasi asardagi ifodalash va asarni qiziqarli qilishda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, qissa janrining kompozitsiyasi puxta tuzilishi, ortiqcha tafsilotlardan xoli bo'lishi kerak. Aytilgan mezonlar asosida O'tkir Hoshimov qissalarining kompozitsion tuzilishiga e'tibor qaratamiz. Jumladan, adibning bir nechta qissasida prolog qo'llangan. Prolog, shubhasiz asar mohiyatini, unda qo'yilayotgan masalaning mag'zini ochishda, anglashda muhim ahamiyatga ega. Prolog (yun. pro – oldidagi, logos – so'z) – adabiy asarning kirish qismi, muqaddima. Prologlar mazmun mundarijasiga ko'ra turlicha bo'ladi: asarning yozilish sababini izohlash, asosiy mazmunini muхtasar bayon etish, asar vaqtigacha yuz bergan voqealarning qisqa bayoni. Shunga ko'ra, prologlar turli badiiy–estetik maqsadlarga xizmat qiladi: o'quvchini asar voqeligiga olib kirish, tasvirlanajak voqealarning yuz berish omillari haqida umumiy tasavvur berish, muayyan emotsional–hissiy holat hosil qilish va hokazolar.

Adibning “Sirli yulduz” qissasida ana shu priyom qo'llangan. Unda asardagi voqealar o'tgan asrning saksoninchi yillarida yozilganligi, ular hozirgi davr kitobxonlari uchun erish tuyulishi aytilgan. Asar 1982 yilda yakunlangan. Ayni paytda asarning dastlabki variantlarida prolog bor yoki yo'qligini bilmaymiz. Ushbu prolog mazmunidan u keyinchalik yozilganligi bilinadi. Har holda prolog mazmunidan adib qissadagi voqealar bayonidan ko'zlangan maqsadi nima ekanligini o'quvchilarga tushuntirishga xizmat qilganligini bilamiz. Albatta, qissani o'qigan o'quvchi prologda aytilganlarni ilg'ashga harakat qiladi. Bundan xulosa qiladigan bo'lsak, o'quvchi prologda aytilganlarni topishga, aytilgan jihatlarga e'tibor qaratishga harakat qiladi. Adib prologida shuningdek, aytilmagan o'r'inlar, o'quvchining o'zi qidirib topishi kerak bo'lgan o'r'inlar xususida so'z

¹ Курсатилган асар. Курсатилган бет.

qaratilmagan. Endi, ziyarak o'quvchi qissaning o'sha jihatlarini topishi kerak. Oldingi boblarda "Sirli yulduz" faqatgina yoshlar hayotiga bag'ishlanib qolgan asar emas, unda sovetlar tuzumining chirib borayotgan ma'naviy hayoti, o'zbek xalqining sovetlar tuzumi davrida qay ahvolga tushib qolganligi tasvirlanganligini ko'rgan edik. Asar sovetlar tuzumi davrida yozilganligi bois prologda aytilganlar ushbu o'rinda adibning asl g'oyasini turli xil tazyiqlardan kafolatlashning bir yo'li ham bo'lgan. Bu holatni biz Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlari"dagi barchaga mashhur bo'lib ketgan "Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlidir" degan iborasiga quyoshlashimiz mumkin.

"Ayrim adabiyotlarda prolog va epilog ham sujet elementi sifatida ko'rsatiladi. Shuningdek, ba'zi asarlar borki, ularda qahramonlarning asarning sujet vaqtidan oldingi (oldingi tarix – "predistoriya") yoki keyingi hayoti (keyingi tarix – "posleduyuhaya istoriya") haqida ma'lumot beriladi (yoki tasvirlanadi)ki, asar ham sujet elementlari qatorida sanaladi"¹.

O'tkir Hoshimovning "Cho'l havosi" qissasida prologga yaqin turadigan usul – epigraf qo'llangan. Epigrafga xalq qo'shig'idan olingan "Xatlar yurak kaptarlari, Xatdur ko'ngil daftari" misralar asos qilib olingan.

Epigraf (yun. epigraphe – bitik, sarlavha) – asarning boshlanishida sarlavhadan keyinqoq yoki uning bo'lim (bob, fasl)lari boshida keltiriluvchi qisqa, adadta, e'tiborli manbalardan (xalq ijodi, mashhur kishilarning purhikmat so'zlari va sh.k.) olingan ko'chirma, sitataning bir ko'rinishi. Ko'p hollarda epigraf o'zining aforistik mazmuni bilan asar mohiyatini ochib beradi². Ushbu holat ham prologga o'xshab ketadi. Adib keltirilgan epigraf orqali qissaning maktub shaklida qima uchun berilganligini anglab olamiz. O'z davrida Abdulla Qahhor ham "Cho'l havosi"ning ana shu jihatini ulug'lagan.

"Sirli yulduz" ham "Cho'l havosi" ham bir nechta qismlardan iborat. Masalan, "Cho'l havosida" har bir maktub yangicha ohang va yangi mavzular yuzasidan

¹ Курунов Д. Адабиётшуносликка кириш. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси наشريёти. 2004. –Б. 112-114.

nikoya qilsa ham, asar qahramonlarining ruhiyati bilan bog'liq kechinmalar uning yaxlitligini ta'minlagan.

“Sirli yulduz” ham shunday xarakterga ega. Ana shunday bir nechta bo'laklardan iborat ikki asardagi o'xshash jihat–har ikki asarning har bir bo'lagi o'ziga xos ekspozitsiya bilan boshlangan. Mazkur ekspozitsiyalar asarning mazmun–mohiyati, uning emotsional ta'sir kuchini oshirishga xizmat qilgan.

Ekspozitsiya (lot. expositio – bayon, tushuntirish) – sujet komponenti. personajlarning bevosita tugun yuzaga kelishi vaqtida kechgan hayoti. asosiy konflikt yetilgan shart–sharoitlar tasviri. Ekspozitsiya o'quvchini asar voqealari kechadigan joy, voqea ishtirokchilari bo'lmish personajlar, konfliktni yuzaga keltirgan shart–sharoitlar bilan tanishtiradi, uni sujet voqealarini idrok qilishga tayyorlaydi. Ekspozitsiya hajm e'tibori bilan turlicha bo'lishi, asarning turli o'rinlarida kelishi, ba'zan umuman tushirib qoldirilishi mumkin. Mas., “Mehrobdan chayon”da ekspozitsiya juda katta o'rinni – xondan sovehilar kelgunga qadar bo'lgan epizodlarni o'z ichiga olib, personajlarning oldingi tarixi bilan aralash tarzda beriladi. “Qutlug' qon”da u juda qisqa va tugundan keyin beriladi, “Qo'shchinor chiroqlari”da esa ekspozitsiya umuman tushirib qoldiriladi. Ekspozitsiya personajlarning o'tmish hayoti haqida ma'lumot beruvchi oldingi tarixdan bevosita asar badiiy vaqtiga aloqadorligi bilan, prologdan matnning alohida kompozitsion bo'lagi sifatida ajratilmasligi bilan farq qiladi□.

“Cho'l havosi” uchta xatdan iborat. Har bir xat Ziyodaga murojaat va uning hol–ahvolini so'rab, o'zining kayfiyatini bayon qiluvchi ekspozitsiya bilan boshlanadi. Ana shu ekspozitsiya keyinchalik voqealar rivojini belgilashga zamin hozirlagan.

“Sirli yulduz”ning har bo'limi qisqa–qisqa ekspozitsiya bilan boshlanadi. Mazkur ekspozitsiyalarning deyarli barchasi bir xil. Masalan, birinchi bo'limda “Tashqarida sim–sim yomg'ir yog'adi. Tomchilarning shitirlashi, tarnovning shovullashi ham eshitilmaydi. Ammo yomg'ir yog'yapti, ezib–ezib yog'yapti. Derazalar bug'lanib, xiralashib qolgan. tashqari ko'rinmaydi. Faqat hovlidagi

lampochkaning o'zi emas, xira dog'i ko'rinadi"¹.

Ikkinchi bo'lim: "Tashqarida sim-sim yomg'irning shitirlashi ham, tarnovning shovullashi ham eshitilmaydi. Ammo yomg'ir yog'yapti. Ezib-ezib kuch yomg'iri yog'yapti. Muallim oyog'ini chalishtirib o'tirgancha, hikoya qilyapti" (311-bet).

Uchinchi bo'lim: "...Tashqarida sim-sim yomg'ir yog'adi. Tomchilarning shitirlashi ham, tarnovning shovullashi ham eshitilmaydi. Ammo yomg'ir yog'yapti. Ezib-ezib kuz yomg'iri yog'yapti. Xonada makaron sho'rva hidi, qiziqqan pypoq isi kezadi. Toshpo'lat siqirab og'riyotgan oyog'ini salab o'tiribdi. Muallim hamon o'sha bo'g'i q ovozda hikoya qiladi" (320-bet).

To'rtinchi bo'lim: "...Tashqarida sim-sim yomg'ir yog'adi. Tomchilarning shitirlashi, tarnovning shovullashi eshitilmaydi. Ammo yomg'ir yog'yapti. Ezib-ezib kuz yomg'iri yog'yapti. Xona ichi yorug', lekin zax. Bolalar jim. Muallimning hikoyasini tinglaydi. Toshpo'latning oyog'i yanayam qattiqroq og'riyapti" (326-bet).

Beshinchi bo'lim: "...Tashqarida hamon yomg'ir yog'adi. Ichkarida bolalar, qizlar o'tirishibdi. Hammasi jimjit. Hamma muallimning gaplarini tinglaydi" (330-bet).

Keyingi ekspozitsiyada: "...Toshpo'lat sirqib og'riyotgan tizzasini uqalab o'tirib, muallimning so'zlariga quloq solarkan, dadasining gaplarini eslaydi. Tashqarida sim-sim yomg'ir yog'adi. Derazalar bug'lanib qolgan, tashqari ko'rinmaydi. Faqat sinyog'och uchidagi lampochkagina olmadek qizarib teribdi. Ichkarida bolalar, qizlar muallimga quloq solib o'tirishibdi" (336-bet).

Oxirgi ekspozitsiyada: "U qancha uxlaganini bilmaydi. Bir mahal g'o'ng'ir-g'o'ng'ir tovushdan uyg'onib ketdi. Anchagacha qayerdaligini bilolmay garangsib yotdi. Nihoyat o'zining joyida—"ikkinchi" qavatda yotganini idrok etdi" (342-bet).

¹ Уткир Хошимов. Сирли юлдуз/Севги киссалари.-Т.: Ўзбекистон, 2013. -Б. 307 (Бундан кейинги иқтибослар шу нашрдан олинади ва бети кавс ичида кўрсатилади)

E'tibor berilsa, har bir ekspozitsiya deyarli bir xil va biroz o'zgarishga ega bo'ladi. Ularning barchasidagi bir xillik yomg'irning "sim-sim" yog'ishida ko'rinadi. Adib tabiatning tund, yorug'lik yo'q manzarasi zahirida jamiyatdagi mavjudlikka ham bir necha bor urg'u beradi. O'sha tund manzarada o'tgan yigit va qizlarning jimligiga ham bir necha bor urg'u berilgan. Bular ham o'ziga xos ramz va ishoradir. Bular orqali yoshlarning ham o'z o'tmishidan bexabar, kelajagi haqida o'ylamayotganligini bildiradi.

So'nggi ekspozitsiyadan tabiat bilan birga jamiyatning timsoli bo'lgan Toshpo'lat ham uyquda ekanligini anglaymiz. Asar yorug'lik timsoli bo'lgan Omonulla Rustamovning tumanlar orasiga singib ketishi bilan yakunlangan.

Agar asardagi barcha ekspozitsiyalarning o'zini ketma-ket qo'ysak, undan bir millatning yomg'irli, zax bosgan, tumanli taqdiri ko'z oldimizga keladi. Ana shu o'rinda O'tkir Hoshimov qissalarida ekspozitsiyaning qanchalar ahamiyatga ega ekanligini bilamiz.

"Qalbingga quloq sol" qissasi ham o'ziga xos kompozitsiyaga ega. Qissa ikki qismga bo'lingan. Birinchi qismda ko'proq Yodgor va Charosning taqdiri hikoya qilinadi. Ikkinchi qismda Dilduza va Rustamning sof muhabbati haqida so'z yuritilgan. Lekin ikkala qismni bog'lab turuvchi rishta bu – Vasila Nazarovnadir. Ushbu qissada asar kompozitsiyasining muhim unsurlaridan bo'lgan ekspozitsiya boshqacha ko'rinishda namoyon bo'ladi. Asarning bir necha o'rnida goh Yodgorning o'tmishi bilan bog'liq tarix, goh Vasila Nazarovnaning o'tmishi bilan bog'liq tarix, gohida Charosning, gohida Dilduzaning o'tmishi bilan bog'liq ekspozitsiyalar ko'zga tashlanib turadi. Masalan, Yodgor tramvayda noma'lum qizni ko'rib qolib, uni qayerda uchratganligini eslashi bilan bog'liq ekspozitsiya, ikki yosh o'rtasidagi ilk muhabbatning belgilarini anglashimizda yordam beradi. Shuningdek, Yodgorning Aziza bilan bog'liq o'tmishi ekspozitsiyasi ham muhim ahamiyatga ega. Unda tasvirlangan yolg'onlar o'qishimiz natijasida, Charosning muhabbati naqadar sofligini anglashimizda alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Charosning Dilshodni nima uchun sevmasligini anglashimiz uchun onasining Dilshod bilan ishlashi, Dilshod onasigagina ma'qul ekanligi,

uning fe'l-atvori bilan bog'liq ekspozitsiyalar qissada Charos va Yodgor muhabbatining muhim qirralarini anglashimizda e'tiborli.

Vasiia Nazarovaning talabalik yillari, Charosning otasi bilan birga kechgan turmushga oid ekspozitsiyalar uning xarakteri shakllanish omillarini o'quvchiga yaxshiroq yetkazishda muhimdir.

Dilfuzaning xatidagi oti "R" harfi bilan boshlanadigan yigitchaning kimligini bilishimizda, Rustamning maktabdagi hayotiga oid ekspozitsiyalar ahamiyatli. Zero, ularsiz ikki yosh sevgisining shakllanish tarixidan bexabar qolamiz.

"Ikki karra ikki-besh"da bu uslub juda ko'p o'rinlarda qo'llangan. Aslida, asarning boshlanishini ekspozitsiya deyish mumkin. Lekin undan keyin tasvirlangan voqealarga nazariy jihatdan qaraganimizda ekspozitsiyadan keyingi ekspozitsiyadek taassurot qoldiradi. Qissa Qo'shoqvoyning kasalxonada doktor bilan suhbatidan boshlanib, ana shu suhbat bilan yakun topgan. Bu holatga qarasangiz, asarning boshi va oxiri o'rtasida Qo'shoqvoy o'zining sog' ekanligini isbotlash uchun butun hayotini ekspozitsiya tarzida hikoya qilib bergan bo'lib chiqadi.

Qissa boblarga bo'linib har bir bob o'sha bobda kechadigan voqealar bayoniga mos tarzda nomlangan. Masalan, ikkinchi bob "Maktabga kirib oldim" deb nomlangan. Bobda Qo'shoqvoyning maktabga borish tarixiga bag'ishlangan. Shu bilan birga maktabdagi muhit, o'qituvchining o'quvchilarga bilim berish yo'lidagi fidoyiligi-yu direktorning bunga befarqligi tasvirlanadi. Qolgan boblar ham ana shunday jihatlarga ega.

Ushbu fasl yuzasidan quyidagicha xulosalarni bildirish mumkin:

1. O'tkir Hoshimov qissalarida asar mazmuni, muallifning badiiy mayllari, voqealar ketma-ketligi, voqealar bayonining qiziqarli qilinishi, personajlarning ichki kechinmalarini yorqinroq ochib berishning muhim omili bo'lgan asar kompozitsiyasiga alohida e'tibor bergan.

2. O'tkir Hoshimovning "Sirli yulduz" qissasida kompozitsiyaning muhim bo'laklaridan biri bo'lgan prolog qo'llangan. "Sirli yulduz"da aslida prologda aytilganidek, faqatgina yoshlar hayotiga bag'ishlanib qolgan asar emas. Unda

sovetlar tuzumida yashayotgan o'zbek xalqining dunyodan ajralib qolgan ma'naviy hayoti tasvirlangan. Prologda aytilgan fikrlar ma'lum ma'noda asarni sho'rolar tuzumi tazyiqlaridan himoya qilish uchun ham bildirilgan. Qissadagi prolog Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlari"dagi qo'llagan uslubga o'xshashdir.

3. O'tkir Hoshimov qissalarida, shuningdek, asar kompozitsiyaning bo'lagi sifatida epigraf ham qo'llangan. Qo'llangan epigrafi o'sha o'rinda ko'proq asarning uslubidan ko'zlangan maqsadni ochib berishga, o'quvchiga tushuntirishga xizmat qilgan.

4. Adib qissalarida qo'llangan yana bir uslub bu — ekspozitsiyadir. O'tkir Hoshimov qissalaridagi ekspozitsiyalarning har biri ma'lum funksiyani bajargan. Ekspozitsiya ayrim qissalarda personajning o'tmishi bilan bog'liq ma'lumotlarni o'quvchi ko'z oldida gavdalandirsa, ayrimlari keyingi bo'lajak voqealarning mohiyatini anglashda o'quvchini ruhiy tayyorlaydi. Shuningdek, ekspozitsiyalar hajman ham turlicha. Ayrim qissalarda kichikroq bo'lsa, ba'zida kattaroq. Bular bilan birga ekspozitsiyalarning qo'llanish darajasi ham turli xil.

3.2. Davr voqeligini tasvirlashdagi qissalar kompozitsiyasining o'ziga xos jihatlari

Ma'lumki, tasvir ruhiyati ijodkor fitratida badiiy konsepsiya sifatida namoyon bo'lishining aniq-hissiy yaxlitlikda uyushadigan ifoda xususiyatlarini dalolatlaydi. Adabiy talqin hamda hayot haqiqati muvozanatini ta'minlaydigan estetik markazda tagma'noga daxldor omillar tagmatnning ichki va tashqi mundarijasini belgilab beradi. Muallif shakl hamda mazmun vobastaligi tizimi — kompozitsiya halqasi asosan ma'no maydoni va formal darajaning o'zaro muvofiqlashuvi — estetik markazda mantiqiy joylashuvi tartibini to'g'ri baholaydi.

"Asarning kompozitsiyasi, dastavval muallifning tasvir etilayotgan hayotiy materialga munosabati bilan tayin etiladi, ya'ni kompozitsiya birinchi navbatda g'oyaviy-estetik kategoriya (tushuncha)dir. Yozuvchi nuqtayi nazarini kompozitsiyaning hal etuvchi elementidir... Hayotda uchragan qanday kishilarni va

nima sababdan tasvir markaziga qo'yishni yozuvchining hayotga qarashi, uning g'oyaviy–estetik nuqtayi nazarini hal etadi"¹.

O'.Hoshimov asarlarining ijtimoiy–ma'naviy mohiyati ham ijodiy–estetik tamoyillarga asoslanadi. Agar A.Qahhor qahramonlari kurashchan sifatlar, keskin tabiati bilan ajralib tursa, O'.Hoshimov asarlarida xarakter tadriji tipik manzaralarga bog'liq holda yoritiladi. Ma'lumki, yozuvchi muvaffaqiyati uning adabiyotga olib kirgan qahramonlari bilan o'lchanadi. Shu jihatdan olib qaraganda Gavhar ("Shamol esaveradi"), Muqaddam ("Bahor qaytmaydi") obrazlari O'tkir Hoshimovning o'ziga xos muvaffaqiyatlaridir. Albatta, obraz biron bir muhim hayotiy ma'noga ega bo'lsa va uslubi–badiiy qimmatni tashisagina adabiyotimizni boyita oladi. Darhaqiqat, adib ijodi ma'naviy–psixologik talqin teranligi, xarakter yaratishning tipik va aniqligi bilan ajralib turadi. O'z–o'zidan ayonki, ijodkorning o'ziga xos uslubi voqelikni badiiy idrok etish, badiiy tafsilot va tasvir vositalaridan foydalanish darajasi orqali namoyon bo'ladi. Zero, adabiy dunyoqarashning shakllanishini, bir tomondan, hayotiy nafosatning hissiy ko'lamini belgilasa, ikkinchi tomondan, falsafiy idrokning badiiyatda namoyon bo'lishi belgilaydi. Shu ma'noda, har bir asar muallif nuqtayi nazarining umumlashgan, aniqlashgan hamda muayyan tizimga solingan shamoyili hisoblanadi. O'tkir Hoshimov badiiy olami bir qarashda rang–barang va murakkabdek taassurot uyg'otadi. Biroq, adib qahramonlari tadrijiga nazar solinsa, ular orasida mantiqiy bog'liqlik, yaxlit kompozitsion tizimning mavjud ekanligi kuzatiladi. Obraz tabiatini ochib berishga yo'naltirilgan badiiy chizgilar asardan asarga teranlashib, mukammallashtirib borishi seziladi. Tasvir va ifodadagi sinchkovlik, xarakter takomilidagi tabiiylik nozik iqtidor egasining adabiy mahoratidan darak beradi. "Dunyoning ishlari" qissasida ona qiyofasining jozibali, hayotiy va mukammallashtirilgan shaklini yaratdi. Adibning avvalgi hikoya va qissalaridan farqli o'laroq mazkur asarda ona timsoli mustaqil qahramon – markaziy chiziqni tashkil etadi. Muallif "Dunyoning ishlari"da ham o'z an'anasiga sodiq qoladi:

¹ Султон И. Адабиёт назарияси. - Т.: Ўқитувчи. 1986. - Б.196.

obraz tabiatini yoritishda ta'rif-tavsiflardan o'zini tiyadi, voqealar tadrijini izchil davom ettirmaydi. Milliy xarakter o'z mohiyatini ba'zan nutqi, ba'zan xatti-harakatlari bilan mantiqan dalillay boradi. Bu holat tafsillar, lirik bo'yoqdorlik hamda falsafiy mushohadakorlik, publitsistik jo'shqinlikning qorishiq tabiati orqali namoyon bo'ladi. Ayni asarda badiiy mantiq uyg'unligining ko'zga tashlanmasligi xotiralar asosiga qurilganligi bilan izohlanadi.

Keyingi yillarda yaratilgan o'zbek qissalarida o'ziga xos muvaffaqiyatli ijodiy urinishlar ko'zga tashlanadi. M.M.Do'stning "Galatepaga qaytish yoxud saodatmand G'aybarov rivoyati" qissasi kompozitsion qurilishi va real voqelik munosabati nuqtayi nazaridan diqqatga molik qissalar sirasiga kiradi. Murod Muhammad Do'st 80-yillarning boshlarida o'zbek qissachiligiga yangi obrazlar olib kirdi. Ular ichida G'aybarov obrazi o'zining mukammalligi bilan ajralib turadi. Yozuvchini otalar va bolalar qarashining o'ziga xosligi, ular o'rtasidagi ziddiyat, zamondoshlarimizning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, davr evrilishlariga bugungi ziyolining munosabati, umuman, bugungi ziyolining ma'naviy qiyofasi muammosi qiziqtiradi va u o'z asari markaziga olim obrazini olib chiqadi. Muallif asar kompozitsiyasiga ko'ra bir qishloq va u orqali butun jamiyatning muayyan manzarasini tiklashga erishadi. Bosh qahramon holati uning xotirasida shunga mos hodisalarni yuzaga keltiradi. Voqelikni chuqur tahlil qilish esa yozuvchiga voqea va qahramonlarni turli rakursdan ko'rsatish imkonini bergan.

O'tkir Hoshimov qissalarida davr voqeligini tasvirlash o'sha muhitdagi har bir detalning o'z o'rnida bo'lishi, o'sha detal asar mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qilishida alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, "Bahor qaytmaydi" qissasida o'sha davr voqeligi, qahramonlar ruhiyatining davr voqeligi bilan bog'liq jihatlarini tasvirlashda qahramonlar yashagan muhitga xos barcha elementlarga e'tibor qaratgan. Aytaylik, Anvarning Muqaddamga bo'lgan sof muhabbati, o'z muhabbatini izhor qilish uchun qulay fursat kutib yuraverishi, turli xil sevgi qissalarini aytish orqali ishora qilishga urinishi, asar yaratilgan davrning ziyolilariga xos bo'lgan fazilat sifatida namoyon bo'ladi. O'z navbatida asar kompozitsiyasiga kiritilgan bu kabi tasvirlar uning dinamikasiga, qiziqarli

bo'lishiga, qahramonlar o'rtasidagi bog'liqni ochib berishga xizmat qilgan. Jumladan, Alimardonning Muqaddam uyiga ukol qo'yaman deb kelganida tajovuz qilishidan keyin, oldin bunday holatga qarshilik qilib turgan Muqaddamning ruhiyatidagi o'zgarish, bo'lib o'tgan voqeaga munosabati tasvirlanadi. Shundan keyingi o'rinda, Anvarlarning Muqaddamga sevgisini izhor qila olmay yurishining biz yuqorida keltirgan kabi holatlari tasvirlanadi. Ana shu ikki tasvir oralig'ida muallif o'z o'rnida Muqaddamning Anvardan kutgan jasoratini Alimardondan ko'rganligi bilan izohlaydi. Ana shu o'rinda asar kompozitsiyasining o'ziga xosligi namoyon bo'ladi. Bu bilan adib Alimardonning kelajagi borasidagi o'quvchilarning tasavvurini shakllantiradi. M.M.Do'stning "Galatepaga qaytish yoxud saodatmand G'aybarov rivoyati" qissasidagidek Muqaddam ruhiyatidagi kechinmalarni turli rakursdan turib ochib bergan.

Kompozitsiya ham shakl, ham mazmunga tegishli hodisa bo'lib, u bu ikki hodisaning uzviy birligi sifatida maydonga keladi. Kompozitsiya, barcha adabiy-badiiy asarlarda bo'lgani kabi, qissa janrida ham alohida o'rin egallaydi. Ichkil kompozitsiya qissaning muvaffaqiyatli chiqishi uchun zamin hozirlaydi. Kompozitsiya asarning markaziy o'qi vazifasini o'taydi. Sujet, ekspozitsiya, tugun, yechim ana shu markaziy o'q atrofida izchillik bilan joylashadi. Natijada asarning kompozitsion yaxlitligi vujudga keladi.

Adibning "Ikki karra ikki – besh" qissasi davr voqeligini tasvirlashdagi kompozitsion pishiqligi bilan e'tiborga molik. Asar oldingi fasslarda qayd qilganimizdek, sovetlar tuzumi voqeligini anglashimizda muhim. Jumladan, asar maktab o'qituvchisining o'quvchilar bilimining pastligiga bamaylixotir qarashi, raykom sekretarlaridan biri rus millatiga mansub bo'lishi, paxta terimi paytida har qanday ishning yig'ishtirib qo'yilib, hammaning terimga safarbar qilishini kabilar epizodlar davr voqeligini to'laqonli tasvirlashda zaruriy detallar sifatida asar tarkibiga olib kiritilgan.

Shuningdek, "Ikki karra ikki-besh" qissasining har bir bobi alohida nomlanganligini aytib o'tgan edik. Ana shu har bir bor alohida sujet-mazmunga ham ega. Ularning ayrimlarini boshqalaridan ajratib olganda ham ma'nodagi

uzilish yuzaga kelmaydi. O'z navbatida mazkur boblarning har biridagi ekspozitsiya, tugun, yechim ana shu markaziy o'q atrofida izchillik bilan joylashadi. Masalan, "Zaprojes"dan tug'ilgan "Volga" bobi: "Yettini bitirib ta'tilga chiqishimiz bilan chopiqqa tushdik. Ertalabdan g'o'za chopiq qilaverib qornim tatalab ketdi. Tulporim tushlik bo'lganini mendan yaxshi biladi. Avval meni maktabga izlab borardi. Endi dalagayam topib kepti. Paykal chetiga kelib bir hangragan edi, bahona topilganga suyunib, o'sha tomonga yugurdim"¹ degan ekspozitsiya bilan boshlangan. Shundan keyin Qo'shoqvoy eshagini minib uyiga tushlik uchun jo'naydi. Uyiga kelganda eshigi oldida "Zaprojes" mashinasini ko'radi. Oldin tog'am kelibdimi deb o'ylaydi. Tog'asining mashinasi "Moskvich" ekanligi esiga tushadi. Shunda mashinaning eshigidan oyog'ini osiltirib turgan Shodivoyini ko'radi. Ana shu o'rinda asarning tuguni yuzaga keladi. Ikki o'rtoq mashinaga minib aylanib kelish uchun yo'lga tushishadi. Yo'ldagi turli xil poygalardan so'ng Shodivoy mashinani kolxoz fermasida yig'ib qo'yilgan pichanning ichiga burib yuboradi. O'sha holatda Shodivoyning otasi kelib qoladi. Ferma mudiri voqeani yashirmoqchi bo'lib turganda sir fosh bo'lib qoladi. Pichan ichiga kirib ketgan "Zaprojes"ni tortib olamiz deyishganda, uning o'miga "Volga" mashinasi chiqadi. Ana shu o'rinda kichik hikoyaning tuguni ochiladi. Ferma mudirining pichan ichiga yashirib qo'ygan "Volga" mashinasi kutilmaganda chiqib qoladi. Hikoya yakunidagi yechim natijasida unga nima uchun "Zaparojets"dan tug'ilgan "Volga" deb nom qo'yilganligini tushunib olamiz. Umuman olganda ushbu qissadagi har bir bob ana shunday o'ziga xos kompozitsiyaga ega.

Bular bilan birga personajlar nutqining ham davr voqeligini ifodalashdagi o'miga e'tibor qaratilgan. Masalan, Shodivoyning otasi garchi kolxozning raisi bo'lsa ham dunyoqarashi, bilim saviyasi past kishi. Shu bois rus tilidagi so'zlarni chala-chulpa ishlatish orqali bu kamchilikni yashirishga harakat qiladi. Qissadagi mazkur keltirilganlar o'z o'rnida davr ruhini ham voqealar tasviri, ham personajlarning nutqi orqali ham ochib berilganligini bildiradi. Bular bilan bir

¹ Уткир Ҳошимов. Икки қарра икки – беш/. Аждаҳонинг талвасаси. –Т.: О'zbekiston. 2012. –Б.38.

qatorda ular asardagi kompozitsion joylashuviga qarab, ma'lum vazifani ham bajargan. Qayd qilganimiz raisning shahardagi rus tilini chala-chulpa ishlatish orqali o'zining bilimsizligini yashirishga urinishi, uning qishloqdagi sharoitida ishlatilganda asar kompozitsiyasiga putur yetkazgan bo'lardi.

“O'tkir Hoshimov–ko'p, betakror adabiy qahramonlar yaratgan yozuvchi. Uning har bir asari, qahramonlari haqida atroflicha gapirish mumkin...“Dunyoning ishlari”–o'ta tiniq tasvirlangan manzara, kishilar qiyofasi, rang–barang tiynatlardir. XX asrning 40–70 yillaridagi Toshkent mavzalarining ishonarli holati, kishilar tabiati “Dunyoning ishlari”dagiday ishonarli, pishiq tasvirlangan asar kam. O'tkir Hoshimovning iste'dodsiz, shunchaki yozilgan asarlari yo'q. Uning barcha asarlarida qo'r, harorat bor. Lekin “Dunyoning ishlari poetikasini alohida, sinchkovlik bilan o'rganish zarur”¹.

Binobarin, yozuvchi nuqtayi nazari, hayotiy materialga ijodiy munosabati, bayon usuli o'ziga xosligi, bo'laklarni estetik markazga yig'ish va o'rni–o'rniga joylashtirish mazkur atamaning murakkab va keng qamrovga egaligini mantiqan dalillaydi.

O'.Hoshimov umumiy g'oyaga bog'langan voqealar tizimini rivojlantiradigan manzara, holat, tafsilotlarning xarakterli jihatlarini tanlaydi hamda hayotiy materialga aylantiradi. Shu tariqa badiiy ong ijodning estetik markaz nuqtalarini birlashtiradi. Muallifning qator qissalarida nutqiy polifonizm hodisasi quyidagi qirralarda namoyon bo'ladi:

–nutqiy malaka jonli, hayotiy robitani aniqlashtirib, real muhitni estetik nuqtayi nazardan baholashga yordam beradi;

–nutq turkumlari va guruhlanishi asar ijodiy yaxlitligini ta'minlaydigan muhim omillardan biri bo'lib, psixologik ziddiyatlar falsafiy umumlashmada ayonlashadigan «g'oyaviy yuk»ni gavdalantiradi;

¹Расулов А. Атокли ва ардокли адиб. // Ў.Ҳошимов. Сайланма. Икки жилдлик.2-жилд. Ҳадибли тушлар.–Г.Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 2002.–Б.389-392

–monolog va dialoglar hayotning mazmunini hayotiy shakllarda ifodalashning samarali vositasidir. Negaki, muallif talqini qahramon bayonida soddalikka, tabiiylikka, jonlilikka erishadi;

–nutqiy material xarakter mohiyatini izohlash, muayyan g'oyani talqin etish, ong, saviya murakkablashishi jarayonini tavsiflash singari vazifalarini bajaradi;

–nasrda polifonizm hodisasi ko'p qatlamlilik, teng huquqlilik hamda ovoz rang–barangligini bildiradi.

“Dunyoning ishlari” qissasida Ismoil mo'ylov, Sepkilli xola, Zebi xola, Bashorat opa, Acha xola, Amma, Risolat opa, Afzalxon aka, Egamberdi cho'loq, Abdujabbor usta, habiba buvi, Hoji buvi, Vali Toy, uning onasi, Xo'ja, Niso xola, Orif, Huri savdogar, Keliyoyi, ko'plab mayda–yirik personajlar bor. O'tkir Hoshimov yozuvchilik sirlaridan birini oshkor qilgan: ijodkor asarga qancha ko'p personaj kiritisa, ularning har biriga ish–“g'oyaviy yuk” topib berishi, xarakteridagi betakror o'zakni aniq ko'rsatishi shart. Shuning uchun ko'pchilik yozuvchilar qahramonlar sonini kamaytirishni, bolajon o'zbek oilasida bittagina bola tarbiyalanayotganini ko'rsatib qo'ya qolishni ma'qul ko'radi. Ammo “Dunyoning ishlari” qissasida xalqni, mahalla ahlini keng tasvirlash zarurati bor edi: Poshsha ona xakteri ko'pchilik orasida ochiladi, uning tabiatida odamoxunlik bor”¹. Bular bilan birga mazkur personajlar asarda yaxlit kompozitsion tizimning ajralmas bo'lagi bo'lib xizmat qilgan.

Ushbu fasl yuzasidan quyidagicha xulosalarga kelindi:

1. O'.Hoshimov asarlarida kompozitsion yaxlitlikni ta'minlash uchun obrazlar tasvirida ijtimoiy–ma'naviy mohiyati ham ijodiy–estetik tamoyillarga asoslanishi bilan Abdulla Qahhor uslubidan farq qiladi. U xarakterlar dinamikasini voqelikka bog'liq holda yoritadi. Buni biz Gavhar (“Shamol esaveradi”), Muqaddam (“Bahor qaytmaydi”) obrazlari obrazlari dinamikasida ko'rishimiz mumkin.

2. Adibning “Bahor qaytmaydi” qissasidagi Muqaddam obrazidagi ruhiy o'zgarishlarni tasvirlash uchun qo'llangan ko'p rakurslilik M.M.Do'stning

¹Расулов.А. Атокли ва ардокли адиб. // Ҳошимов Ў. Ҳаликли тушлар. 2 жилдлик. 2–жилд. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 2002. –Б.392-395

“Galatepaga qaytish yoxud saodatmand Gʻaybarov rivoyati” qissasida Gʻaybarovning xarakterini ochib berish uchun qoʻllangan koʻp rakurslilikka yaqin turadi.

3. “Ikki karra ikki – besh” qissasining har bir bobi alohida nomlanib, bu nomlanish oʻsha bobning ekspozitsiyasi, tuguni va yechimida oʻz aksini topganligi bilan davr voqeligini ifodalashda oʻziga xos jihatga ega. Shuningdek, asar kompozitsiyasida personajlarning xarakter chizgilari, personajlarning asardagi epizodik chiqishlari ham muhim ahamiyatga ega.

4. Oʻ.Hoshimov umumiy gʻoyaga bogʻlangan voqealar tizimini rivojlantiradigan manzara, holat, tafsilotlarning xarakterli jihatlarini tanlaydi hamda hayotiy materialga aylantiradi. Shu tariqa badiiy ong ijodning estetik markaz nuqtalarini birlashtiradi.

3.3. OʻTKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLARI” QISSASINI 5– SINFDA OʻRGANISH

Adabiyot oʻqitilishi jarayonini tadqiq etishning jamiyat uchun ahamiyati bormi? Maʼlumki, adabiyot–bu soʻz sanʼati. Binobarin, sanʼatni qoliplarga moslashtirish uning taraqqiyotiga toʻsiq boʻlishi mumkin. Bu hodisaning har qanday holatga ham tatbiq qilish mumkin universal jihati unchalar koʻp boʻlmaydi. Agar shunday jihat boʻlsa, adabiyot oʻz mohiyatini yoʻqotar edi. Lekin adabiyot oʻqitish jarayoni adabiyotning oʻzi bilan bir narsa emas. Toʻgʻri, adabiyot–sanʼat. Ammo adabiyotni oʻqitish jarayoni adabiyotning oʻzidan farq qiladi. Bu jarayonning qonuniyatlarini kashf etish, universal jihatlarini topish mumkin.

Adabiyot oʻqitishdagi eng ilgʻor tajribalarni, deyarli barcha darslarda qoʻllaniladigan universal qonuniyatlarni kashf etmay turib, yoshlarga adabiy tarbiya berish haqida gapirish ham ortiqcha.

Adabiyot oʻqitish samaradorligini oshirish yuzasidan beriladigan tavsiyalar retsept yoʻnalishida, bir marta oʻrganib olib umr boʻyi qoʻllayveradigan axborot sifatida emas, balki konseptual tabiatga ega boʻlib, har qanday masala yechimining turli variantlari boʻlishi mumkinligi koʻzda tutiladi.

Badiiy adabiyot o'z holicha inson hayotiga bevosita kerak emasday bo'lib tuyulsada, amalda insonning odamlilik martabasiga yuksalishi uchun xizmat qiladigan ma'naviy sifatlarning shakllantirishida muhim o'rin tutadi. Chunki badiiy adabiyotda inson ruhiyati aks etadi. Binobarin, o'z ahlida ezgu ruhiy sifatlarni qaror topdirmoqchi bo'lgan millat ta'lim muassasalarida adabiyot o'qitishni imkon qadar samarador yo'sinda tashkil qilishga e'tibor qaratadi. Negaki, adabiyot yordamida bilvosita shakllantirilgan ma'naviy sifatlarni inson ruhiyatining ezgu bo'lishiga olib keladi. Ezgu ma'naviy fazilatlar esa, shaxs takomilining, binobarin, jamiyat taraqqiyotining omilidir.

Ta'limning gumanitarlashishi, o'quv-tarbiya ishlarining gumanizatsiyalashuvi, ta'limning differensiallashuvi, predmetlarning integratsiyalashuvi, o'qitish saviyasining ham adabiyotshunoslik va pedagogika ilmining hozirgi darajasiga ko'tariluvini adabiy ta'limga tamomila o'zgacha yondashish zaruriyatini tug'diradi.

"Dunyoning ishlari" asaridan olingan parchalar bilan o'quvchilar 5-sinfda tanishadilar. Asarning shirali tili, jozibali ifodasi va ona timsolining samimiy tasviri tarbiyalanuvchilar ruhiyatida iz qoldirmasligi mumkin emas. Darsning boshida o'qituvchi o'quvchilarga buni eslatsa, adib va uning asari haqida bilganlarini gapirib berishni so'rasa, o'quvchilar bir-birlariga so'z bermay o'z fikrlarini o'rta tashlashlari, ruhan bugungi hikoyadan ham o'shanday lazzatni tuyishga tashnalikni his qilishlari tabiiy. Buni ular ko'pda ilg'amasalar-da, o'qituvchi o'z "hamkor"larining shu holatga tushganini payqagan zahoti pedagogik "hujum"ni boshlashi maqsadga muvofiq bo'ladi. Biz quyida shu mavzu dars ishlanmasini tavsiya etamiz.

Darsning mavzusi: O'tkir Hoshimovning hayoti va ijodi. "Dunyoning ishlari" asari.

Darsning maqsadi. O'quvchilarga O'tkir Hoshimovning hayoti va ijodi bilan tanishtirish hamda "Dunyoning ishlari" asarining mohiyatini o'rganish.


Dars jarayonida quyidagi vazifalar bajariladi:

1. O'quvchilarga O'tkir Hoshimovning hayoti va ijodiga oid bilimlarni berish.


2. O'quvchilarga "Dunyoning ishlari" asarining mazmuni bilan tanishtirish.
3. O'quvchilar tomonidan asarning mazmuni va mohiyatining chuqur o'zlashtirilishini ta'minlash.
4. O'quvchilarda onalarning buyuk zot ekanliklari to'g'risidagi tushunchani qaror toptirish.
5. O'quvchilarda onalarga nisbatan cheksiz hurmatni uyg'otish.

Dars jihozi: O'tkir Hoshimovning portreti:

Adib qissalari xususida ma'lumot beruvchi jadval:



"Dunyoning ishlari" asarining nusxasi:



Dars jarayonida qo'llaniluvchi texnologiyalar: suhbat, savol-javob, "5x5", "3\3", "Tafakkur cho'qqisi".

Darsning rejasi:

O'tkir Hoshimov–zamonaviy o'zbek adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri.

"Dunyoning ishlari" qissasining asosiy g'oyasi.

Asarda onalarga xos bo'lgan fazilatlarining yoritilishi.

Darsning borishi:

1. "4x8x4x8" texnologiyasi yordamida bilimlarni o'zlashtirish.

Sinf o'quvchilari 4 nafardan bo'lib 8 ta guruhga bo'linadi. Mavzuning umumiy matni 8 qismga bo'linib, har bir guruhga bitta qism beriladi va matnni o'rganib chiqish vazifasi topshiriladi.

Guruhlarga darslik matnining quyidagi qismlari tavsiya etiladi:

1–guruhga–O'tkir Hoshimovning hayoti va faoliyatiga oid qism.

2–guruhga–asarning "Oq, oydin kechalar" nomli bandi.

3–guruhga–asarning "Tush" nomli bandi.

4–guruhga–asarning "Gilam paypoq" nomi bandining 1–yarmi.

5–guruhga–asarning "Gilam paypoq" nomi bandining 2–yarmi.

6–guruhga–asarning "Alla" nomli bandining 1–yarmi.

7–guruhga–asarning "Alla" nomli bandining 2–yarmi.

8–guruhga–asarning "Iltijo" nomli bandi.

"Dunyoning ishlari"da yozuvchining hayotiy falsafiy
qarashlarining ifodalanishi





Matn guruhlar tomonidan o'rganilgandan so'ng, guruhlar qayta tashkil etiladi (bu o'rinda har bir guruhda avvalgi beshta guruhning bir nafar a'zosi bo'lishi shart). Guruhlar qayta tashkil etilgandan so'ng har bir o'quvchi o'zi o'zlashtirgan ma'lumotlarni guruhdoshlariga hikoya qilib beradi. Shu tarzda mavzuning umumiy matni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan..

II. Savol-javoblar va FSMU texnologiyasi asosida suhbat tashkil etish. O'quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. O'. Hoshimovning hayoti haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Yozuvchining qanday mashhur asarlari bor?
3. Adib tomonidan qanday qissalar yaratilgan?
4. Yozuvchi qissalarining mavzu yo'nalishi qanday?
5. "Dunyoning ishlari" asari qanday janrda yozilgan?
4. Asarning asosiy qahramonlari kimlar?
5. Asarda onalarga xos bo'lgan qanday fazilatlar ifoda etilgan?

6. "Bahor qaytmaydi"da Alimardon obrazi orqali yozuvchi qanday fikrni ilgari surgan?

7. "Qalbingga quloq sol" qissasidagi Vasila Nazarovna obrazida qanday kishilarga xos xislatlar umumlashtirilgan?

8. "Cho'l havosi" qissasida yozuvchi qanday kompozitsiya usulidan foydalangan?

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o'rgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Savol	O'.Hoshimov qissalarining o'zbek adabiyotida tugan o'rini belgilang.
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab Ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

2-guruh

Savol	O'.Hoshimov qissalarining xalqchilligi nimalar bilan belgilanadi?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab Ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

“Qora quti” texnologiyasi yordamida o‘zlashtirilgan tushunchalarni mustahkamlash. Texnologiya asosida quyidagi harakatlar tashkil etiladi: o‘quvchilar juftlikka birikadi va ularga adib O‘tkir Hoshimovning hayoti haqida ma‘lumot beradigan tushunchalarni kartochkalarga qayd etish vazifasi yuklanadi. O‘qituvchi topshiriqning guruhlar tomonidan qanday bajarilganligini tekshiradi, uni to‘g‘ri bajargan juftlikning bir a‘zosi o‘qituvchi rolini bajaradi va yozuv taxtasiga quyidagi tarixiy sanalarni yozadi: 1941 yil, Toshkent shahri, Do‘mbirobod mahallasi, O‘zbekiston xalq yozuvchisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining deputati.

So‘ngra o‘quvchilardan bu tushunchalar nimani anglatishini so‘raydi, to‘g‘ri javob bera olgan o‘quvchi “O‘qituvchi” rolini ijro etadi. Navbatdagi bosqichda o‘quvchilardan adib tomonidan yaratilgan oltita asarning nomini kartochkalarga yozish so‘raladi. “O‘qituvchi” rolini bajarayotgan o‘quvchi o‘qituvchi yordamida topshiriqning juftliklar qanday bajarganini tekshiradi va yozuv taxtasiga quyidagi tushunchalarni yozadi: “Cho‘l havosi”, “Sirli yulduz”, “Qalbingga quloq sol”, “Bahor qaytmaydi”, “Dunyoning ishlari”, “Ikki karra ikki-besh!”. “O‘qituvchi” rolidagi o‘quvchi tengdoshlaridan ma‘nosini so‘raydi.

IV. “Insert” usuli yordamida o‘zlashtirilgan tushunchalarni mustahkamlash. Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

1. Ma‘ruza matnini o‘qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo‘yib chiqing:

V – bilaman

+ – men uchun yangi ma‘lumot

– – men bilgan ma‘lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo‘shimcha ma‘lumot.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

Mavzu savollari	V	-	+	?
1. Hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirishda yozuvchining mahorati nimalarda ko'rinadi?				
2. Yozuvchi g'oyasini ochishda badiiy detalning o'rni qanday?				
3. Yozuvchi Ona siymosini qaysi asarlarida aks ettirgan?				
4. "Dunyoning ishlari" qissasining yozuvchi ijodiy faoliyatini o'rganishdagi ahamiyati nimada?				
5. Yozuvchi qissalarining ijtimoiy ahamiyati nimalar bilan belgilanadi?				

V. "3\3" texnologiyasi yordamida o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash.

O'quvchilarga quyidagi vazifani bajarish topshiriladi: berilgan tushunchalar ro'yxatidan O'.Hoshimov tomonidan yaratilmagan asar nomini aniqlang va ularni ro'yxatdan chiqaring, harakatlaringiz mohiyatini izohlang!

Tushunchalar: "Jannat qidirganlar", "Shum bola", "Ufq", "Bahor qaytmaydi", "Dunyoning ishlari", "Ikki karra ikki-besh!".

V. "Tafakkur cho'qqisi" texnologiyasi yordamida o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash.

O'quvchilarga mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlashni talab etuvchi quyidagi savollar beriladi:

Sizlar qanday fikrdasizlar: nima uchun asar "Dunyoning ishlari" deb nomlangan?

Sizlarning fikringizcha, bolaning tushida o'z onasining chiroq ko'tarib yurganini ko'rishi nimani anglatadi?

Aytinglar—chi, allaning qudrati nimada?

Adibning "...dunyodagi hamma onalar yaxshi!" degan so'zlarining ma'nosini qanday izohlaysizlar?

XULOSA

O'tkir Hoshimov o'zbek qissachiligini dunyo miqyosda e'tirof etilishi, uning yangi mavzu, uslublar bilan boyishdagi xizmatlari bilan o'zbek adabiyoti tarixida alohida mavqega ega ijodkordir.

Chunonchi, birinchi yirik nasriy asari – “Cho'l havosi”, “Odamlar nima derkin”, “Shamol esaveradi”, “Qalbingga quloq sol” qissalari e'lon qilingan. “Bahor qaytmaydi”, “Dunyoning ishlari” qissalarida sovetlar tuzumi davrida siyosiy tizimga xizmat qiladigan asarlardan farqli tarzda inson omili, uning jamiyatdagi o'rni, jamiyat va inson, inson ruhiyatiga davrning, muhitning, voqelikning ta'siri kabi masalalarni ko'rsatib chiqqanligi bilan yangilik sifatida e'tirof etildi. Shuningdek, adib salafllari an'analari, o'zbek adabiyotida shakllangan qissanavislikning turli qirralaridan foydalangan holda asarining ta'sir kuchi, o'zi ko'zlagan g'oyani ochib berishga yo'naltirish uchun qo'llagan badiiyat vositalari ham e'tiborga molik hodisadir. O'tkir Hoshimovning har bir qissasi o'ziga xos badiiyat, kompozitsion tuzilishi va yo'nalishga ega. Ularning hech biri bir xil yo'nalishda yaratilmagan. Adib qissalaridagi g'oyani yaxlit tarzda olganimizda ularda inson ruhiyati, uning kamoloti, xalq taqdiri, uning ma'naviyati kabi muhim masalalar o'rta tashlanganligi namoyon bo'ladi. Qissalarida qo'llangan xilma-xil kompozitsion usullar o'sha asar mazmun-mohiyatini ochishga xizmat qilgan.

Tadqiqot yuzasidan quyidagicha xulosalar bildirish mumkin:

1. Qissaga xos asosiy xususiyat uning markazida turgan obrazlar va ko'tarilayotgan muammo qamrovining ma'lum qolipga asoslanishi bilan unga yondosh bo'lgan nasriy asarlardan farqlanadi.
2. Hozirgi zamon o'zbek qissachiligi tarixi eng qadimgi toshbitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalari kabilarga borib taqaladi. Zamonaviy o'zbek qissachiligining taraqqiyotida Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Qodiriy, M.Shermuhamedov, S.Ayniy kabi ijodkorning har birining o'z o'rni bor. Bular bilan birga G'.G'ulom, A.Qahhor, A.Muxtor, O.Yoqubov, P.Qodirov.

Oʻ.Hoshimov kabi ijodkorlarning hozirgi zamon oʻzbek qissachiligining mavzu va badiiyat jihatdan tamomillashuvida xizmatlari beqiyos.

3. Oʻzbek qissalarini tarixiy taraqqiyot belgilariga koʻra mumtoz va realistik qissalar turkumiga boʻlish mumkin. Realistik qissalar tabiatiga koʻra avtobiografik, tarixiy, fantastik, memuar yoki xotira, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-maishiy, sarguzasht, sayohatnoma, detektiv, razvedkachilar hayotiga oid turlardan tashkil topadi. Shuningdek, mumtoz qissalar tabiatiga koʻra, diniy-tarixiy va diniy-maʼrifiy, ishqiy qissalardan iborat. Bular bilan birga qissalar bayon uslubiga koʻra, anʼanaviy va noanʼanaviy uslublarga boʻlinadi. Anʼanaviy uslubdagi qissalarga bir-biriga yaqin qissalarni kiritsak, noanʼanaviy uslubdagi qissalar qatoriga bir nechta uslublarning qorishigʻidan tashkil topgan qissalarni kiritish mumkin.
4. Oʻtkir Hoshimov oʻzbek adabiyotida prozaik sifatida maʼlum. U prozaning koʻplab janrlarida ijod qilib, ellikdan ortiq asar yaratgan. Yaxlit tarzda olganda adib qissalari uning ijod mahsulining bir boʻlagi boʻlsa, alohida olganda adibning qissalari yirik hajmdagi prozaik asarlarining yaratilishida ijodiy laboratoriya boʻlib xizmat qilgan.
5. Oʻtkir Hoshimovning ilk qissalari oʻtgan asrning 60–yillarida siyosiy taʼqiqlarga qaramay adabiyotimizga yangicha ruh, yangicha badiiy tafakkur tarzini olib kirgan va adabiyotimizda burilish yasagan asarlar sifatida eʼtiborli. Qissalari uning ijodining avvalida dunyo yuzini koʻrganligi bois, ularda dadil aytilgan fikrlar asosida ayna oʻsha vaqtda uning millati, xalqi va vatanini sevuvchi, jamiyatda roʻy berayotgan voqealarga faol munosabatini bildirgan oluvchi dadil ijodkor sifatida shaxsiyatini anglashda muhim ahamiyat kasb etgan.
6. Oʻtkir Hoshimov qissalaridagi ona obrazi eng avvalo adibning adabiy va estetik mayllarining ifodachisi sifatida namoyon boʻladi; ona obrazi adibning har bir qissasida qissani yozishdan koʻzlagan maqsadiga koʻra, epizodik yoki bosh qahramon darajasida namoyon boʻlib turadi. Ana shu nuqtayi nazardan Oʻtkir Hoshimov zamonaviy oʻzbek qissanavisligida ona

obrazining turli qirralarini ochib bera olgan; “Bahor qaytmaydi”, “Cho‘l havosi”, “Ikki karra ikki – besh” kabi qissalardagi ona obrazi o‘zbek onalarining barcha davrlardagi qiyofasini ko‘rsatsa, “Qalbingga quloq sol” qissasidagi Vasila Nazarovna sho‘rolar davrining hissiyotdan begonalashgan, shafqatsiz onalarining tipik vakili sifatida gavdalanadi.

7. O‘tkir Hoshimov ilk qissalaridanoq inson ruhiyati tasviri badiiy adabiyotning bosh mezonini ekanligiga ahamiyat bergan. Buni biz uning “Cho‘l havosi” qissasi misolida ko‘rishimiz mumkin. Bu jihatlar adib tomonidan “Bahor qaytmaydi” va “Sirli yulduz” qissalarida davom ettirilgan.

8. O‘tkir Hoshimovning “Sirli yulduz” qissasi sovetlar tuzumi davridagi ma‘naviy tushkunlik mavzularini yoritishga qaratilgan nihoyatda serqatlam qissasidir. Qissasida yozuvchi jamiyatdagi ma‘naviy tushkunlikni tabiatdagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda ramzlar orqali ifodalagan.

9. O‘tkir Hoshimov qissalarida asar mazmuni, muallifning badiiy ifodali mayllari, voqealar ketma-ketligi, voqealar bayonining qiziqarli qilinishi, personajlarning ichki kechinmalarini yorqinroq ochib berishning muhim omili bo‘lgan asar kompozitsiyasiga alohida e‘tibor bergan.

10. O‘tkir Hoshimovning “Sirli yulduz” qissasida kompozitsiyaning muhim bo‘laklaridan biri bo‘lgan prolog qo‘llangan. “Sirli yulduz”da aslida prologda aytilganidek, faqatgina yoshlar hayotiga bag‘ishlanib qolgan asar emas. Unda sovetlar tuzumida yashayotgan o‘zbek xalqining dunyodan ajralib qolgan ma‘naviy hayoti tasvirlangan. Prologda aytilgan fikrlar ma‘lum ma‘noda asarni sho‘rolar tuzumi tazyiqlaridan himoya qilish uchun ham bildirilgan. Qissadagi prolog Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlari”dagi qo‘llagan uslubga o‘xshashdir.

11. O‘tkir Hoshimov qissalarida, shuningdek, asar kompozitsiyaning bo‘lagi sifatida epigraf ham qo‘llangan. Qo‘llangan epigrafi o‘sha o‘rinda ko‘proq asarning uslubidan ko‘zlangan maqsadni ochib berishga, o‘quvchiga tushuntirishga xizmat qilgan.

12. Adib qissalarida eng ko'p qo'llangan badiiy uslub bu – ekspozitsiyadir. O'tkir Hoshimov qissalaridagi ekspozitsiyalarning har biri ma'lum funksiyani bajargan. Ekspozitsiya ayrim qissalarda personajning o'tmishi bilan bog'liq ma'lumotlarni o'quvchi ko'z oldida gavdalantirsa, ayrimlari keyingi bo'lajak voqealarning mohiyatini anglashda o'quvchini ruhiy tayyorlaydi. Shuningdek, ekspozitsiyalar hajman ham turlicha. Ayrim qissalarda kichikroq bo'lsa, ba'zida kattaroq. Bular bilan birga ekspozitsiyalarning qo'llanish darajasi ham turli xil.
13. O'.Hoshimov asarlarida kompozitsion yaxlitlikni ta'minlash uchun obrazlar tasvirida ijtimoiy–ma'naviy mohiyati va ijodiy–estetik tamoyillarga asoslanishi bilan Abdulla Qahhor uslubidan farq qilsa, ko'p rakurslilikda M.M.Do'stning uslubiga yaqin turadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

Siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И. А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор.– Т.: Ўзбекистон, 2009.– 40 б.
2. Каримов И. А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. –Т.: Ўзбекистон, 1995.–276 б.
3. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т.: Шарқ, 1998.–31 б.
4. Каримов И. А. Юксак маънавият– енгилмас куч.– Т.: Маънавият, 2008. – 176 б.
5. Каримов И. А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. –Т.: Ўзбекистон, 1997.–384 б.

Ilmiy–nazariy adabiyotlar:

6. Аббасов А. Ўзбек повести. –Т.: Фан, 1973.–88 б
7. Адабий турлар ва жанрлар. 3 жилдлик. 1 жилд. Эпос.–Т.: Фан, 1991.– 264 б.
8. Болтабоев Ҳ. Наср ва услуб. Услуб муаммосига назарий нигоҳ ва ҳозирги ўзбек насрида услубий изланишлар.–Т.: Фан, 1992.–105 б.
9. Белинский И. Танланган асарлар: рус тилидан таржима.–Т.: Ўз.дав.нашр. 1995. –384б.
10. Давронова Ш. Адабий жараён ва ёзувчининг ижодий индивидуаллиги.–Т.: Фан, 2008.–127 б
11. Зуннунов А., Ҳотамов Н., Иброҳимов А.,Эсонов Ж. Адабиёт ўқитиш методикаси.– Т.: Ўқитувчи, 1992.
12. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий–назарий асослари.– Т.: Ўқитувчи, 1996.–152 б.
13. Йўлдошев Қ. Адабий сабоқлар. 7–синф адабиёт дарслиги учун методик қўлланма. –Т.: Билим нашриёти. 2003.–144 б.
14. Йўлдошев Ж, Йўлдошева Ф., Йўлдошева Г. Интерфаол таълим – сифат кафолати. (Болага дўстона муносабатдаги таълим). –Т.: 2008.–151 б.

15. Каримов Ҳ. Ўткир Ҳошимов. Адабий портрет.– Т.: Янги аср авлод, нашриёти, 2001. –
16. Каримов Ҳ. Жанрми ёки услуб.– Т.: Фан, 1991.–56 б
17. Каримов Ҳ. Давр ва инсон.–Т.: Фан, 1992.–128 б
18. Мамажонов С. Услуб жилолари. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1992.–219 б
19. Махмудов М. Ҳайрат ва тафаккур. Адабий танкидий мақолалар.–Т.: Адабиёт ва санъат, 1990.–192 б
20. Махмудов М. Талант ва ижод фалсафаси.–Т.: Адабиёт ва санъат, 1976. –283 б
21. Мирзаев И. Тафаккур ва наср. – Самарканд: Зарафшон, 1993.–192 б.
22. Мирзаев С., Шермухамедов С. Ҳозирги замон ўзбек адабиёти тарихи. –Т.: Фан, 1993
23. Мирвалиев С. Ўзбек романи. –Т.: Фан, 1969.–313 б
24. Мирвалиев С. Наср, давр, қаҳрамон. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1983.–240 б
25. Муҳиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали.– Т.: Маънавият, 2005. –206 б.
26. Норматов У. Янги ўзбек адабиёти. – Т.: Университет, 2007.–170 б
27. Норматов У. Насримиз анъаналари. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1978. –215 б
28. Норматов У. Гузаллик билан учрашув.–Т.: Ёш гвардия, 1976.–230 б.
29. Норматов У. Етуклик. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982.–360 б.
30. Носиров У. Образларда услуб жилолари. –Т.: Фан, 1991.–196 б.
31. Отаули. Сўз санъатидан сабоқлар. –Т.: Mumtoz soʻz, 2012.–296 б.
32. Расулов А. Танкид, талкин, баҳолаш.–Т.: Фан, 2006.–232 б
33. Расулов А. Ардокли адиб (Ў.Ҳошимов ҳаёти ва ижодига қизғилар). – Т.: Шарк нашриёт– матбаа концерни, 2001.
34. Расулов А.Янги замон янги қаҳрамон. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1978. –136 б

35. Рашидов А. Ўзбек киссаларида меҳнат тасвири. –Т.: Фан, 1990.–177 б.
36. Султон И. Адабиёт назарияси. –Т.: Ўқитувчи, 1980.–248 б.
37. Султон И. Ҳаёт, адабиёт ва маҳорат. Асарлар 4 жилдлик, 2–жилд. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.– 422 б.
38. Султонова М. Ёзувчи услубига доир (Ойбек, А. Қодирий, А. Каххор, С. Аҳмад прозаси асосида).– Т.: Фан, 1973.–116 б.
39. То‘хлиев.В. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma.–Т.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2012.–167 б.
40. То‘хлиев.В. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari. O‘quv qo‘llanma.–Т.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2012 yil.– 142 б.
41. Улугов А. Киссачилигимиз кирралари. –Т.: Ўқитувчи, 1991.– 136 б.
42. Умутов Х. Бадий ижод асослари. – Т.: Ўзбекистон. 2001.–120 б.
43. Умутов Х. Бадий ижод мўъжизалари: Адабий–танкидий тадқиқотлар. – Самарқанд, Зарафшон, 1992.–166 б.
44. Холмуродов А. Қисса поэтикаси.–Т.: Фан, 2006. –94 б.
45. Храпченко М.Б. Художественное творчество, действительность, человек. – М.: 1978.– с.350.
46. Чернишевский Н.Г. Танланган адабий танкидий мақолалар.–Т.: Ўздавнашр. 1956.–326 б.
47. Шарафиддинов О. Сардафтар саҳифалари.–Т.: Ёзувчи, 1999.–224 б.
48. Шарафиддинов О. Маънавий камолот йўлларида.–Т.: Маънавият, 2001. – 221 б.
49. Шарафиддинов О. Ижодни англаш баҳти.–Т.: Шарқ, 2004.– 640 б.
50. Ғафуров И. Ўттиз йил изҳори. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.– 400 б.
51. Ғуломова Н. Адабиёт дарсларида илғор технологиялардан фойдаланиш.–Т.; 2003.

52. Хусанбоева Қ. Адабиёт-маънавият ва мустақил фикр шакллантирини омили. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.–366 б.
53. Ҳозирги адабий жараённинг актуал проблемалари. – Т.: Фан, 1984. – 168 б.
54. Ҳозирги адабий жараённинг миллий ўзига хослиги. – Т.: Фан, 1984. – 200 б.
55. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик, 5–том. –Т.: Ўзбек миллий энциклопедияси, 2005.–592 б.
56. Ўзбек миллий энциклопедияси. 12 томлик, 11–том. –Т.: Ўзбек миллий энциклопедияси, 2005.–608 б.
57. Қўшжонов М. Ҳаёт ва қаҳрамон. –Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979.–364 б.
58. Қўшжонов М. Ижод масъулияти. –Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.–340 б.

Dissertatsiya va avtoreferatlar:

59. Давронова Ш. Адабий жараён ва ёзувчининг ижодий индивидуаллиги. Фил.ф.н. дисс. автореф. – Тошкент, 2004.–Б.23.
60. Захидова С. Жанровые и стилевые особенности советской узбекской повести (60–70): Дисс..кан.филол.наук. –Т, 1982.–24 с.
61. Имомкаримова М. Ўткир Ҳошимов асарларида миллий кадриятлар талкини. Фил.ф.н. дисс. автореф.–Тошкент, 2004.–Б.23.
62. Каримов Ҳ. Ҳозирги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепсияси. Фил.ф.док. дисс.–Тошкент, 1994.–Б.320.
63. Каримова Ю. Пиримкул Қодиров киссаларида маънавий-ахлоқий муаммоларнинг бадиий талкини. Фил.ф.док. дисс.–Тошкент, 2005.–Б.141.
64. Қўбаев Қ. Ўзбек киссаларида тарихий ҳақиқат ва бадиий маҳорат (60–80 йиллар) Фил.ф.н. дисс. автореф.–Тошкент, 2005; –Б.24.

65. Мирзаев И. Янгича тафакур ва хозирги ўзбек насрининг тараққиёт йўллари. Фил.ф.док. дисс. автореф.—Тошкент, 1991.—Б.48.
66. Муминов Ғ. Ҳозирги ўзбек адабиётида фолклоризм. Фил.ф.док. дисс. автореф.—Тошкент, 1994.—Б. 57.
67. Норматов У. Современная узбекская проза. (Традиции новаторство социалистического реализма). Фил.ф.док. дисс. автореф.—Тошкент, 1977.—39 с.
68. Расулов А. Характер молодежи в современных узбекских советских повестях: Дисс..кан.филол.наук. —Т, 1966; —23 с.
69. Рашидов А. Проблема духовно—нравственного становления героя в узбекской повести о рабочем классе (1920—1960 гг.): Дисс. на соискание ученой степени канд. фил. наук.—Тошкент, 1981.—151с.
70. Рустамова М. Истиклол даври ўзбек кассалари: Фил.ф.н. дисс. автореф. — Тошкент, 2006.—Б.24.
71. Солижонов И. XX асрнинг 80—90 йиллари ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси. Фил. ф. док. дисс. Автореф. . — Тошкент, 2002.— Б.49
72. Тагматов К. Нравственный мир героя и художественные искания в узбекской повести (1960—1970 гг.): Дисс. на соискание учен. степен. канд. фил. наук. —Ташкент, 1981.—156 с.
73. Тенглашев М. Особенности конфликта в узбекских повестях 80—х годов: Дисс..кан.филол.наук. —Т, 1989.—23 с.
74. Тошпулатов Г. Нравственные искания в современной узбекской повести (Мурад Мухаммад Дост, Тагай Мурод, Гаффар Хатамов): Дисс. канд. филол. наук.—Ташкент, 1993.—132 с.

Badiiy adabiyotlar:

75. Ҳошимов Ў. “Аждар”нинг тавбаси: ҳажвий касса ва хикоялар.— Т.: O‘zbekiston, 2012.—368 б
76. Ҳошимов Ў. Баҳор кайтмайди.— Т.: Гафур Гулом номидаги нашриёт—матбаа бирлашмаси, 1992.—448 б.
77. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari: Qissa.—Т.: Sharq, 2008.— 208 б

78. Ҳошимов Ў. Нотаниш орол. –Т.: Ёш гвардия, 1990.– 203 б.
79. Ҳошимов Ў. Сайланма (2 жилдли), 1–жилд. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002.– 408б
80. Ҳошимов Ў. Сайланма (2 жилдли), 2–жилд. Ҳадикли тушлар.–Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002. –408 б
81. Ҳошимов Ў. Дафтар хошиясидаги битиклар. – Т.: Шарк, 2009. –336 б
82. Ҳошимов Ў. Севги киссалари. –Т.: O'zbekiston, 2013. –480 б
83. Ҳошимов Ў. Танланган асарлар. II том. – Т.: Шарк, 2009. –447б
84. Hoshimov O' . Tushda kechgan umrlar: roman .–Т.: Meriyus, 2011.–288 б

Maqola va to'plamlar:

85. Каримов Э. Ўзбек совет адабиётида повест жанри // Адабий турлар ва жанрлар. 1–жилд.–Т.: Фан, 1991.–Б.109–167.
86. Норматов У. Киссадан хиссалар // Жахон адабиёти. –1997.–№3. – Б.157–160.
87. Норматов У. Ҳозирги қиссалар поэтикасига доир // Насримиз уфқлари.–Т.: Адабиёт ва санъат, 1974.–Б.45–64
88. Худойберганов Н. Меъёр ва тасвир. // Ҳақиқат ёғдулари. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1984.–312–332.
89. Содиков С. Ёшлар киссачилиги ҳақида ўйлар // Шарк юлдузи.– Т., №12. –Б.160–165.
90. Шарафиддинов О. Дунёда офтоб борки...// Ҳақиқатга садоқат. Қаҳқаҳа. –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.–Б.5–18.
91. О.Шарафиддинов. Эл ардоқлаган адиб // Ў.Ҳошимов. Баҳор қайтмайди: Сайланма. Қисса ва хикоялар.–Т.: Нашриёт–матбаа бирлашмаси, 1992. –Б.5–24.
92. Шарафиддинов О. Ўткир Ҳошимов. // XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Т.: Ўқитувчи, 1999.
93. Қосимхўжаева А. Қисса жанри хусусида. // XX аср ўзбек адабиёти масалалари. –Т.: Фан, 2012.–248 б.

94. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни // Баркамол авлод—Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори.—Т.: Ўзбекистон, 1997.—214 б.
95. Эл севган адиб. // Ўткир Ҳошимов замондошлар наздида. —Т.: Muntoz so‘z, 2011. —230 б
96. Ҳотамов Н, Саримсоков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча—ўзбекча изоҳли луғати. —Т.: Ўқитувчи, 1983. —Б.248.
97. Ғафуров И. Бадий воқеликнинг ўзига монанд тил // Ўттиз йил изҳори. —Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.

Internet manzili:

98. [www. ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi
99. [http: www. evartist. narod. ru, //](http://www.evartist.narod.ru)
100. [http: // dissertation 2. narod. ru//](http://dissertation2.narod.ru)
101. www.ozbekadabiyoti.com
102. www.eduportal.uz

A. Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 5A111201 -"O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi magistranti Alibekova Sarvinozning 2013-2015 yillardagi ilmiy ishlar ro'yxati

№	Ishning mavzusi	Nashr etilgan yoki qo'lyozma	Nashr etilgan manba, yili, joyi	Hajmi	Hammualif
1	Oilaviy qadriyatlar – ona badiiy tasvirida.	Nashr etilgan	“Ayol ma'naviyat gulshani” V Respublika ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. Jizzax - 2013.	2 -bet	
2	Rabindranat Tagor asarlarining O'tkir Hoshimov ijodiga ta'siri.	Nashr etilgan	“Yosh sharqshunoslarning akademik Ubaydulla Karimov nomidagi XI ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislari”. Toshkent - 2014.	3-bet	
3	Yoshlar tarbiyasida badiiy adabiyotning o'rni.	Nashr etilgan	“Ayol ma'naviyat gulshani” VI Respublika ilmiy – amaliy konferensiya materillari . Jizzax – 2014.	2-bet	
4	Badiiy adabiyotda ona ruhiyati tasviri.	Nashr etilgan	“Tafakkur talqinlari”. Toshkent – 2014.	3-bet	

5	“Bahor qaytmaydi” qissasida inson ruhiyati va tabiati tasviri.	Nashr etilgan	“XXI asr intellektual avlod asri” shiori ostidagi Jizzax va Sirdaryo viloyatlari hududiy ilmiy-amaliy konferensiya materillari. Jizzax - 2014.	2-bet	
6	“Dunyoning ishlari” qissasida frazologizmlarning ifoda xususiyatlari.	Nashr etilgan	“Lingvist” ilmiy maqolalar to‘plami. Toshkent – 2015.	3-bet	
7	“Bahor qaytmaydi” qissasida badiiy qoliplash.	Nashr etilgan	“Davr va ijod muammolari”. Toshkent - 2015.	2-bet	

Magistrant:

S.Alibekova

**Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti o'zbek tili
va adabiyoti yo'nalishi magistranti Alibekova Sarvinozning "O'tkir
Hoshimov qissalarida davr voqealarini tasvirlashda qahramon masalasi"
mavzuidagi magistr ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasiga
ilmiy rahbar filologiya fanlari nomzodi, dotsent N.Soatovanning**

XULOSASI

Alibekova Sarvinozning "O'tkir Hoshimov qissalarida davr voqealarini tasvirlashda qahramon masalasi" mavzuidagi magistr ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi yozuvchining o'zbek qissachilikka tutgan o'mini ko'rsatib berish bilan muhim ahamiyatga ega. Bu orqali yosh tadqiqotchi keng ilmiy jamoatchilikning e'tiborini avvalo, O'tkir Hoshimov qissalarining badiiy o'ziga xos jihatlari, qissalarida shaxs va jamiyatning o'zaro bir-biriga ta'siri, bu ta'sirlarga shaxsning munosabati masalalarini tadqiq etishga, bir so'z bilan aytganda, adibning hozirgacha tadqiq etilmagan qirrasiga qaratgan. O'z navbatida yozuvchi qissalarining o'zbek qissanavisligida yaxlitligi, ajralmasligi, uzviyligini ko'rsatgan.

Dissertant mavzuni ochib berish uchun izchil va to'g'ri reja tuzgan. Har bir bob va fasllar bir-birini o'zaro to'ldirib borib, yaxlitlik hosil qilgan. Alibekova Sarvinoz tadqiqot ishining yutuq jihatlaridan yana biri, ko'plab nazariy adabiyotlarga murojaat qilganligidir. O'zbek qissanavisligi, qissalarda ko'tarilgan mavzular ko'lam, mazkur davr qissalarining badiiyat darajasi, qissanavis ijodkorlarning mahorati masalalariga yaratilajak qissalarda ijodkorlarning e'tibor qaratishi kerak tomonlar, xususan, O'tkir Hoshimov qissalari asosida tadqiqotchi o'z mustaqil fikrlarini ham bildirib borganini qayd qilmoq lozim. Shuningdek, u ko'plab internet manbalariga ham murojaat qilgan. Dissertatsiyaning bu jihati Alibekova Sarvinoz kelgusida o'z o'miga ega, zamonaviy ilmlardan xabardor adabiyotshunos olim bo'lib yetishishidan dalolat bermoqda.

Alibekova Sarvinozning dissertatsiya mavzusi bo'yicha bir qator ilmiy maqola va tezislari respublika ilmiy nashrlarida e'lon qilingan. U ko'plab ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruzalar bilan ishtirok etgan. Bular asosida uning mavzu yuzasidan olib borayotgan tadqiqotlari natijalarini keng ilmiy jamoatchilikka taqdim etishdan cho'chimasligi, ular bilan bimalol bahsga kirisha olishini bilishimiz mumkin.

Umuman olganda, Alibekova Sarvinozning "O'tkir Hoshimov qissalarida davr voqealarini tasvirlashda qahramon masalasi" mavzuidagi magistrlik ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasi yakunlangan tadqiqot holiga kelgan. Tadqiqotda bildirilgan xulosa va umumlashmalar kelgusida O'tkir Hoshimov yuzasidan olib borilajak tadqiqotlar uchun muhim manba bo'la oladi. Menimcha, tadqiqot natijalarini ozroq tirajda bo'lsa ham nashr qildirish va keng ilmiy jamoatchilik hukmiga havola qilsa yaxshi bo'lar edi.

Xulosa qilib aytganda, Alibekova Sarvinozning magistrlik ilmiy darajasini olish uchun taqdim etgan dissertatsiyasi magistrlik ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyalarga qo'yilgan barcha talablarga mos keladi. Garchi o'zbek qissanavisligi yuzasidan o'zbek adabiyotshunosligida bir qancha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lishiga qaramay, hozirga qadar O'tkir Hoshimov qisslari yuzasidan biror bir tadqiqot amalga oshirilgan emas. Tadqiqotning ana shu jihati o'zbek adabiyotshunosligida ilmiy yangilik sifatida baholanishga loyiq. Uni ochiq himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:



f.f. nomzodi, dotsent N. Soatova

**Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax DPI o'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi magistranti Alibekova Sarvinozning 5A141102- O'zbek
adabiyoti ixtisosligidan Magistr akademik darajasini olish uchun "O'tkir
Hoshimov qissalarida davr voqealarini tasvirlashda qahramon masalasi"**
mavzusida yozgan dissertatsiya ishiga

TAQRIZ

Ma'lumki, asrlar davomida shakllanib, turli darajada rivojlanib kelayotgan adabiyotshunoslik fanida badiiy adabiyot, xususan, undagi qahramon va xarakter muammosi hamisha bosh, ya'ni "o'zak" masalalardan biri bo'lib kelgan. Chunonchi, jahon adabiy-estetik ta'limotining eng qadimiy namunasi bo'lgan Aristotelning "Poetika"sida ham, yohud XX asr yirik adiblaridan biri Abdulla Qahhorning adabiy-tanqidiy qarashlari silsilasida ham badiiy obraz va inson xakteri masalasiga eng asosiy bir muammo sifatida qaralgan. Badiiy adabiyot va adabiyotshunoslikning ana shu yuksak talab va mezonlaridan kelib chiqib yondoshilsa, bitiruvchi Alibekova Sarvinozning himoyaga taqdim etilgan ushbu dissertatsiyasi mavzusi va qo'yilgan muammolari dolzarb va muhim ekanligi hech bir ilm va ijod ahlida shubha tug'dirmaydi.

Dissertatsiya mavzuga muvofiq ravishda tuzilgan aniq reja asosida yozilgan bo'lib, kirish, uch mustaqil bob hamda xulosa qismidan tashkil topgan; har bir bob muallifning asosiy maqsadi va o'rganilayotgan muammolarining ustivor xususiyatlarini e'tiborga olgan holda o'z navbatida fasllarga ajratilgan va ularning barchasi mavzuni keng va atroflicha tadqiq etishga qaratilgan.

Chunonchi, dissertatsiyaning birinchi bobida bevosita O'tkir Hoshimovning qissanavis ijodkor ekanligi ta'kidlangan holda hozirgi o'zbek adabiyotida qissa janrining o'ziga xos xususiyatlarini va uning shakllanish va tadrijiy bosqichlari, ya'ni bu janming tadrijiy takomili hamda uning badiiy-spetsifik jihatlari yetarli

darajada ko'rsatib berilgan. Bu jihatdan ishda qissa janrining hikoya va roman kabi boshqa nasriy janrlaridan farqli tomonlariga ham e'tibor qaratilib, O'tkir Hoshimov ijodida qissa janrining asosiy o'rin tutishi uning yozuvchilik iste'dodi xarakteri bilan va voqelikni badiiy mushohada qilishi va uni tasvirlashdagi o'ziga xosligi bilan izohlanishi haqidagi kuzatishlari va chiqargan umumlashma fikrlari muhim o'rin tutadi.

Tadqiqot ishining ikkinchi bobi "Davr voqeligini tasvirlashda ruhiyat masalasi" deb nomlanishining o'zidayoq muallifning asosiy ilmiy va g'oyaviy maqsadi ifodalangan. Jumladan, ushbu bobning birinchi faslida O'tkir Hoshimov qissalaridagi Ona obrazi kechinmalarida davr voqeligiga munosabatning aks ettirilishi muammosi yozuvchining inson xarakterini yaratishdagi va uning murakkab ruhiy kechinmalarini haqqoniy ifodalay olishidagi badiiy mahorati hamda muhim adabiy-estetik prinsiplarining uzviyligi bilan bog'liq tarzda yoritib berganligi tadqiqotchining jiddiy bir yutug'i sifatida baholanishi mumkin. Ayni vaqtda, O'tkir Hoshimovning Ona siymosi orqali san'atkorona ifodalangan hayotiy haqiqat va yuksak insoniy fazilatlar yorqin ochib berilganki, ular nafaqat o'zbek qissachiligida, balki jahon adabiyotdagi ona va ayollar obraziga bag'ishlangan mumtoz asarlar silsilasida ham munosib o'rin tutishi haqida to'g'ri va muhim xulosa chiqarilgan.

Dissertatsiyaning mazkur bobidagi keyingi fasllarida O'tkir Hoshimov qissalarida shaxsning ruhiy tanazzuli ham bevosita davr voqealari bilan chambarchas bog'liq tarzda yoritilishi ham muallifning mavzu va muammolariga jiddiy va xolisona yondoshganligidan hamda ularni tadqiq etishda har bir shaxs xarakteri va taqdirida davrning va obyektiv sharoitning hal qiluvchi roli alohida ahamiyat berganligidan dalolat beradi. Xuddi shu nuqtai nazardan qaralganda, dissertatsiyada O'tkir Hoshimov qissalarida qahramonlar yashab, faoliyat ko'rsatgan jamitdagi muayyan tushkunlik va inqiroz holatlari ham realistik aks ettirganligi

yozuvchining faolligi va haqgo'yligi samarasi sifatida tadqiq etilganligi ham, bizningcha, mazkur ishning ijobiy tomonlaridan biri bo'lib sanaladi.

Dissertatsiyaning so'nggi uchinchi bobi O'tkir Hoshimov qissalarining badiiy kompozitsiyasi va yozuvchi qissalarining umumta'lim maktablarida o'rganilishi masalalariga bag'ishlanganki, bu fasllar ham mavzuni keng va ilmiy asosda yoritib berish maqsadiga bo'ysundirilgan. Ma'lumki, O'tkir Hoshimov qissalari nafaqat mavzu va g'oya jihatidan, balki badiiy kompozitsiyasiga ko'ra ham xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ishda ana shu jihatlar ham e'tiborga olingan va yozuvchi qissalarining kompozitsion o'ziga xosligi va uning asar g'oyaviy-badiiy mazmunini ifodalashdagi o'rni va ahamiyati hamda qahramonlar xarakterini ochishdagi roli ham ibratli misollar tahlili orqali ko'rsatib berganligini e'tirof etish lozim.

Ayniqsa, dissertatsiyaning alohida bir faslida nafaqat O'tkir Hoshimov ijodida, balki so'nggi yillar o'zbek adabiyotida ham jiddiy voqea sifatida baholangan va qizg'in bahs-munozaraga sabab bo'lgan "Dunyoning ishlari" qissasini 5-sinfda o'rganilishi muammosi tadqiqotchining badiiy asarlarni ilmiy va uslubiy jihatdan tahlil eta olish va uni o'quvchiga yetkaza olish qobiliyatidan, qolaversa, pedagogik tajriba va malakasidan ham guvohlik berib turishi bilan e'tiborga loyiq. Bu faslda bildirilgan fikr-mulohazalar mazkur qissaning badiiy kompozitsiyasi, xarakterlar talqinlari va ular taqdirida davr voqeligining haqqoniy aks ettirilishini ta'kidlashi bilan birga yozuvchi qissalariga xos bo'lgan yetakchi xususiyatlarni ham yaqqol ifodalay olishi mavzu haqidagi taassurotlarimizni yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning bu kabi ijobiy yutuqlarini ta'kidlash bilan birga, nazarimizda, ayrim juz'iy kamchiliklar ham mavjudligini eslatib o'tish bizning vazifamizga kiradi. Ishning bir-ikki o'rnida ba'zi uslubiy va imloviy xatolar uchraydi. Shuningdek "Adabiyotlar ro'yxati"ni ham ayrim yangi manbalar, "O'tkir Hoshimov saboqlari" singari asarlar bilan yanada boyitish mumkin edi. Albatta,

ko'rsatilgan bu kamchilik va takliflar dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy qimmatiga jiddiy ta'sir etmaydi.

Mavzu va muammolarning aniq reja asosida izchil tadqiq etilganligi, ilmiy-nazariy fikr va xulosalarning misollar tahlili bilan dalillanganligi mazkur dissertatsiyani tugallangan ish sifatida baholashga asos beradi va uning muallifi Alibekova Sarvinoz magistr akademik darajasini olishga har jihatdan munosib degan taklif bildiraman.

Alibekova Sarvinozning "O'tkir Hoshimov qissalarida davr voqealarini tasvirlashda qahramon masalasi" mavzusidagi magistr ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi yuqori reyting ballini qo'yishga arziydi.

Taqrizchi:



f.f.nomzodi, dotsent U.Qosimov

**Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti o'zbek tili
va adabiyoti yo'nalishi magistranti Alibekova Sarvinozning "O'tkir
Hoshimov qissalarida davr voqealarini tasvirlashda qahramon masalasi"**
mavzuidagi magistr ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasiga
TAQRIZ

Hozirgi zamon o'zbek qissachiligi uzoq yillik adabiy tajribalar, ijodkorlarning qissa janrining mavzu doirasi kengaytirish va badiiy yuksaltirish, jahon xalqlari adabiyotiga xos jihatlarni tatbiq qilish, ulardan oziqlanish kabi ko'plab omillar ta'sirida rivojlanish, taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan. O'zbek qissanavisligini yuksaltirishda Abdulla Qodiriy, Sadridin Ayniy, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor Asqad Muxtor, Saida Zunnunova, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Shukur Xolmirzayev, Xudoyberdi To'xtaboyev, Ne'mat Aminov singari yozuvchilarning har birining o'z o'rnini bor, albatta. Shubhasiz, nomlari zikr qilingan o'zbek qissanavislari qatorida O'tkir Hoshimov boshqalarnikiga o'xshamagan ijod uslubi, tanlagan mavzularining dolzarbligi, ularda millat va xalq taqdiri birinchi o'rinda turganligi bilan e'tiborga molik. *Ijodkor asarlarining ana shu jihatlari hamma vaqt munaqqid va o'quvchilarning diqqatini tortib kelgan. Garchi O'.Hoshimov asarlari yuzusidan turli darajada ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lsa-da, hozirga qadar qissalari alohida olinib, davr voqeligini tasvirlashda qahramon masalasi, ularning badiiyati monografik tarzda o'rganilmagan. S.Alibekovaning magistrlik ilmiy darajasini olish uchun taqdim etgan dissertatsiyasi adib asarlarining ana shu tomonlarni yoritishga qaratilganligi bilan dolzarb.*

Dissertatsiyada mavzuning ochib berilishi uchun uch bobdan iborat bir-birini to'ldirib boradigan to'g'ri reja tuzilgan. Boblar izchil va yaxlitlik hosil qiladi. Birinchi bob qissa janrining taraqqiyot bosqichlari, unga yondosh bo'lgan kichik prozaik janrlardan farqli va o'xshashliklarning tahliliga bag'ishlanganligi muhim deb o'ylayman. Zero, O'.Hoshimov qissalarining o'ziga xosligi xususida so'z

yuritishdan oldin qissa janrining taraqqiyoti va janr xususiyatlaridan xabardor bo'lish talab etiladi. Tadqiqotchi mavzuning mazkur qirralarini e'tiborga olib, o'zbek adabiyotida qissa janrining XX asrgacha bo'lgan davrdagi taraqqiyot yo'lini ko'rsatib bergan. Shu bilan birga qissa janrining badiiyat mezonlari, qissa janrining hozirgi adabiy jarayonda ko'zga tashlanayotgan xususiyatlarini o'zbek qissanavislari asarlari misolida dalillaydi. Dissertant birinchi bobning ikki bobida qissa janri tarixi va uning badiiyati bilan bog'liq ko'plab nazariy fikrlarni keltirish asnosida o'zni kelganda ular bilan bahsga kirisha oladi. Ayni chog'da qissaga xos xususiyatlar yuzasidan o'zining mustaqil fikrga ega ekanligini ham namoyish qilib borgan. Bizga tadqiqotchining ushbu bobda qissalarning mavzu va badiiyati yuzasidan bildirgan tasniflari ma'qul keldi.

Bobning ikkinchi fasli O'.Hoshimovning qissanavis ijodkor sifatida ko'z oldimizda gavdalantirishda muhim. Bu faslda adib ijodidagi nasrning bir qator janrlari mavjudligi aytiladi. Shu bilan birga kichik nasriy janrlar uning qissanavis sifatida kamolga yetishida, qissalari esa romannavis sifatida tanilishida ko'prik vazifasini o'taganligi adib ijodi bo'yicha bildirilgan ko'plab xulosalar hamda muallifning talqinlari asosida ko'rsatib berilgan.

Ikkinchi bobda O'tkir Hoshimov davr voqeligini ifodalashda ruhiyat masalasiga qay tarzda yondoshganligi ona obrazi kechinmalarida davr voqeligiga munosabatning ifodasi, shaxs ruhiy tanazzulining voqelikka bog'liqligi, jamiyatdagi ma'naviy tushkunlik tarzida tahlilga tortilgan. Tahlillar asnosida dissertant adibning barcha qissalarining mavzuga aloqador jihatlarini puxta o'rganib chiqqanligi bilinadi. Tadqiqotchi tahlil jarayonidagi zarur misollar va o'z xulosalari bilan ilmiy asoslangan umumlashmalarni taqdim qilgan.

Ishning uchinchi bobi O'tkir Hoshimov qissalarining kompozitsiyasi va ularning umumta'lim maktablarida o'rganilishiga bag'ishlangan. Birinchi faslda adib qissalarining kompozitsion xilma-xilligiga nazar tashlanadi. Ikkinchi faslda

davr voqeligini tavsirlashdagi O'tkir Hoshimov qissalarining kompozitsion o'ziga xos jihatlari tadqiq qilingan. Bobning so'nggi fasli talabga ko'ra, ijodkor asarlarining umumta'lim maktablarida o'rganilishiga bag'ishlangan. Ushbu bob ham ko'plab nazariy fikrlar va asosli xulosalarga boy tadqiqot tarzida yuzaga kelgan. Bobda bildirilgan xulosalar asosida O'.Hoshimovning qissalaridagi o'ziga xos kompozitsiya yuzasidan ilmiy xulosalarga ega bo'la olamiz.

Albatta, bular ishning yutuqli jihatlari. Dissertatsiyaning kirish qismida yozuvchining "Odamlar nima derkin?" qissasi xususida so'z yuritilgan. Lekin ish davomida qissa biror marta tahlilga tortilmaydi. Balki tadqiqotning hajmi bunga yo'l qo'ymagandir. Bizningcha, mazkur qissa yuzasidan ham fikr-mulohazalar bayon qilinsa yaxshi bo'lar edi.

Shuningdek, yozuvchining badiiy mahoratini ko'rsatishda bir nechta ijodkorning asarlari bilan qiyoslanganda ishning ilmiy qimmatini yana ham oshgan bo'lar edi. Tadqiqotda faqat Abdulla Qahhor va M.M.Do'stlarning qissanavisliklari o'ziga xos uslublari bilan O'.Hoshimovning badiiy mahorati qiyoslangan. Yana bir mulohaza: birinchi bobning uchinchi faslini adibning hayot yo'li bilan bog'liq ma'lumotlar bilan to'ldirib o'tirmasdan, to'g'ridan-to'g'ri ijodiy faoliyati, qissalarining ijodidagi o'rni masalasiga ko'chib qo'ya qolsa ma'qul bo'lar edi. Albatta, bildirilgan mulohazalar tadqiqotning umumiy ilmiy qimmatini pasaytirmaydi. Bular kelgasida e'tiborga olinishi lozim bo'lgan istaklar.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti Alibekova Sarvinovning "O'tkir Hoshimov qissalarida davr voqealarini tasvirlashda qahramon masalasi" mavzuidagi magistr ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi yakunlangan tadqiqot holiga kelgan. Ushbu dissertatsiya chuqur ilmiy tadqiq va tahlillar asosida yaratilgan. Mukammal. Himoya qilishga tayyor. Yuqori reyting ballini qo'yishga arziydi.

Taqrizchi:



f.f.doktori, Sh.Doniyorova